O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI



KRIMINOLOGIYA
КРИМИНОЛОГИЯ
CRIMINOLOGY

XALQARO ILMIY-AMALIY JURNAL

МЕЖДУНАРОДНЫЙ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

INTERNATIONAL
SCIENTIFIC AND PRACTICAL JOURNAL

ISSN 3060-5369

№1 - 2025

O‘z.KTI

TAHRIRIY-NOSHIRLIK MARKAZI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

KRIMINOLOGIYA

XALQARO ILMIY-AMALIY JURNAL

КРИМИНОЛОГИЯ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

CRIMINOLOGY

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL JOURNAL

№1 - 2025

KRIMINOLOGIYA
КРИМИНОЛОГИЯ
CRIMINOLOGY

XALQARO ILMIY-AMALIY JURNAL
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL JOURNAL

№ 1/ 2025
ISSN 3060-5369

MUASSIS | O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

Jurnal 2025 yil 23-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ro‘yxatga olingan. Ro‘yxat raqami C-5669705. Guvohnoma № 584299

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Kengashi muhokamasidan o‘tgan

Original-maket O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida tayyorlandi

Maqolalar har qanday usulda to‘liq yoki qisman ko‘chirilib bosilganida «O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutining «Kriminologiya» xalqaro ilmiy-amaliy jurnali»dan olinganligi ko‘rsatilishi shart

Materiallarda keltirilgan fakt va raqamlar, ko‘chirmalar, iqtisodiy statistik ma’lumotlar rostligi va aniqligi uchun muallif javob beradi

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma taqriz qilinmaydi

Tahririyat manzili:
100187 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug‘bek tumani,
Buyuk ipak yo‘li ko‘chasi, 243
Tel.: +998 (71) 231-39-77
Website: kti.iiv.uz

Bichimi 60x40 1/8. Bosma tabag`i 9.5.
Adadi 50 nusxa
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida chop etilgan
Bosishga ruxsat etildi 25.03.2025
Buyurtma № 25/10

MUNDARIJA

KRIMINOLOGIYA
КРИМИНОЛОГИЯ
CRIMINOLOGY

XALQARO ILMIY-AMALIY JURNAL
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL JOURNAL

№ 1/ 2025
ISSN 3060-5369

УЧРЕДИТЕЛЬ | ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ КРИМИНОЛОГИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Журнал зарегистрирован в Агентстве информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан 23.01.2025 г.
Рег.номер С-5668705
Свидетельство № 584299

Журнал подготовлен в Редакционно-издательском центре Исследовательского института криминологии Республики Узбекистан.

Адрес редакции:
100187 г. Ташкент,
Мирзо Улугбекский район,
ул. Буюк ипак йули, 243
Tel.: +998 (71) 231-39-77
Website: kti.iiv.uz

Формат 60x40 1/8. Усл.печ.л. 9.5.
Тираж 50 экз. Отпечатано в Редакционно-издательском центре Исследовательского института криминологии Республики Узбекистан
Подписано в печать: 25.03.2025
Заказ № 25/10

СОДЕРЖАНИЕ

KRIMINOLOGIYA
КРИМИНОЛОГИЯ
CRIMINOLOGY

XALQARO ILMIY-AMALIY JURNAL
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL JOURNAL

№ 1/ 2025
ISSN 3060-5369

FOUNDER | RESEARCH INSTITUTE OF CRIMINOLOGY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

The journal was registered on January 23, 2025, by the Agency for Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan under the number C-5669705
Certificate 584299

Discussed by the Council of the Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan.

Original layout prepared at the Editorial and Publishing Center of the Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan.

Address:
100187, Tashkent city,
Mirzo Ulugbek dist.,
Buyuk Ipak Yoli str., 243
Tel.: +998 (71) 231-39-77
Website: kti.iiv.uz

Format 60x40 1/8. Conditional printed sheet 9.5.
Circulation 50 copies
Printed in the Printing hose of the Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan
Signed for publication: March 25, 2025
Order № 25/10

CONTENT

JINOYATCHILIKNI ILMIY ASOSDA OLDINI OLISHNING YANGI BOSQICHI

Tashpulatov Aziz Anvarovich

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, general-mayor

Министр внутренних дел Республики Узбекистан, генерал-майор

Minister of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Major General

Bugungi kunda respublikada kuzatilayotgan jinoyatchilik tendensiyalarini tahlil va prognoz qilish, jinoyatchilik omillarini ilmiy diagnoz qilish, qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish orqali ularni bartaraf etish, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni huquq-tartibot amaliyotidagi muammolarning manzilli hal etilishiga yo‘naltirish mexanizmlarini tubdan isloh qilish zarurati yuzaga kelgan.

Sh.M. Mirziyoyev

O‘zbekistonda Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligida “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan, jamiyatda jinoyatchilik darajasini pasaytirish, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabat va barqaror siyosatni ta’minlashga erishish hamda Yangi O‘zbekistonni barpo etish maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatda aholi xavfsizligini ta’minlash borasida O‘zbekiston erishayotgan yutuqlarning barchasi – Davlat rahbarining tinimsiz sa’y-harakatlari natijasi ekanligiga nafaqat biz, balki dunyo hamjamiyati guvoh bo‘lib turibdi.

Globallashuv jarayonlari keskin tus olgan tahlikali dunyoning ayrim hududlarida dinlararo, millatlararo va boshqa sabablar tufayli qurolli to‘qnashuvlar sodir etilayotgan bir paytda, mamlakatda tinchlikni saqlash har qachongidan ham muhim vazifa ekanligini dunyo ahli anglab yetdi. Zero, davlat tinch bo‘lsa, farovonlik va osoyishtalik bo‘ladi, barcha sohalarda islohotlar jadal amalga oshiriladi.

Shu bois Prezidentimiz har bir ma’ruzalarida aynan davlatimizning tinchligini, fuqarolarimizning osoyishtaligi va haq-huquqlarini to‘liq ta’minlashga, har bir mahallada xavfsiz muhitni yaratishga alohida e’tibor berilishi zarurligini ta’kidlamoqda.

Buning natijasi o‘laroq bugungi kunda eng olis qishloqlarimizda ham fuqarolarimiz uchun munosib mehnat va yashash sharoitlari yaratilib, aholining turmush farovonligi hamda tinch va xavfsizligi ta’minlanmoqda, yurtimizning xalqaro maydondagi nufuzi tobora yuksalib bormoqda.

Har qanday davlatda ichki ishlar organlari mamlakatda tinchlik-osoyishtalikni hamda qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning emin-erkin hayot kechirib mehnat qilishlari uchun qulay muhit yaratishga mas’ul tizim hisoblanadi. Aynan shu bois O‘zbekistonda bu borada bir qator ishlar amalga oshirildi. Oxirgi yillarda boshqa davlat idoralari kabi ichki ishlar organlari tizimi ham tubdan takomillashtirildi, faoliyati bugungi zamon talablariga moslashtirildi. Davlat rahbarining ta’biri bilan aytganda, “xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak”, degan tamoyil hayotga tatbiq etildi.

Ichki ishlar organlarini xalq manfaatlari yo‘lida xizmat qiladigan professional tizimga aylantirish maqsadida 120 dan ziyod Prezident farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi. Natijada, tizimdagi shaxsiy tarkibning 85 foizi quyi bo‘g‘inga tushirilib, bevosita aholiga yaqinlashtirildi. Har bir sohaviy xizmatlarning faoliyatiga eng zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlari joriy etildi.

Tizim faoliyatini raqamlashtirish darajasi 86 foizga yetkazilib, bu orqali fuqarolarga xizmat ko‘rsatish tezkorligi oshirildi va bevosita aholi bilan kunlik ishlayotgan xodimlarning faoliyatida “inson omili”ga barham berilmoqda.

Eng muhimi, xavfsizlik bilan bog‘liq barcha ishlar respublika, viloyat yoki tuman/shahar darajasida emas, balki mahalladan boshlab “mahallabay” usulida amalga oshirilmoqda.

Davlat rahbarining topshirig‘i asosida Vazir darajasigacha barcha rahbarlar pastga tushib, mahallama-mahalla, uyma-uy yurib, aholi bilan yaqindan suhbatlashib, xavfsizlikni ta’minlash muammolariga birgalikda yechim topish metodlari ijobiy amaliyotga aylandi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini kunlik tashkil etish, aholi orasida jinoyatchilikka nisbatan murosasiz munosabatni va daxldorlik hissini shakllantirish hamda jinoyatchilikni “mahallabay” jilovlash mexanizmlari yaratilgani bugun o‘z samarasini bermoqda. Har bir hududni jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirishdek ulkan mas’uliyatni va vazifani ijro etishga sidqidildan harakat qilinmoqda.

Jinoyatlarning sabablarini “mahallabay” va “sohabay” muhokama qilish va ularni bartaraf etish borasida vakolatli davlat idoralarining kunlik vazifalarni belgilash tizimi joriy etildi. Bu tizim aholiga yanada yaqinroq bo‘lish bilan birga, ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatishga asos bo‘lmoqda.

Mahallaning o‘zida aholining muammolarini hal etish orqali xavfsiz muhitni yaratish uchun “mahalla yettiligi” yaratilib, har bir mahallaga profilaktika inspektori ajratildi. Ularning asosiy vazifasi mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish hisoblanadi.

Endilikda, ular o‘zaro hamkorlikda “ijtimoiy profilaktika” doirasida huquqbuzarlik sodir etishi hamda huquqbuzarlikdan jabrlanishi mumkin bo‘lgan shaxslarning muammolarini hal etmoqda va bu ham mahallani xavfsiz hududga aylantirishga xizmat qilmoqda. Xavfsiz mahallada fuqarolar emin-erkin, farovon yashash bilan birga, oilasini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta’minlash uchun bemalol maqsadlarini amalga oshira oladi. Prezidentimizning “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy bo‘ladi” degan ta’kidlari amalda isbotini topdi. Mehnat bilan band bo‘lgan mahalla aholisi orasida jinoyat sodir etilmaydi.

Yana shuni alohida qayd etish joizki, bugungi global dunyoda xavfsizlikka tahdidlar va xavf-xatarlar tobora kuchayib, terrorizm, ekstremizm, giyohvandlik, kiberjinoyatlar soni ortib borayotgan bir paytda, Buyuk Britaniyaning Iqtisodiyot va tinchlik instituti tomonidan 2023-yil natijasi bo‘yicha e’lon qilingan reyting ko‘rsatkichlari bo‘yicha O‘zbekiston jahonning 121 ta mamlakatlari orasida eng xavfsiz davlat deb tan olingan. Bu Prezidentimiz rahbarligida xavfsizlik sohasida amalga oshirilayotgani islohotlar natijasi bo‘lib, respublikamizda xavfsiz muhitni yaratishga, fuqarolarning haq-huquqlarini ishonchli himoya qilishga zamin yaratilganining yaqqol dalili sifatida qayd etilishi lozim.

Ijtimoiy hayotning keskin sur’atlarda rivojlanib borishi, ilm-fan, texnika taraqqiyoti insoniyatga o‘zining ijobiy jihatlari bilan birga, salbiy tomonlarini ham namoyon etmoqda. Bunday rivojlanish dunyoda etnik va millatlararo mojarolar keng tus olishiga, korrupsiya, terrorizm, ekstremizm,

giyohvandlik, kiberjinoyatchilik kabi chegarabilmas tahdidlarning ortishiga, ushbu illatlar millionlab odamlarga ma’naviy va iqtisodiy zarar yetkazishi bilan birga, kelajak avlodni zararli yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishiga, ularni to‘g‘ri hayotga emas, balki aksariyat yoshlarda yengil hayot tarzini kechirish, noqonuniy yo‘llar bilan tez boyib ketish kabi noto‘g‘ri tushuncha shakllanishiga sabab bo‘lmoqda.

Bu esa, huquq-tartibot sohasida yangicha ishlash uslublarini amaliyotga tatbiq etish, istiqboldagi muammolarni aniqlash, vaziyatni ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganish lozimligidan dalolat bermoqda. Ayniqsa, jinoyatchilik tendensiyalarini tahlil va prognoz qilish, jinoyatchilik omillariga ilmiy xulosa berish, huquq-tartibot sohasida maqsadli ilmiy tadqiqotlarni olib borish juda muhimdir.

Zamon bilan hamnafas bo‘lish, sodir etilishi, shuningdek, chetdan kirib kelishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni prognoz qilish va oldini olish maqsadida, Davlat rahbarining tashabbusi bilan, O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etildi. Institutda jinoyatchilik tendensiyalarini tahlil va prognoz qilish, jinoyatchilik omillariga ilmiy xulosa berish, huquq-tartibot sohasida maqsadli ilmiy tadqiqotlarni olib borish ishlari amalga oshiriladi.

Bundan buyon, nafaqat respublikada, balki global dunyoda ham xavfsizlikka tahdidlarni oldindan bilish, har bir jinoyat turi va hududning kriminogen vaziyatiga qarab baho berish orqali jinoyatchilikni jilovlash amaliyoti tizimli yo‘lga qo‘yiladi.

2024-yil boshida Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-10-son farmon bilan Kriminologiya tadqiqot instituti zimmasiga bir qator vazifalar belgilandi. Jumladan:

respublikadagi kriminogen vaziyatga oid chuqur tadqiqotlarni amalga oshirish, jinoyatchilik tendensiyalarini tizimli ravishda tahlil va prognoz qilish, uning ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, ma’naviy-ma’rifiy, huquqiy, tibbiy va tashkiliy omillarini kompleks ilmiy diagnoz asosida aniqlash;

hududlar kesimida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish choralarining samaradorligini ilmiy jihatdan baholash, shuningdek, ilmiy tahlil, prognoz va diagnoz xulosalariga asoslangan holda, qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish orqali jinoyatchilik omillarini bartaraf etish choralarini ishlab chiqish;

ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini bajarish orqali kriminologik faoliyat amaliyotida mavjud muammolarni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan kompleks yechimlarni ishlab chiqish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni tashkil etish;

jamoatchilik o‘rtasida shov-shuvga sabab bo‘lgan jinoyatlarning omillarini aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqishda belgilangan tartibda mutaxassis sifatida surushtiruv va dastlabki tergov organlariga uslubiy ko‘maklashish;

jahon kriminologiyasi va xorijiy davlatlar kriminologik faoliyat to‘g‘risidagi qonunchiligining ilg‘or tajribalarini doimiy o‘rganish hamda uning natijalarini O‘zbekiston Respublikasi sharoitlarida joriy etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

kriminologiya sohasi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilik shaklida oliy malakali kadrlarni tayyorlash, talabgorlarni belgilangan tartibda ilmiy darajalar va ilmiy unvonlarga taqdim etish.

Mazkur yo‘nalishlar doirasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida har chorakda “Jinoyatchilik omillari” va “Jinoyatchilik tendensiyalari”, har yil yakunida esa – “Kriminologik tadqiqotlar” bo‘yicha davlat hisobotlari tayyorlanadi va Hukumat hamda tegishli davlat idoralariga kiritiladi.

Shuningdek, hududlardagi kriminogen vaziyatlarni ilmiy, amaliy tahlil qilinishi yuzasidan tavsiya, takliflar ishlab chiqiladi va chora-tadbirlarni belgilash bo‘yicha metodik qo‘llanmalar tayyorlanadi hamda soha mutaxassislariga manzilli yetib borishi ta’minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-10-son farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, ya’ni “Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-22-son hamda “Kriminologik faoliyatni ilmiy ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-445-son qarorlarda Kriminologiya tadqiqot instituti faoliyati natijalarini hamda mahalliy va xorijiy olimlarning kriminologiya va jinoyatlarning oldini olishga doir nazariy qarashlarini yoritib boruvchi “Kriminologik faoliyat” ilmiy-amaliy hamda “Kriminologiya” xalqaro ilmiy-amaliy jurnallarini ta’sis etish belgilangan

Yuqorida keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida yaratilgan va bugun Sizga birinchi soni taqdim etilayotgan “Kriminologiya” xalqaro ilmiy-amaliy jurnali nafaqat respublikamizda, balki xorijiy davlatlarda ham tinchlik-osoyishtalikni ta’minlash, jinoyatlarning barvaqt oldini olish, zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan tadqiqot natijalarini dunyo hamjamiyatiga yetkazish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutining xorijiy davlatlarning tegishli ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan manzilli hamkorlikni amalga oshirishida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi, degan umiddaman.

НОВЫЙ ЭТАП НАУЧНО-ОБОСНОВАННОГО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ПРЕСТУПНОСТИ

Сегодня назрела необходимость кардинального реформирования механизмов анализа и прогнозирования тенденций преступности в республике, научной диагностики факторов преступности, их устранения путем совершенствования законодательства и правоприменительной практики, а также направления научных исследований на целенаправленное решение проблем правоприменительной практики.

Ш.М. Мирзиёев

В настоящее время в Узбекистане под руководством Президента Шавката Мирзиёева реализуются последовательные реформы, основанные на принципе «Безопасного и мирного государства», направленные на снижение уровня преступности в обществе, достижение дружественных отношений с соседними странами и обеспечение стабильной политики, построение Нового Узбекистана.

Не только мы, но и мировое сообщество является свидетелем того, что все успехи, которых добился Узбекистан в обеспечении безопасности населения страны за последние годы, являются результатом неустанных усилий Главы государства.

В то время, когда в некоторых частях мира происходят вооруженные конфликты по межконфессиональным, межэтническим и другим причинам, когда процессы глобализации принимают опасный оборот, люди во всем мире осознали, что поддержание мира в стране в данное время важнее, чем когда-либо. Ведь, когда в стране царит мир, там будет процветание и спокойствие, а реформы будут осуществляться во всех сферах.

Ввиду этого, в каждом своем выступлении Президент подчеркивает о необходимости уделять особое внимание обеспечению мира в стране, благополучию и защите прав граждан, созданию безопасной среды в каждой махалле.

В результате сегодня даже в самых отдаленных селах создаются достойные условия труда и жизни для наших граждан, обеспечивается благополучие населения, мир и безопасность, растет авторитет нашей страны на международной арене.

В любом государстве органы внутренних дел являются системой, ответственной за обеспечение мира и спокойствия, верховенства закона, создание благоприятных условий для свободного проживания и труда граждан. Именно поэтому в Узбекистане проводится ряд работ в этом направлении. За последние годы система органов внутренних дел, как и других государственных органов, кардинально усовершенствована, а их деятельность адаптирована к современным требованиям. Как отметил Глава государства, принцип «не народ должен служить государственным органам, а государственные органы должны служить народу» был реализован на практике.

В целях преобразования органов внутренних дел в профессиональную систему, служащую интересам народа, принято более 120 указов и постановлений Президента, а также постановлений Кабинета Министров. В результате 85 процентов кадрового состава системы переведено на начальный уровень и приближено к населению. В деятельность каждой отраслевой службы внедрены самые современные технологии и научные достижения.

Уровень цифровизации деятельности системы доведен до 86 процентов, благодаря чему повышена эффективность предоставления услуг гражданам, а также исключен «человеческий фактор» в деятельности сотрудников, работающих непосредственно с населением.

Самое главное, что вся работа, связанная с безопасностью, ведется не на республиканском, областном или районно-городском уровне, а непосредственно в каждой махалле.

По поручению Главы государства все должностные лица вплоть до уровня министров делая обходы по махаллям и домам, проводя беседы непосредственно с населением стали сообща находить эффективные решения проблем безопасности.

Организация ежедневной профилактики правонарушений, формирование у населения нетерпимого отношения к преступности и чувства сопричастности, создание механизмов пресечения преступности «по всем махаллям» сегодня дают свои результаты. Прилагаются значительные усилия для выполнения ответственной задачи превращения каждого района в зону, свободного от преступности.

Введена система обсуждения причин преступлений «по махаллям» и «по сферам», а также определения ежедневных задач уполномоченных государственных органов по их устранению. Эта система, будучи ближе к населению, служит основой для оказания им социальной помощи.

Для создания безопасной среды путем решения проблем населения в самой махалле создана «махаллинская семерка», а за каждой махаллей закреплен инспектор по профилактике. Их главная задача — превратить махаллю в зону, свободную от преступности.

Теперь, в рамках «социальной профилактики», они совместно решают проблемы лиц, которые могут совершить правонарушения, и которые могут стать жертвами правонарушений, что также служит превращению махалли в безопасную зону. В безопасной махалле граждане могут жить свободно и благополучно, а также беспрепятственно реализовывать свои цели по социально-экономической поддержке своих семей. Слова Президента «Если народ будет богатым, то и государство будет богатым» нашли свое подтверждение на практике. Среди трудоустроенных жителей махалли не совершается ни одного преступления.

Стоит особо отметить, что в то время, когда в современном глобальном мире увеличиваются угрозы и опасности для безопасности, растет число случаев терроризма, экстремизма, наркомании, киберпреступности, согласно рейтинговым показателям, опубликованным Институтом экономики и мира Великобритании по итогам 2023 года, Узбекистан признан самой безопасной страной среди 121 страны мира. Несомненно, это результат проводимых реформ в сфере безопасности под руководством Президента нашей страны.

Стремительное развитие общественной жизни, прогресс науки и техники, наряду с положительными сторонами являют человечеству и свои отрицательные стороны. Такое развитие приводит к широкому распространению этнических и межэтнических конфликтов в мире, росту таких безграничных угроз, как коррупция, терроризм, экстремизм, наркомания, киберпреступность. Эти пороки не только наносят моральный и экономический ущерб миллионам людей, но и подводят будущее поколение под влияние пагубных чуждых идей, приводя их не к полноценной жизни, а к формированию у большинства молодых людей заблуждения о легкой жизни и быстром обогащении незаконным путем. Это свидетельствует о необходимости внедрения новых методов работы в сфере правоохранительной деятельности, выявления будущих проблем, изучения ситуации на основе научных подходов.

В целях соответствия требованиям времени, прогнозирования и своевременного предупреждения преступлений, а также преступлений, заходящих из-за рубежа, по инициативе Главы государства создан Исследовательский институт криминологии Республики Узбекистан. Институт проводит анализ и прогноз тенденций преступности, дает научное обоснование факторам преступности, проводит целевые научные исследования в сфере правоохранительной деятельности.

Отныне практика профилактики преступности будет системно внедряться не только в республике, но и в мировом масштабе, путем прогнозирования угроз безопасности и оценки криминогенной обстановки по каждому виду преступности и региону.

Указом Президента «О мерах по поднятию на качественно новый уровень научно-исследовательской деятельности в области обеспечения общественной безопасности и борьбы с преступностью», принятым в начале 2024 года, на Исследовательский институт криминологии возложен ряд задач. В том числе:

проведение углубленных исследований криминогенной обстановки в республике, системного анализа и прогнозирования тенденций преступности, определение ее социальных, экономических, психологических, духовно-просветительских, правовых, медицинских и организационных факторов на основе комплексной научной диагностики;

научная оценка эффективности мер по стабилизации криминогенной обстановки в разрезе регионов, а также разработка мер по устранению факторов преступности путем совершенствования законодательства и правоприменительной практики на основе выводов научного анализа, прогнозов и диагностики;

разработка научно обоснованных комплексных решений проблем, существующих в практике криминологической деятельности, путем реализации проектов научно-практических исследований, организация необходимых мероприятий по практическому внедрению научных разработок;

оказание в установленном порядке в качестве специалиста методической помощи органам дознания и предварительного следствия в выявлении факторов преступлений, вызвавших общественный резонанс, и разработке мер по их устранению;

постоянное изучение передового опыта мировой криминологии и законодательства зарубежных государств в сфере криминологической деятельности, разработка предложений и рекомендаций по внедрению его результатов в условиях Республики Узбекистан;

подготовка научных кадров высшей квалификации в форме самостоятельного соискательства в области криминологии, представление соискателей к ученым степеням и ученым званиям в установленном порядке.

По результатам научных исследований, проводимых в рамках указанных направлений, ежеквартально готовятся государственные отчеты по «Факторам преступности» и «Тенден-

циям преступности», а в конце каждого года по «Криминологическим исследованиям» для представления в Правительство и соответствующие государственные органы.

Также будут разработаны рекомендации и предложения по научно-практическому анализу криминогенной обстановки в регионах, подготовлены методические пособия по определению мер, будет обеспиваться их адресная доставка специалистам на местах.

Основной целью всего этого является глубокий анализ криминогенной обстановки на территории республики, прогнозирование угроз общественной безопасности и определение конкретных мер по эффективному противодействию им.

В целях обеспечения реализации Указа Президента Республики Узбекистан УП-10, нормативно-правовых актов, а именно Постановлений Президента Республики Узбекистан № 22 «О мерах по организации научно-практических исследовательской работы в области криминологии» и № 445 «О мерах научного обеспечения криминологической деятельности», предусмотрено учреждение научно-практического журнала «Криминологическая деятельность» и международного научно-практического журнала «Криминология», освещающих результаты деятельности Института и теоретические взгляды отечественных и зарубежных ученых по вопросам криминологии и профилактики преступности.

Надеюсь, что международный научно-практический журнал «Криминология», первый номер которого вам сегодня представляется, послужит важным инструментом для обеспечения мира и спокойствия не только в нашей республике, но и в зарубежных странах, для доведения результатов проводимых исследований по ранней профилактике преступлений, противодействию современным угрозам до мирового сообщества, для осуществления целенаправленного сотрудничества Исследовательского института криминологии Республики Узбекистан с соответствующими научно-исследовательскими учреждениями зарубежных стран.

NEW STAGE OF SCIENTIFIC-BASED CRIME PREVENTION

> ***Today, there is a need to radically reform the mechanisms for analyzing and forecasting the trends in crime observed in the republic, scientifically diagnosing the factors of crime, eliminating them by improving legislation and law enforcement practice, as well as directing scientific research towards the targeted solution of problems in law enforcement practice..***
>
> ***Sh.M.Mirziyoyev***

In Uzbekistan, under the leadership of President Shavkat Mirziyoyev, consistent reforms are being carried out based on the principle of a "Safe and peaceful state," aimed at reducing the level of crime in society, achieving friendly relations and a stable policy with neighboring countries, and building a New Uzbekistan..

Not only we, but the world community is witnessing that all the achievements of Uzbekistan in ensuring the safety of the population in the country in recent years are the result of the tireless efforts of the President.

At a time when armed conflicts are occurring in some regions of the dangerous world, where globalization processes are intensifying, for interfaith, interethnic, and other reasons, the world community has realized that maintaining peace in the country is more important than ever. Indeed, if the state is peaceful, there will be prosperity and tranquility, and reforms will be implemented rapidly in all spheres.

Therefore, in each of his speeches, the President emphasizes the need to pay special attention to ensuring the peace of our state, the tranquility and rights of our citizens, and creating a safe environment in every mahalla.

As a result, today, even in the most remote villages, decent working and living conditions are being created for our citizens, the well-being and peace of the population are being ensured, and the authority of our country in the international arena is growing.

In any state, the internal affairs bodies are a system responsible for ensuring peace and tranquility, the rule of law, and creating a favorable environment for citizens to live and work freely. For this very reason, a number of works have been carried out in Uzbekistan in this direction. In recent years, the system of internal affairs bodies, like other state bodies, has been radically improved, and their activities have been adapted to modern requirements. In the words of the head of state, the principle "not the people should serve state bodies, but state bodies should serve the people" has been put into practice.

In order to transform the internal affairs bodies into a professional system serving the interests of the people, more than 120 Presidential decrees and resolutions, as well as resolutions of the Cabinet of Ministers, have been adopted. As a result, 85 percent of the personnel in the system were transferred to the lower level and brought closer to the population. The most modern technologies and scientific achievements have been introduced into the activities of each sectoral service.

The level of digitalization of the system's activities has been brought to 86 percent, thanks to which the efficiency of providing services to citizens has been increased, and the "human factor" in the activities of employees working directly with the population is being eliminated.

Most importantly, all work related to security is being carried out not at the republican, regional, or district/city level, but on a "mahallabay" basis, starting from the mahalla.

Based on the instructions of the Head of State, all officials, up to the level of Ministers, have become effective in finding joint solutions to security problems by going from neighborhood to neighborhood, house to house, and engaging in close conversations with the population.

The daily organization of crime prevention, the formation of an intolerant attitude towards crime and a sense of belonging among the population, and the creation of mechanisms for curbing crime "mahallabay" are yielding results today. Sincere efforts are being made to fulfill the enormous responsibility and task of transforming each region into a crime-free zone.

A system has been introduced for discussing the causes of crimes "mahallabay" and "sohabay," as well as determining the daily tasks of authorized state bodies for their elimination. This system, being closer to the population, serves as a basis for providing them with social assistance.

To create a safe environment by solving the problems of the population in the mahalla itself, a "mahalla seven" has been created, and a prevention inspector has been assigned to each mahalla. Their main task is to turn the mahalla into a crime-free zone.

Now, in cooperation, within the framework of "social prevention," they solve the problems of persons who may commit offenses and be victims of offenses, which also serves to turn the mahalla into a safe zone. In a safe mahalla, citizens can live freely and prosperously, as well as freely fulfill their goals for the socio-economic support of their families. The President's words "If the people are rich, the state will be rich" have been proven in practice. No crimes are committed among the employed residents of the mahalla.

It is also worth noting that at a time when threats and dangers to security are increasing in today's global world, and the number of terrorism, extremism, drug addiction, and cybercrime is growing, according to the rating indicators published by the Institute for Economics and Peace of Great Britain based on the results of 2023, Uzbekistan is recognized as the safest country among 121 countries in the world. It should be noted that this is the result of the reforms being carried out under the leadership of the President of our country in the field of security, which is a vivid confirmation of the creation of a safe environment in the republic, reliable protection of the rights of citizens.

The rapid development of social life, the progress of science and technology, along with its positive aspects, also reveals its negative aspects to humanity. Such development leads to widespread ethnic and interethnic conflicts in the world, the growth of boundless threats such as corruption, terrorism, extremism, drug addiction, cybercrime, these vices not only cause moral and economic damage to millions of people, but also lead the future generation to fall under the influence of harmful alien ideas, leading them not to a proper life, but to the formation of a misconception among most young people about living an easy life and getting rich quickly through illegal means.

This indicates the need to implement new working methods in the field of law enforcement, identify future problems, and study the situation based on scientific approaches. It is especially important to analyze and predict crime trends, provide scientific conclusions on the factors of crime, and conduct targeted scientific research in the field of law and order.

At the initiative of the Head of State, in order to keep up with the times, predict and prevent crimes that may be committed, as well as crimes that may enter from abroad, the Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan was established. The Institute analyzes and forecasts crime trends, provides scientific conclusions on crime factors, and conducts targeted scientific research in the field of law enforcement.

From now on, the practice of preventing crime will be systematically implemented not only in the republic, but also globally, by forecasting security threats and assessing the criminogenic situation of each type of crime and region.

By Decree No.-10 "On Measures to Raise Scientific Research Activities in the Field of Ensuring Public Safety and Combating Crime to a Qualitatively New Level," adopted by the President at the beginning of 2024, a number of tasks were assigned to the Research Institute of Criminology.

Including:

conducting in-depth research on the criminogenic situation in the republic, systematic analysis and forecasting of crime trends, identifying its social, economic, psychological, spiritual-educational, legal, medical, and organizational factors based on a comprehensive scientific diagnosis;

scientific assessment of the effectiveness of measures to stabilize the criminogenic situation in the context of regions, as well as the development of measures to eliminate crime factors by improving legislation and law enforcement practice based on the conclusions of scientific analysis, forecasting and diagnostics;

development of scientifically based comprehensive solutions to existing problems in the practice of criminological activity through the implementation of scientific and practical research projects, organization of necessary measures for the implementation of scientific developments into practice;

to provide, in the prescribed manner, as a specialist, methodological assistance to the bodies of inquiry and preliminary investigation in identifying the factors of crimes that caused public outcry and developing measures to eliminate them;

constant study of best practices of world criminology and the legislation of foreign countries on criminological activity and development of proposals and recommendations for the implementation of its results in the conditions of the Republic of Uzbekistan;

training of highly qualified personnel in the form of independent research in the field of criminology, nomination of applicants for academic degrees and academic titles in the prescribed manner.

Based on the results of scientific research carried out within the framework of these areas, state reports on "Crime Factors" and "Crime Trends" are prepared quarterly, and at the end of each year - on "Criminological Research" and submitted to the Government and relevant state bodies.

Also, recommendations and proposals will be developed for the scientific and practical analysis of the criminogenic situation in the regions, methodological manuals will be prepared for determining measures, and their targeted delivery to specialists in the field will be ensured.

In order to ensure the implementation of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-10, regulatory legal acts, namely Resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan No.-22 "On Measures for Organizing Scientific and Practical Research in the Field of Criminology" and No.-445 "On Measures for Scientific Support of Criminological Activity," the establishment of scientific and practical journals "Criminological Activity" and "Criminology", covering the results of the activities of the Research Institute of Criminology and the theoretical views of domestic and foreign scientists on criminology and crime prevention, is envisaged.

I hope that the international scientific and practical journal "Criminology", created on the basis of the requirements of the above-mentioned regulatory legal acts and presented to you today in its first issue, will serve as an important tool for communicating to the world community the results of research on ensuring peace and tranquility, early prevention of crimes, and combating modern threats not only in our republic, but also in foreign countries, as well as in the implementation of targeted cooperation between the Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan and relevant research institutions of foreign countries.

JAMOAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLARNI SODIR ETGAN SHAXSLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI

Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig‘i, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Начальник Исследовательского института криминологии Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам

Head of Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan, PhD in Law

Annotatsiya. *Maqolada jamoat tartibiga qarshi jinoyat sodir etgan shaxslarning kriminologik tavsifi, uning mazmun-mohiyati tahliliy ochib berilib, fuqarolar va jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etilishini taqozo etuvchi omil(determinant)lar, mazkur turdagi jinoyatlar profilaktikasining bugungi holati tahlil qilinib, jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *mahalla, ijtimoiy profilaktika, jinoyat, jinoyatchi shaxsi, kriminologik tavsif, huquqbuzarlik, jinoiy javobgarlik, qasd, jamoat, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi.*

КРИМИНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЛИЦ, СОВЕРШИВШИХ ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПРОТИВ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА

Аннотация. *В статье аналитически раскрывается криминологическая характеристика лиц, совершивших преступления против общественного порядка, ее сущность и содержание, освещаются вопросы обеспечения безопасности граждан и общества с научной точки зрения. Также, проанализированы факторы (детерминанты), обуславливающие совершение преступлений против общественного порядка, современное состояние профилактики данного вида преступлений, разработаны предложения и рекомендации по предупреждению таких преступлений.*

Ключевые слова: *махалля, социальная профилактика, преступление, личность преступника, криминологическая характеристика, правонарушение, уголовная ответственность, умысел, общество, общественный порядок, общественная безопасность.*

CRIMINAL DESCRIPTION OF PERSONS WHO COMMIT CRIMES AGAINST PUBLIC ORDER

Abstract. *The article provides an analytical examination of the criminological characteristics of individuals who have committed crimes against public order, exploring its essence and content. It scientifically addresses issues related to ensuring the safety of citizens and the public. Additionally, the factors (determinants) that contribute to the commission of crimes against public order are analyzed, along with the current state of prevention for this type of crime. Based on this analysis, proposals and recommendations for crime prevention have been developed.*

Keywords: *mahalla, social prevention, crime, criminal personality, criminological characterization, offense, criminal liability, intent, community, public order, public safety.*

Kirish / Introduction

Dunyoda xavfsizlikni ta’minlashda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olish muammosi tobora global va dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va odil sudlov bo‘yicha 12, 13-kongresslarida ushbu masala milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi eng dolzarb muammolardan biri ekanligi alohida qayd etilgan.

Huquqbuzarliklarning yangi shakllarining ko‘payishi oqibatida dunyo bo‘yicha ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotganlar soni ko‘payotganligini ko‘rish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olish tizimini isloh qilish, bunday jinoyatlarning oldini olishni zamonaviy va yanada samarali mexanizmini ishlab chiqish zarurati mavjudligidan dalolat beradi. Shu bois jazo choralarini kuchaytirish orqali huquqbuzarliklarga qarshi kurashish emas, balki huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Respublikamizda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olishni takomillashtirishga doir o‘ziga xos milliy tizim va normativ-huquqiy asoslar yaratilib, uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga ahamiyat berilganligi natijasida fuqarolarni turli huquqbuzarliklar va jinoyatlardan muhofaza qilish masalalariga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda.

Jamiyat har doim rivojlanishda bo‘lganidek, jinoyatchilik ham rivojlanib, murakkablashib va takomillashib boradi. Shuning uchun ham bugungi kunda sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish va ochish borasida xizmat olib borayotgan ichki ishlar organlari, qolaversa, barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini takomillashtirish davr talabidir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirish, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni jazolashdan afzaldir, ya'ni huquqbuzarliklarning sodir etilishi natijasida fuqarolar, davlat va jamiyat ham iqtisodiy, ham ma'naviy zarar ko‘radi.

Jamiyatning barqarorligi va tinchligi, uning asosiy tamoyillaridan biri sifatida, odamlarning o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy qoidalariga amal qilishga bog‘liqdir. Shu bilan birga, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar sodir etish, ayniqsa ijtimoiy barqarorlikka tahdid qiluvchi harakatlar, fuqarolarning xavfsizligi va erkinligini buzishi bilan jiddiy muammolarga olib keladi. Bu jinoyatlar jamiyatdagi qonun va tartibni buzish, odamlar o‘rtasidagi ishonchni pasaytirish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko‘rsatish xavfini tug‘diradi.

Jamoat xavfsizligi va tartibiga qarshi jinoyatlar turli shakllarda bo‘lishi mumkin: bezorilik, ommaviy tartibsizlik, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish va boshqalar shular jumlasidan. Ushbu jinoyatlar nafaqat jamiyatning xavfsizligiga tahdid soladi, balki jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning psixologik, sotsial va iqtisodiy holatlarini ham yoritish zarur.

Maqolada ham aynan jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning kriminologik tavsifini yaratish, ularning motivlari, shaxsiyati, ijtimoiy va psixologik omillarini tahlil qilishga alohida ahamiyat qaratilgan. Shu orqali jamiyatdagi jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkoniyatini ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning xususiyatlari va bunday jinoyatlarning oldini olish uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan preventiv (oldini olish) choralar ham muhokama qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili / Literature Review

Jamoat tartibiga qarshi jinoyat sodir etgan shaxslarning kriminologik tavsifiga oid masalalar ham milliy, ham xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyat sodir etgan shaxslar haqida ilmiy tadqiqotlar keng qamrovli va

turli yo‘nalishlarga ega bo‘lib, ular, asosan, kriminologiya, psixologiya, ijtimoiy fanlar va huquqshunoslik sohalaridan kelib chiqqan bo‘lib, jamiyat tartibiga qarshi jinoyatlar sodir etgan shaxslarni aniqlash va tahlil qilishda yordam beradi.

Jinoyatchi shaxsi, avvalo, jinoyat subyektining shaxsidir. Jinoyat qonunchiligiga binoan, jinoyat subyekti uni aynan subyekt deb topish uchun zarur ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi lozim. Bunday ko‘rsatkichlar uchta: jismoniy shaxs (jahonning ayrim mamlakatlarida yuridik shaxslarni ham jinoyat subyekti deb topish imkoniyati nazarda tutilganki, bunga qo‘shilish qiyin), shaxsning muayyan yoshga to‘lganligi (MDHning bir qancha mamlakatlari qonunchiligiga ko‘ra 14, 16, 18 yosh, jahonning ba'zi bir mamlakatlari jinoyat kodekslariga binoan esa – bundan ham kichikroq yosh) va aqli rasolik.

Ammo jinoyatchi shaxsini tavsiflash uchun jinoyat subyektining faqat jinoyat-huquqiy belgilari yetarli emas. Muayyan subyektning jinoyat sodir etishi faqat jinoyat sodir etgan odam shaxsi mavjudligini e’tirof etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kriminologiya sohasidagi tadqiqotlar, asosan, jinoyatchilikni tahlil qilishga qaratilgan. Bu sohada ilmiy adabiyotlar ko‘pincha jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning ijtimoiy, psixologik va ekologik omillarini o‘rganadi. Jinoyat subyektining shaxsi odamning asosan jinoiy xulq-atvor xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa har xil ko‘rsatkichlarini ham qamrab oladi. Jinoiy xulq-atvor, eng avvalo, odamni qurshagan borliq, muhit bilan belgilanadi. Lekin, ayni vaqtda, u shaxsning muayyan mayllari, intilishlari, xulq-atvor motivlari va maqsadlarini ham aks ettiradi. Tabiiyki, odamga qanday salbiy xususiyatlar xos bo‘lmasin, agar u jinoyat sodir etmagan bo‘lsa, uni jinoyatchi deb hisoblash mumkin emas. Jinoyat sodir etganlik holati muayyan odamni g‘ayriijtimoiy shaxs sifatida tavsiflaydi, lekin uning mazmun-mohiyatini to‘liq tushuntirib bermaydi.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarda jinoyatchi shaxsini to‘laqonli tavsiflash va baholash uchun uning ham ijobiy, ham salbiy xulq-atvorini belgilovchi barcha xislatlari va xususiyatlarini, unga xos bo‘lgan barcha xislatlar tizimida ijtimoiy salbiy xossalar ulushini hisobga olish zarur.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslar haqida huquqshunoslikda ham muhim tadqiqotlar mavjud. Chesare Beccaria va Jeremy Benthamning klassik kriminologik nazariyalari, jinoyatchilarning tahlili va ularni jazolash tizimining o‘rni haqidagi fikrlar zamonaviy huquqshunoslikda katta ahamiyatga ega. Ularning ishlarida jinoyatchilarni jamiyatdan ajratishning zarurati va bu jarayondagi adolatli jazolash mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, huquqshunoslar tomonidan jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va qayta jamiyatga integratsiyalashning muhimligi ta'kidlanadi.

Jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning psixologik tavsifi ham ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Psixologlar, masalan, Zigmund Freudning psixoanalitik yondashuvini qo‘llab, jinoyatchilikni shaxsning ichki dardlari bilan bog‘lashadi. Hans Eysenckning nazariyasi bo‘yicha, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar ko‘pincha ijtimoiy normalarni buzish uchun ichki impulsiv xususiyatlarga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, zamonaviy psixologik tadqiqotlar jinoyatchilikning subyektiv, ya’ni shaxsiy va jamoaviy omillarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi / Methods

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar sodir etgan shaxslarning kriminologik tavsifini takomillashtirishga oid yuridik fandagi konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar, shuningdek, mazkur jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ularni qo‘llash amaliyoti juda muhim hisoblanadi.

Mazkur maqolada bilishning ilmiy usullaridan – tarixiylik, mantiqiy-yuridik, formal, kuzatish, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil, statistik usullar, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, anketa so‘rovlari, statistik ma’lumotlar tahlili, funksional yondashuv, tizimlilik, tergovga qadar tekshiruv organlari faoliyati tahlili, surishtiruv-tergov amaliyoti hamda jinoyat ishlarini o‘rganish va boshqa usullardan foydalanilgan bo‘lib, jinoyat sodir etgan shaxslar, ularning o‘ziga xos xususiyatlarining mazmun-mohiyati ilmiy tahlillar orqali tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi asosiy nazariy yondashuvlarni, usullarni va texnikalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda ham bir qator metodlar qo‘llanilgan.

Nazariy tadqiqot usullari. Nazariy usullar tadqiqotning ilmiy asoslarini yaratish, mavzu bo‘yicha mavjud nazariyalar va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda qo‘llanildi. Bu metodning maqsadi – jamiyat tartibiga qarshi jinoyatlar va jinoyatchilarning xususiyatlari haqida mavjud ilmiy qarashlarni o‘rganish va ilmiy ishlanmani shakllantirishga xizmat qiladi.

Empirik tadqiqot usullari. Empirik tadqiqot usullari ma'lum bir ijtimoiy hodisani yoki jarayonni amaliyotda, ya’ni real hayotda o‘rganish va tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda so‘rovnomalar (anketalar), intervyu, jinoyat statistikasi tahlili,: Jinoyatchilik holatlarining statistik tahlili orqali, qaysi hududlarda yoki qanday ijtimoiy sharoitlarda jamiyat tartibiga qarshi jinoyatlar ko‘proq sodir etilishini aniqlash mumkin. Bu metod jamiyatda jinoyatchilikning tarqalishini va uning ijtimoiy sharoitlarga bog‘liqligini tahlil qilishga yordam beradi.

Sotsial-guruh tahlili, kompleks yondashuv (interdisipliner yondashuv), qiyosiy tahlil, huquqiy tahlil metodlari orqali ham maqolaning mazmun-mohiyati boyitilgan.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar profilaktikasining bugungi holati tahlilini; jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olishni takomillashtirish asosiy yo‘nalishlarini o‘rganib, mazkur jinoyatni oldini olish borasida tavsiyalar berildi.

Shuningdek, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar profilaktikasini ilmiy jihatdan isbotlangan usullarga asoslangan holda nazorat qilinishi va monitoring amalga oshirilishi kerak. Monitoring doirasida jamiyatda, atrof-muhitda, aholining ayrim guruhlarida (shu jumladan, yuqori xavf ostida bo‘lganlarda), mikromuhitda va shaxslarga nisbatan jinoiy ta’sirlar, jinoyatlar profilaktikasi subyektlari va ishtirokchilarining tegishli holatlariga ta’siri belgilanishi kerak. Mazkur o‘rganilgan, vaziyat yoki shaxslarning dinamikasini har tomonlama obyektiv baholash, ta’sir qilish usullari va vositalari bo‘yicha asoslantirilgan qarorlarni ishlab chiqish, ko‘rilgan choralar samaradorligini baholash lozim.

Tahlil va natijalar / Results

Jinoyatchi shaxsining o‘rganilishi individual jinoiy xulq-atvorning xususiyati va sabablarini umumlashtirish asosida umumiy kriminologik omillar haqida xulosa chiqarish imkonini beradi[17; 13-b.]. Biroq bezorilik hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etgan jinoyatchi shaxsining o‘rganilishi faqat kriminologik yoki profilaktik ahamiyat kasb etishi bilan chegaralanmaydi. Chunki, bezorilik sodir etgan jinoyatchi shaxsi haqidagi bilimlar jinoyatlarni ochish va aybdorlarni fosh etish, qilmishni kvalifikatsiya qilish, jazo tayinlash va ularning ijrosini ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 54-moddasi (jazo tayinlashning umumiy asoslari)da esa, sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni hisobga olishi mustahkamlangan [1].

Jamoat tartibini buzib, bezorilik hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etgan shaxsga oid kriminologik ma'lumotlar mazmunan jinoyatchi shaxsi va uning xulq-atvori to‘g‘risidagi ma'lumotlarga asoslanadi. Bu ma'lumotlar jinoyatchining individual xususiyatlari uning

shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir ko‘rsatgan ijtimoiy muhit bilan to‘g‘ri va teskari aloqalariga asoslanadi. Xususan, so‘z bezorilikning kriminologik tavsifi haqida yuritilar ekan, unda ushbu jinoyatni sodir etganlarning shaxsini tavsiflovchi xususiyatlarni ochib berish zarur hisoblanadi [19; 73-b.]. Bezorilik sodir etgan shaxsning turmush tarzi uning ma'naviy qiyofasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan faol jarayon sifatida baholanib, u barcha ijtimoiy ahamiyatli harakatlar singari odam shaxsiy faoliyatining natijasi hisoblanadi. Har bir aniq vaziyatda faqat shaxsning o‘zi jinoyat sodir qilish to‘g‘risida qaror qabul qiladi [20; 14–15-b.].

Jamoat tartibini buzuvchi bezori hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etgan shaxsda bunday qaror ichki ishonch va anglash sifatida “mavjuddir”. Bunda shaxs aynan jamoat tartibini buzishga shaylangan bo‘ladi. Garchi jamoat tartibini buzishda “bezori shaxsi” shartli tushuncha bo‘lsada, ushbu shartlilik bunday shaxsni alohida o‘rganishni istisno qilmaydi. Ushbu masalada eng muhim jihat – shaxsning o‘ziga xosligi, jinoiy xulq-atvori va turmush tarzining o‘ziga xos xususiyatlari hisoblanadi.

“Bezori shaxsi” jinoyatchilarning real mavjud bo‘lgan toifasini aks ettiradi. Bu esa o‘zida bezorilik sodir qilgan shaxslarni kriminologik tadqiq qilishning zarurati va ahamiyatini namoyon etadi. Bezori shaxsini doimiy, uzluksiz o‘rganish ushbu toifadagi shaxslarning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyati, qiziqishlari, intilishi, ehtiyojlari va boshqa jihatlarini tizimli ravishda aniqlash va baholash imkonini berib, pirovardida, ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatining ma'lumotlar bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Masalan, bezori to‘g‘risida olingan ma'lumotlar mazkur toifadagi shaxslarga profilaktik ta'sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan ta'sirchan chora-tadbirlar tizimi hamda aniq profilaktik usul va vositalarini tanlashda qo‘l keladi. “Bezori shaxsi”ga xos bo‘lmagan belgilarni aniqlash maqsadga muvofiq emas, chunki bunday yondashuv bezorilik jinoyatiga qarshi kurashishda nazariya va amaliyot uchun natija bermaydi, buning uchun faqat mazmunan jinoiy xulq-atvorning shartlanishiga bog‘liq omillarni aniqlash zarur hisoblanadi. Ushbu holatda o‘zaro bog‘liq quyidagi uch muammoning mavjudligi ko‘zga tashlanadi: inson, u sodir qilgan qilmish va uning sabablari [23; 112–115-b.]. Bunda bezori shaxsining o‘ziga xos xususiyatlarini, ya'ni shaxsning bezorilik sodir etishga moyilligini ifodalaydigan ogohlantiruvchi, signal beruvchi muayyan jihatlarni ko‘rish mumkin. Odatda, ushbu jihatlar hayotning muayyan sharoitlarida u yoki bu holatlar ta'siri ostida aniq vaziyatda shaxsning bezorilik sodir etishi mumkinligi bo‘yicha individual tashhis qo‘yilishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy borliq hodisasi sifatida, jinoyatchilik ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilgan shaxslarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Har bir muayyan jinoiy harakat ana shu xususiyatlarni aks ettiradi [2; 16–45-b]. Pirovardida jinoiy qilmish sodir etgan shaxsda uning ijtimoiy munosabatlar – jinoiy tajovuz obyektiga salbiy munosabatini belgilovchi dunyoqarashi ham o‘z aksini topadi.

Taniqli kriminolog Q.Abdurasulova ta'kidlab o‘tganidek, jinoyat subyektining shaxsi uch darajada: jinoyatchi shaxsi umumiy tushunchasi nuqtayi nazaridan, har xil toifaga mansub jinoyatchilarning belgilarini aniqlash nuqtayi nazaridan va muayyan jinoyat sodir etgan shaxs (masalan, o‘g‘rilik, odam o‘ldirish, nomusga tegish, avtomobilni olib qochish va hokazo jinoyatlar sodir etuvchi shaxslar) darajasida o‘rganilishi lozim [2; 16–45-b].

Mazkur darajalarda shaxsni o‘rganish va uning belgilarini aniqlash darajasi har xil bo‘lishi mumkin, chunki bu yerda umumlashtirish (abstraksiya) darajasi har xildir. Jinoyat subyektining shaxsi muayyan jinoyat sodir etgan shaxs darajasida nisbatan to‘liq tavsiflanishi mumkin [4; 31-b.].

Ammo muayyan toifaga mansub jinoyatchilarni (masalan, retsidivistlar, voyaga yetmaganlar, mulkka qarshi, davlatga qarshi, zo‘ravonlik va hokazo jinoyatlar sodir etgan shaxslarni) o‘rganish jinoyatchi shaxsini bunday shaxslarning o‘ziga xos xususiyatlari nuqtayi nazaridan yoritish va tegishincha jinoyatlarning tegishli toifalariga qarshi kurashning muayyan chora-tadbirlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Ayni vaqtda, “jinoyatchi shaxsi” umumiy tushunchasi ham odam fazilatlari va xislatlarining jinoyatchilik bilan o‘zaro bog‘lanishini o‘rganish va hisobga olish uchun foydalidir. Maxsus adabiyotlarda ayrim olimlar, xususan, professor Y.D.Bluvshteyn tomonidan ilgari surilgan “jinoyatchi shaxsi” umumiy tushunchasidan voz kechish maqsadga muvofiqligi haqidagi fikriga qo‘shilib bo‘lmaydi.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda bezorilik hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etgan shaxs o‘zining g‘ayriijtimoiy xulq-atvori, yurish-turishi bilan jamiyatda, xususan jamoat joylarida axloq va huquq normalariga muvofiq o‘rnatilgan tartib-qoidalarni mensimasdan, ularning talablariga rioya qilmasdan yoki ularni buzgan holda mavjud ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi.

Jinoyat ishlarining tahliliga ko‘ra, jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatning turi sifatida bezorilikni sodir etgan shaxslarga quyidagi omillar ta'sir ko‘rsatayotganligi aniqlandi: 1) aybdorning o‘z kuchini ko‘rsatib qo‘yishga intilishi (36%); 2) xulq-atvori, jamiyatda yurish-turish qoidalari va qonun normalarini mensimasligi (22,5 %); 3) ilgari jinoyat sodir etganlarning ta'siri ostiga tushib qolishi (5,5 %); 4) turmushidan norozilik va boshqalardan nafratlanish (4 %); 5) boshqa motivlar (o‘ch olish, rashk, nafratlanish va b.q.) (32 %). Yuqoridagilardan tashqari, shaxsning ayniqsa voyaga yetmaganlarning o‘rtoqlariga, kattalarga taqlid qilishi (7,5%) kuzatildi.

Tadqiqotlarda o‘tkazilgan so‘rovlar natijalariga asoslanib, OAVda zo‘ravonlikni targ‘ib qilinishi ijtimoiy ongga salbiy ta'sir ko‘rsatishi atrofdagilarga tajovuzkor xulq-atvorni shakllantiradi yoki ma'naviy qoloqlik, o‘zganing dardiga beparvolikni shakllantiradi [5. 66-76 b.].

Muayyan jinoyat sodir etish mexanizmida jinoyatchining shaxsi muhim rol o‘ynaydi. Chunki jinoyat inson tafakkurining mahsulidir. Bu borada F.Y.Gall “jinoyat uni sodir etgan shaxsning mahsuli hisoblanadi, shunga ko‘ra, jinoyatning xususiyati bu individning tabiati va u yashab turgan muhitga bog‘liq bo‘ladi” [4; 31-b.], deb hisoblaydi. Bu esa jamoat tartibini buzgan jinoyatchi shaxsini o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu boisdan, azaldan jinoyatchi shaxsi kriminologiya fanining asosiy masalasi sifatida tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lgan. Jinoyatchi shaxsi avvalo jinoyat subyektining shaxsidir [3; 54-b.].

Bezorilik hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etgan “jinoyatchi shaxsi” tushunchasi keng ma'nodagi ijtimoiy tushuncha bo‘lgan “inson shaxsi” bilan uzviy bog‘liq. Bezorilik sodir etgan jinoyatchi shaxsi deganda, qonunda nazarda tutilgan bezorilikni sodir etgan muayyan shaxs nazarda tutilsa, “jinoyatchi shaxsi” esa uning o‘ziga xos belgilari va xulq-atvorlari mazmunini ifodalaydi. Ye.O.Alauxanov jinoyatchi shaxsini umumijtimoiy tushuncha bo‘lgan “shaxs” va ijtimoiy-huquqiy tushuncha bo‘lgan “jinoyatchi” so‘zlaridan tashkil topganligini aytadi. Jinoyatchi shaxsi jinoyat sodir etgan shaxsning yuridik jihatdan ahamiyatga ega bo‘lgan siyosiy-ijtimoiy, ruhiy va jismoniy xususiyatlari majmuidir [18; 30-b.].

Kriminologiya fanida bezorilik hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish sodir etgan jinoyat subyekti shaxsining asosiy tarkibiy elementlari ancha mukammal tavsiflangan. Mazkur tarkib umuman olganda jinoyatchining muayyan xislatlari va xossalarini belgilovchi ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-axloqiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-huquqiy belgilarni qamrab oladi.

Kriminolog olimlarning jinoyatchi shaxsi sxemasi to‘g‘risidagi ba'zi bir muhim takliflarini

keltirib o‘tamiz. R.Dushanovning qayd etishicha, jinoyatchi shaxsi – jinoyatchining asosiy intellektual-ma'naviy xislatlari, ruhiy va jismoniy holatining majmui [7; 15-b.].

Bezorilik sodir etgan jinoyatchi shaxsi tushunchasi o‘ziga xos ravishda jinoyatchining ijtimoiy belgilarini ifodalaydi, ya'ni shaxsning “ijtimoiy qiyofasi”ni ochib berishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kriminalistikada shaxsga moddiy voqelik nuqtayi nazardan – bo‘yi, qaddi-qomati, ko‘zi, qoshi kabilarni tavsiflansa, kriminlogiyada shaxsga uning ijtimoiy holatlari orqali ta'rif beriladi [3; 85-b.].

B.V. Voljenkin jinoyatchi shaxsi tarkibidagi belgilarni uch guruhga ajratishni taklif qiladi: 1) shaxsning jamiyat a'zosi sifatidagi umumiy belgilari; 2) jinoyatchi shaxsining uni boshqa fuqarolardan farqlash imkonini beruvchi, lekin barcha jinoyatchilar uchun umumiy bo‘lgan (uning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflaydigan) alohida belgilari; 3) jinoyatchi shaxsining mazkur odamni tavsiflaydigan o‘ziga xos belgilari. N.T. Vedernikov shaxs belgilarini ikki guruhga ajratishni taklif qiladi: a) individuallashtiruvchi belgilar (shaxsning tarjimayi holi, moddiy ahvoli, jismoniy va ruhiy sog‘lig‘i haqidagi ma'lumotlar); b) shaxsning ijtimoiy (ishlab chiqarishga oid, siyosiy va oilaviy) tavsifi. Y.D. Bluvshteyn jinoyatchi shaxsining demografik, ijtimoiy, huquqiy, psixologik va biologik (tibbiy) belgilarini farqlaydi [15; 107-b.].

A.B. Saxarov dastlab jinoyatchi shaxsining belgilarini ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-biologik toifalarga ajratishni taklif qilgan edi. Biroq, keyinchalik u o‘z fikrini muayyan darajada o‘zgartirdi va shaxsning biologik belgilari turkumini ro‘yxatdan chiqarib tashladi [16; 100-b.].

Shu bois, V.N. Kudryavsev insonning alohida ijtimoiy toifasi sifatida bezori shaxsi jinoiy shakldagi xulq-atvorning o‘ziga xosligi bilan bevosita bog‘liq. U deviant xulq-atvorning har qanday boshqa shaklidan o‘zining ijtimoiy xavfliligi bilan sifat jihatdan ajralib turishini doimo yodda tutish lozim [21; 3-b.], deb hisoblaydi. “Ijtimoiy shaxs” sifatida bezori shaxsini shakllantirgan holatlarni ko‘rish imkonini beruvchi o‘ziga xos “oyna” sifatida qarash mumkin. Bunda jinoiy xulq-atvorni belgilovchi ijtimoiy sharoitlarni aniqlash imkoni paydo bo‘ladi, bu esa shaxsning jinoyat yo‘liga kirishdagi o‘z “hissa”sini oydinlashtiradi [22; 7–10-b.].

Yuridik adabiyotda jinoyatchi shaxsi deganda, jinoyat qonunini aybli ravishda buzayotgan shaxsni tavsiflovchi, hamda boshqa shaxsiy sharoitlar va holatlar bilan hamohang tarzda, uning jinoiy xulqiga ta'sir etadigan ijtimoiy va ijtimoiy shartlangan xususiyatlar, belgilar, aloqalar, munosabatlar yig‘indisi tushuniladi [9; 152-b]. Jinoyatchi shaxsi, maxsus ijtimoiy tip sifatida ko‘riladi, uning xususiyatlari esa “...shaxsning desotsiallashuvini hamda shu orqali salbiy ijtimoiy rollarni tanlash va amalga oshirishi haqida dalolat beradigan salbiy ijtimoiy sifatlar mavjudligi”da ifodalanadi [10; 128-b.].

“Inson xulq-atvori ko‘pchilik qismi mazmunini uning biologik xususiyatlari emas, tashqi vaziyatning qisqa muddatli va ko‘p holda tasodifiy ta'siri ham emas, balki individning butun hayot yo‘li belgilab beradi”[11; 22–23-b.], deb ta'kidlaydi N.V. Kudryavsev.

Jinoiy xulq-atvorining paydo bo‘lishida his-hayajon va bundan tashqari, emotsiyali siqilish qanchalik yuqori bo‘lsa, shunchalik uning aql-idroki va irodasiga ta'sir qiladi. Shu boisdan inson ongiga emotsiyaning qanday ta'sir ko‘rsatishi turli faktorlarga bog‘liq bo‘ladi. Insonning emotsional xulq-atvori uning ba'zi a'zolariga ta'sir etadi. Inson xatti-harakati uning shaxsiyati bilangina sababiy bog‘lanmasdan, balki biologik, psixofiziologik holatlar bilan ham bog‘liqdir[12; 15-b.].

Ko‘rinib turibdiki, bezori va qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etgan shaxs – muhitning, ijtimoiy tarixiy sharoitlarning mahsuli. Uning ruhiy rivojlanishi moddiy va ruhiy omillar ta'siri ostida sodir bo‘ladi. Biroq ular shaxsga bir xil darajada ta'sir qilmaydi. Hal qiluvchi ahamiyat – jamiyat hayoti va faoliyatining haqiqiy moddiy progressi ijtimoiy borliqqa tegishli. Psixologik nuqtayi nazardan bu yoshda voyaga yetmaganlar hayot qadriyatlarining “iyerarxiyasini” shakllantiradilar, ularning xulq-atvoriga hayotiy tajribaning yetishmasligi, ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari tizimini shakllanishining yakunlanmaganligi ta'sir qiladi va natijada, sodir etiladigan aksariyat qilmishlarning vaziyatliligiga ta'sir qiladi.

“Individning biologik xususiyatlari (agar ular aniqlangan bo‘lsa) hayot, real hayotiy, maishiy (va ayniqsa muammoviy) vaziyatlar o‘zining muayyan izini qoldiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi” [13; 22-b.].

Bezorilik hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etgan shaxsni o‘rganish, bu o‘zidan-o‘zi paydo bo‘lgan maqsad emas. Pirovardida, jinoyatlarni individual profilaktikasining nazariy asoslari – jinoyatchi shaxsi, uning jinoiy xulq-atvori sabablari va mexanizmlari haqidagi kriminologik bilimlardir [14; 3-b.].

Bezorilik hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etgan jinoyatchi shaxsining kriminologik tavsifi, jinoyat sodir qilgan shaxsni, insonning jamiyatga qarshi xulq-atvori bilan bevosita yohud bilvosita bog‘liq bo‘lgan, hamda bezorilik sodir qilishni shartlaydigan yoxud yengillashtiradigan, yoxud uni sodir qilish sabablarini anglashga ko‘maklashadigan, ijtimoiy turmushi va hayotiy tajribasining turli jabhalari va ko‘rinishlarini tavsiflovchi belgilar (alomatlar) tizimi sifatida ko‘riladi.

Xulosa va takliflar / Conclusions

Shaxsning bezorilik hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etishga moyiligidan dalolat beruvchi jihatlarni aniqlamasdan, ularni o‘rganmasdan va hisobga olmasdan bezorilik profilaktikasining samaradorligiga erishib bo‘lmaydi. Shu bilan birga, profilaktik chora-tadbirlarni farqlash va yakka tartibda yondashish uchun bezorilik va qimor o‘yinlarini tashkil etgan shaxslarni toifalash ham talab qilinadi.

Bunda tashqari, jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlardan yana biri – bezorilik oqibatida qasddan badanga shikast yetkazishning ijtimoiy-demografik belgilar – ushbu jinoyatda jinoyatchi shaxsning jins, yosh, oilaviy va ijtimoiy holat, ma'lumot, kasb va hokazolar aholi turli ijtimoiy tabaqalarining jinoiy faolligini aniqlash, jinoyat sodir etgan shaxslarning yosh va jins xususiyatlarini kuzatishga yordam beradi. Shaxsning oilaviy va ijtimoiy holatini tadqiq qilish muayyan jinoyatchining shaxsi shakllanishiga ta'sir ko‘rsatgan kriminogen omillar va holatlarni aniqlashga ko‘maklashadi.

Shaxsning kriminogen motivatsiyaga moyilligining chuqurligi va turg‘unligi jihatidan jinoyatchilarni quyidagi shaxsiy tiplarga ajratish maqsadga muvofiq:

a) tasodifiy jinoyatchilar – tasodifiy holatlar natijasida, o‘zining avvalgi xulq-atvorining umumiy tavsifiga zid ravishda jinoyat sodir etganlar.

Bunday jinoyatchi shaxslar jamoat tartibini buzish jarayonida tasodifan tan jarohati yetkazib quyish jinoyatlarini sodir etishadi;

b) vaziyatga bog‘liq jinoyatchilar – beqaror shaxsiy xususiyatlar va turmush sharoitlarining ta'sirida jinoyat sodir etganlar;

v) beqaror jinoyatchilar – jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalaridan chekingan, biroq shunga qaramasdan ularni qat’iy o‘zlashtirib olmaganlar;

g) professional jinoyatchilar – jinoyat sodir etish orqali o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishishga qat’iy intiladiganlar.

Kriminogen motivatsiyaning yuqoriliga ko‘ra, tipologiyani keltirar ekanmiz, biz uni

sudlanganlik va retsidivning rasman mavjud ekanligi yo‘qligi, tayinlangan jazo turi, yoshi, kasbi va boshqalar, ya'ni shaxsning jinoyat huquqiy va ijtimoiy-demografik tavsifi mezonlari bilan atayin bog‘lamadik. Shuningdek, tipologiyani jinoiy xatti-harakatlarning xususiyatiga qaratishga ham urinmadik, zotan mazkur tipologiya kriminologiya fanida yetarli darajada ko‘rib chiqilgan. Bu qarash aynan shaxsni motivatsiyaning yo‘nalishi bo‘yicha o‘rganishga asoslangan yondoshuvga javob beradi, chunki, bizning fikrimizcha, har qanday retsidivist ham professional jinoyatchi tipiga mos kelavermasligi, birinchi marta jazoga hukm etilgan shaxs esa qamoqqa tasodifiy holatlar tufayli tushib qolgan bo‘lishi ham mumkin.

Umumiy xulosa shuki, har qanday tasnif muayyan darajada shartlidir, degan fikrga deyarli barcha kriminologlar qo‘shiladi. Zotan, tasniflash uchun qanday mezon asos qilib olinganligi yoki tasniflashdan qanday maqsad ko‘zlanganligiga qarab, jinoyatchilar tasnifi har xil bo‘lishi mumkin. Shu sababli amalda yuqorida ko‘rsatilgan tiplardan birontasiga ham mos kelmaydigan, ayni vaqtda “aralash” belgilarga ega bo‘lgan jinoyatchilar uchrashi mumkin.

Foydalanilgan manbalar / References

1. O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrdagi Jinoyat kodeksi. // URL: https://lex.uz/docs/111453
2. Abdurasulova Q.R., Zakirova A.G., Ismailov I va boshq. Kriminologiya: Darslik. – T.: O‘zR IIV Akademiyasi, 2023. – B.16–45-b.
3. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: Darslik. – Toshkent: TDYUI, 2008. – B. 63.
4. Ismailov I., Abdurasulova Q.R., Fazilov I.Y. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 31. (– 272 b.)
5. Шели Д.Ф. Средства массовой информации и преступность. – СПб., 2003. – С. 66–76.
6. Abdurasulova Q., Zakirova A. Kriminologiya: O‘quv uslubiy qo‘llanma. – T: LESSON PRESS, 2018. – B.16–25-b.
7. Dushanov R.X. Jinoyatchi shaxs psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2011. – B. 15.
8. Abdurasulova Q.R., Avanesov G.A., Zaripov Z.S. va boshq. Kriminologiya: Darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. – B. 85.
9. Плешаков.В.А. Концепция криминологической теории ситуаций или ситуационной криминологии Россия: уроки реформ. Научные труды, 2008. – С. 152.
10. Стручков Н.А. Криминология и проблемы личности преступника // Теоретические проблемы учения о личности преступника. – М.: Юрид. лит, 1979. – С. 128.
11. Кудрявцев Н.В. Причинность в криминологии. М.: Юридическая литература, 1998, – С. 22–23.
12. Niyozova S. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirganlik uchun jinoiy javobgarlik. – Toshkent: TDYUI, 2005. – B. 15.
13. Кудрявцев С.В. Взаимодействие социально-экономических и социально-психологических процессов в генезисе преступности // Советское государство и право, 1985. – №12. – С.22.
14. Антонян Ю.М. Личность преступника – индивидуальная профилактика преступлений: сопоставление и выводы // Личность преступников и индивидуальное воздействие на них. – М., 1989. – С. 3.
15. Блувштейн Ю.Д. Теоретические вопросы статистического познания личности преступника по материалам уголовных дел. – М., 1998. – С. 107.
16. Сахаров А.Б. Криминология и профилактика преступления: Учебник для ВУЗов МВД. – М., 1999. – С. 100.
17. Хамидов Д.Х. Криминологическая характеристика тяжких насильственных преступлений против личности и их предупреждение: Автореф. дисс. ... кан. юрид. наук – Ташкент, 2008. – С. 13.
18. Алауханов Е.О. Криминологические проблемы предупреждения корыстнонасильственных преступлений: Автореф. дисс. ... д-ра юрид. Наук. – Алматы, 2004. – С. 30.
19. Karaketova D.Y. Bezorilik va bezori shaxsining kriminologik tavsifi // Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновация – Society and innovations Special Issue – 2 (2021). ISSN 2181-1415 73.
20. Дубовик О.Л. Принятие решения в механизме преступного поведения: Автореф. дис. .... канд. юрид. наук. – М., 1984. – С. 14–15.
21. Кудрявцев В.Н. Правовое поведение: норма и патология. – М., 1982. – С.3, 6-9; Преступное поведение (новые исследования) // Сборник научных трудов. – М., 2002.
22. Долгова А.И. Теоретические посылки и общая характеристика результатов для криминологического изучения личности. – В кн.: Опыт криминологического изучения личности преступника. – М., 1981. – С. 7–10.
23. Лунеев В.В. Преступное поведение: мотивация, прогнозирование, профилактика. – М., 1980. – С.112–115.

TRANSPORT VOSITALARINI MAST HOLDA BOSHQARGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI BELGILASHNING IJTIMOIY ZARURATI

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, yuridik fanlar doktori, professor

Заслуженный юрист Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

Honored lawyer of the Republic of Uzbekistan, doctor of Law, professor

Annotatsiya. *Ushbu maqolada transport vositalarini mast holda boshqarishning ijtimoiy xavfliligi, uning huquqiy-ijtimoiy oqibatlari va jinoiy javobgarlikni kuchaytirish zarurati tahlil qilingan. Avtotransport vositalaridan foydalanish xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha milliy va xorijiy tajribalar o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida transport vositasini mast holda boshqarganlik uchun jinoiy javobgarlikni joriy qilish masalasi ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *yo‘l harakati xavfsizligi, transport vositasi, mastlik, giyohvandlik, jinoiy javobgarlik, yo‘l-transport hodisalari, huquqiy choralar, ma’muriy va jinoiy sanksiyalar.*

СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ УСТАНОВЛЕНИЯ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА УПРАВЛЕНИЕ ТРАНСПОРТНЫМИ СРЕДСТВАМИ В СОСТОЯНИИ ОПЬЯНЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье анализируется общественная опасность управления транспортными средствами в состоянии опьянения, его правовые и социальные последствия, а также необходимость ужесточения уголовной ответственности. Исследованы национальный и зарубежный опыт обеспечения безопасности при использовании автотранспортных средств. Также рассмотрен вопрос о внедрении уголовной ответственности за вождение в состоянии опьянения в законодательство Республики Узбекистан.*

Ключевые слова: *безопасность дорожного движения, транспортное средство, опьянение, наркотики, уголовная ответственность, дорожно-транспортные происшествия, правовые меры, административные и уголовные санкции.*

THE SOCIAL NECESSITY OF ESTABLISHING CRIMINAL LIABILITY FOR DRIVING VEHICLES UNDER THE INFLUENCE OF ALCOHOL OR DRUGS

Abstract. *This article analyzes the social danger of driving vehicles under the influence of alcohol or drugs, its legal and social consequences, and the necessity of strengthening criminal liability. National and international experiences in ensuring the safety of vehicle use are examined. Additionally, the issue of introducing criminal liability for driving under the influence into the legislation of the Republic of Uzbekistan is considered.*

Keywords: *road traffic safety, vehicle, intoxication, drug use, criminal liability, road traffic accidents, legal measures, administrative and criminal sanctions.*

Kirish / Introduction

Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy, demografik muammolarni hal etish, shaxsiy xavfsizlik hamda aholining turmush darajasini oshirish, shuningdek mintaqaviy rivojlanishning ajralmas qismi bo‘lgan yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Dunyo mamlakatlari yo‘llarida o‘lim darajasining ortib ketayotganligi zamonaviy ilm-fanda bu muammoni yaqindan o‘rganish kerakligini taqozo etmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining bergan ma’lumotiga ko‘ra, dunyo bo‘ylab har yili o‘rtacha milliondan ortiq odam yo‘l-transport hodisalari oqibatida vafot etadi. 2019-yilda yo‘l-transport hodisasi tufayli vafot etganlar soni dunyo bo‘yicha o‘rtacha 100 ming aholiga 17 nafar odam to‘g‘ri kelgan. O‘zbekiston bu borada 180 ta davlat orasida 117-o‘rinni egallab, har 100 ming aholiga nisbatan o‘lim soni 11,7 nafarga to‘g‘ri kelgan. MDH davlatlarida orasida Tojikiston 87-o‘rinni (15,7), Turkmaniston 103-o‘rinni (13,5), Qozog‘iston, Qirg‘iziston 107–108-o‘rinlarni (12,7), Rossiya 114-o‘rinni (12) egallab turibdi [1].

Mutaxassislarning qayd etishicha, bunga infratuzilmaning rivojlanmaganligi, yo‘llarning talabga javob bermasligi va yo‘l-transport hodisalarida jabrlanganlarga sifatli tibbiy yordam ko‘rsatilmagani sabab bo‘lmoqda [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili / Literature Review

Respublikamizda ro‘yxatga olingan avtotransport vositalari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bu holat mamlakatimizda aholi sonining o‘sishi, iqtisodiy taraqqiyot va fuqarolarning moddiy farovonligi yuksalishi bilan bevosita bog‘liq. Shu bilan birga, avtotransport vositalari sonining ortishi bir qator muammolarni keltirib chiqarayotganini ham ta’kidlash zarur. Yo‘l-transport hodisalari soni va oqibatlari xavfini kamaytirish ham shu kabi hal etilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalardan biridir. 2023-yilda ushbu yo‘nalishda ehtiyotsizlik orqali 10 856 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, ulardan 9 843 tasi (90,7%) harakat xavfsizligi yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog‘liq bo‘lgan. Taqqoslash uchun: ehtiyotsizlik orqasida odam o‘ldirish – 35 ta holat (0,3%); ehtiyotsizlik orqasida badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazish – 185 ta holat (1,7%); kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik – 107 ta holat (1%); ekinzorlarni, o‘rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o‘simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish – 35 ta holat (0,3%).

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 266-moddasi ehtiyotsizlik orqali sodir etilgan jinoyatlar toifasiga kirsa-da, belgilangan qoidalarni qasddan buzish holatlarini ham o‘z ichiga oladi. Ehtiyotsizlik orqali jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat tarkiblarining 67 tasi muayyan qoidalarning buzilishi bilan bog‘liq. Ularning 19 tasi o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir tan jarohati yetkazishni, 26 tasi o‘limga sabab bo‘lishni, 9 tasi bir nechta shaxsning o‘limiga sabab bo‘lishni, 30 tasi esa boshqa og‘ir oqibatlarni keltirib chiqarishni o‘z ichiga oladi.

Biroq, Jinoyat kodeksi moddalarida belgilangan qoidalarni qasddan buzish oqibatida odam o‘limi holatlari uchun belgilangan jazolar turlicha ekanligini ko‘ramiz. Masalan, xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o‘tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish odam o‘lishiga sabab bo‘lsa (Jinoyat kodeksining 186-moddasi 3-qismi), besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi. Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalarini yoxud tibbiy buyumlarni o‘tkazish maqsadida ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki o‘tkazish, shuningdek dori vositalarini yoki tibbiy buyumlarni dorixonalardan va ularning filiallaridan tashqarida realizatsiya qilish (Jinoyat kodeksining 186^3-moddasi 3-qismi) sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi. Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish odam o‘limiga sabab bo‘lsa (Jinoyat kodeksining 193-moddasi 1-qismi) uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi. Transportni ta’mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish odam o‘limiga sabab bo‘lsa (Jinoyat kodeksining 262-moddasi 2-qismi), besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi.

Tadqiqot metodologiyasi / Methods

Birinchi navbatda, dialektik metod asosida transport vositalarini mast holda boshqarish oqibatida yuzaga kelayotgan ijtimoiy xavfli holatlar va ularni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilindi. Qiyosiy-huquqiy metod orqali O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida mast holda transport vositasini boshqarganlik uchun belgilangan javobgarlik choralari o‘zaro solishtirildi. Shuningdek, kriminologik tahlil usulidan foydalanib, yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq jinoyatlar dinamikasi, ularning xususiyatlari va jazo choralarining samaradorligi o‘rganildi.

Tadqiqotda empirik ma’lumotlar tahlili orqali so‘nggi yillarda mast holda transport vositasini boshqarish bilan bog‘liq jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti o‘rganildi va uning ijtimoiy oqibatlari tahlil qilindi. Statistik metod yordamida yo‘l-transport hodisalarining umumiy ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, mavjud dinamika va tendensiyalar aniqlandi.

Shuningdek, kontent-tahlil orqali xalqaro tajriba, ommaviy axborot vositalaridagi ma’lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar o‘rganildi. Ushbu yondashuvlar natijasida transport vositalarini mast holda boshqarganlik uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish bo‘yicha qonunchilikka takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar / Results

2024-yilning birinchi yarim yilligida respublika bo‘yicha 9 839 ta yo‘l-transport hodisasi (YTH) qayd etilgan bo‘lib, natijada 9 209 nafar shaxs jarohatlangan va 2 282 nafar shaxs hayotdan ko‘z yumgan. 2023-yilda bolalar ishtirokida 1 794 ta YTH sodir etilib, 1 568 nafar bola turli darajada tan jarohati olgan, 263 nafar bola esa halok bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkichlar jamiyatda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bugungi kunda, avtotransport vositasini mast holda boshqarish yo‘l harakati qoidalarini buzishning eng ko‘p uchraydigan turlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Respublika jinoyat sudlari ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda transport vositalarini mast holda boshqarganlik uchun 25 680 ta ma’muriy ish (Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 131-moddasi) qo‘zg‘atilgan. Shuningdek, 11 449 nafar haydovchi va yo‘l harakati ishtirokchisi mastlik holatini aniqlash uchun tekshiruvdan o‘tishdan bosh tortgan (Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 136-moddasi).

Yo‘l harakati qoidalarini alkogol ta’siri ostida buzish masalasiga kelsak, eng ko‘p qonunbuzarlik holatlari Samarqand (4 860 holat) va Xorazm (2 628 holat) viloyatlarida kuzatilgan. Bunday ko‘rsatkichlar yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha huquqiy va profilaktik tadbirlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi [3].

Qonun chiqaruvchi mast holda transport vositasini boshqargan haydovchilar javobgarligini kuchaytirish bo‘yicha muayyan choralarni ko‘rib kelmoqda. Biroq, yillar davomida jinoyat qonunchiligida transport vositalarini mast holda boshqargan shaxslarga nisbatan qat’iy munosabat shakllanmayapti. Zero, qonunchilikka ko‘ra, faqatgina transport vositasidan foydalanish uchun mas’ul shaxsning mast holatdagi yoki giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql-idrokiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa moddalar ta’siri ostida bo‘lgan shaxsni temiryo‘l, dengiz, daryo, havo, avtomobil transporti yoki boshqa transport vositasini boshqarishiga yo‘l qo‘yganlik uchun jinoiy javobgarlik mavjud (JK 261-m.). Tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu modda bo‘yicha javobgar shaxs aynan mast holdagi haydovchi emas, balki tashkilot,

korxona, muassasa rahbarining buyrug‘i bilan transport vositasini boshqarishga ruxsat berish majburiyati yuklatilgan shaxs, shuningdek, shaxsiy transport egasi hisoblanadi [4].

Xorijiy davlatlarning qonunchiligi tahlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, mast haydovchilarni jazolash borasida ikki xil yondashuv mavjud, ya’ni: ba’zi mamlakatlarda transport vositasini alkogolli, giyohvandlik yoki boshqa mastlik holatida boshqarish faktining o‘zi jinoyat hisoblanadi, boshqalarida esa shaxsning harakatida jinoyat tarkibi mavjud bo‘lishi uchun takroriylik yoki ma’muriy preyuditsiya bo‘lishi talab etiladi.

Ilmiy adabiyotlarda mast holda transport vositasini boshqargan shaxslarning jinoiy javobgarligi masalasida tanqidiy fikrlar bildirilgan. Xususan, A.I.Korobeevning fikricha, mast holda transport vositasini boshqarganlik kabi salbiy hodisaga qarshi kurash ma’muriy-huquqiy choralar shaklida olib borilishi, og‘ir oqibatlarga olib kelgan mast holda transport vositalarini boshqarganlik uchungina jinoiy javobgarlik belgilanishi kerak [5]. Mast holatda transport vositasini boshqarganlik faktining o‘zi jinoyat deb hisoblamaslik g‘oyasi boshqa mualliflar tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanganligini ko‘rish mumkin [6].

Boshqa mualliflar mutlaqo qarama-qarshi nuqtayi nazarni ilgari surib, fuqarolarning mast holda transport vositasini boshqarganlik fakti uchun yoxud bir yil davomida qayta shu tarzdagi huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik qo‘llash zarur deb hisoblashadi [7], zero yil davomida huquqbuzar ikki marta mast holda transport vositasini boshqarganligi yo‘l harakati qoidalarini buzishning ijtimoiy xavflilik darajasi sezilarli oshishiga sabab bo‘ladi.

Qaysi yondashuv O‘zbekiston qonunchiligi uchun maqbulroq ekanligi haqida xulosa chiqarishdan oldin, avvalo, xorijiy tajribaga batafsil to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Bu borada ham romano-german, ham anglo-sakson huquq oilalari tajribasiga e’tibor qaratishni lozim topdik.

Eng birinchilardan bo‘lib, transport vositasini mast holda boshqarishni jinoyat sifatida belgilagan davlat Angliya hisoblanadi. Britaniyada 1872-yildayoq qabul qilingan “Litsenziyalash to‘g‘risida”gi qonunning 12-moddasida “mast holda ot, qoramol, vagon, bug‘ bilan ishlaydigan mashinani istalgan magistralda yoki boshqa jamoat joyida haydab yurgan shaxs aybdor deb topilishi, hibsga olinishi va jarima yoki bir oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi” mustahkamlangan [8].

Rossiya Federatsiyasi [9] Jinoyat kodeksining 264^{1}-moddasi ma’muriy jazoga tortilgan yoki sudlangan shaxs tomonidan mast holda transport vositasini boshqarganlik uchun javobgarlik belgilaydi. Shunga o‘xshash mazmundagi norma Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksi 317^{1}-moddasida, jumladan:

– mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning analoglari, zaharli yoki boshqa mast qiluvchi moddalarni iste’mol qilish natijasida kelib chiqqan mastlik holatida transport vositasini boshqarganlik;

– mast holatdagi shaxsni transport vositasini boshqarishiga yo‘l qo‘yganlik (boshqarishga topshirganlik);

– transport vositalari haydovchilarining va yo‘l harakati boshqa ishtirokchilarining mastligi yoki mast emasligini aniqlash uchun tekshiruvdan o‘tishdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Yuqorida sanab o‘tilgan uchta holatda ham jinoyat ma’muriy preyuditsiyaga ega, ya’ni qilmish xuddi shu huquqbuzarliklar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin bir yil ichida sodir etilishi talab etiladi.

Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat kodeksining [10] 346-moddasi ham transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum bo‘lgan hamda alkogol, giyohvandlik vositasi ta’sirida va (yoki) giyohvandlik holatida bo‘lgan shaxs tomonidan transport vositasini boshqarganlik, shuningdek transport vositasini boshqarishni bunday shaxsga topshirganlik yoki unga transport vositasini boshqarishga ruxsat berganlik uchun javobgarlik belgilaydi.

Qolaversa, Germaniya, Ispaniya, Bolgariya, Latviya kabi davlatlar jinoyat qonunchiligida ham alkogol, giyohvandlik vositalari yoki boshqacha tarzda mastlik holatida transport vositasini boshqarganlik fakti uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normalar mavjudligiga e’tibor qaratish lozim.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi 266-moddasi moddiy tarkibli jinoyat sifatida o‘rtacha og‘ir va og‘ir tan jarohati kabi oqibatlarni nazarda tutadi. Sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo‘lmagan va ushbu Kodeksning 104-moddasida nazarda tutilgan oqibatlarga olib kelmagan, lekin sog‘liqning uzoq vaqt, ya’ni kamida yigirma bir kun, ammo to‘rt oydan ko‘p bo‘lmagan davrda yomonlashuviga yoki umumiy mehnat qobiliyatining o‘n foizidan o‘ttiz uch foizigacha yo‘qolishiga sabab bo‘lgan qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish sifatida baholansa, og‘ir tan jarohati so‘zlash, eshitish qobiliyatini yo‘qotish yoxud biror a’zoning ishdan chiqishi yoki uning faoliyati tamoman yo‘qolishiga, ruhiy holatining buzilishiga yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda buzilishiga, umumiy mehnat qobiliyatining o‘ttiz uch foizidan kam bo‘lmagan qismining doimiy yo‘qolishiga sabab bo‘lganda baholanadi.

Jinoyat kodeksining 266-moddasida ko‘zda tutilgan jinoyat tarkibi moddiy tarkibli jinoyatlar toifasiga mansub bo‘lib, uning obyektiv tomoni jismoniy shaxsning sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur moddada o‘rtacha og‘ir va og‘ir tan jarohatlar bir kontekstda keltirilgani nazariy jihatdan bahsli hisoblanadi.

Jinoyat huquqi nazariyasida jismoniy jarohatlar og‘irlik darajasiga ko‘ra tasniflanadi va ularni qo‘shib ko‘rsatish huquqiy aniqlik tamoyiliga zid bo‘lishi mumkin. O‘rtacha og‘ir va og‘ir tan jarohatlari turli xil ijtimoiy xavflilik darajasiga ega bo‘lib, ularning har biri subyektiv va obyektiv alomatlari, jinoiy oqibatlari hamda jazo choralarining muvozanatli qo‘llanilishi nuqtayi nazaridan alohida tahlil qilinishi lozim.

Aniqroq qilib aytganda, o‘rtacha og‘ir tan jarohati sog‘liqning yigirma bir kundan to‘rt oygacha yo‘qotilishi yoki mehnat qobiliyatining o‘n foizdan o‘ttiz uch foizgacha kamayishi bilan bog‘liq bo‘lsa, og‘ir tan jarohati inson hayoti uchun xavfli bo‘lgan yoki uzoq muddatli, doimiy salbiy oqibatlarga olib keladigan jarohatlar sifatida baholanadi. Shunday ekan, bu ikki turdagi jinoyatlarni bitta normada ko‘rsatish huquqiy ta’rifning murakkablashishiga hamda normaning aniqlik va yaqqollik mezonlariga zid kelish ehtimoliga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun, ilmiy va huquqiy yondashuv nuqtayi nazaridan, o‘rtacha og‘ir va og‘ir tan jarohatlarning jinoiy-huquqiy belgilarini alohida normalarda aks ettirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Chet el jinoyat qonunchiligida transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish oqibatida tan jarohati yetkazish uchun javobgarlik masalasi turli davlatlarda turlicha tartibga solingan. Masalan, Belarus, Qozog‘iston va Ukraina jinoyat qonunchiligida tan jarohatlari ikki asosiy toifaga bo‘linadi: birinchisi, o‘rtacha og‘ir tan jarohati bo‘lib, Jinoyat kodeksi tegishli moddasining 1-qismida nazarda tutilgan, ikkinchisi esa og‘ir tan jarohat bo‘lib, u tegishli moddaning 2-qismida belgilangan. Rossiyada esa transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish oqibatida faqatgina og‘ir tan jarohati uchun javobgarlik belgilangan bo‘lib, u Jinoyat kodeksining 1-qismida bayon etilgan.

O‘rtacha og‘ir tan jarohat uchun jazo choralari mamlakatlarga ko‘ra farq qiladi. Ukraina va Qozog‘iston qonunchiligida bunday jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish chorasi nazarda

tutilmagan, ya’ni bunday jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanmaydi. Belarusda esa bunday jinoyat uchun 2 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish mumkin.

Og‘ir tan jarohat yetkazgan shaxslar uchun javobgarlik choralari ham turli davlatlarda turlicha belgilangan. Rossiya qonunchiligida bunday jinoyat uchun 2 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan. Belarusda bu muddat 5 yilgacha etib belgilangan.

Transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish oqibatida shaxsning o‘limiga sabab bo‘lgan holatlarda turli davlatlar turlicha jazo choralarini nazarda tutadi. Rossiyada bunday holat uchun javobgarlik 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilishni o‘z ichiga oladi, agar odam vafot etgan bo‘lsa, u holda bu muddat 7 yilgacha etib belgilangan. Belarusda ham 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan, agar odamlar vafot etgan bo‘lsa, jazo 3 yildan 7 yilgacha bo‘lishi mumkin. Qozog‘istonda esa bunday jinoyat uchun 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, agar odam vafot etgan bo‘lsa, 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin. Ukraina qonunchiligida esa shaxsning o‘limiga sabab bo‘lgan tan jarohati uchun 3 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi ko‘zda tutilgan, agar odam vafot etgan bo‘lsa, 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan.

Ushbu tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, har bir davlatda tan jarohati yetkazish bilan bog‘liq jinoyatlarga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, ayrim davlatlar, xususan, Ukraina va Qozog‘iston, o‘rtacha og‘ir tan jarohat yetkazgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlamaydi. Shu bilan birga, Rossiya va Belarusda mast holatda sodir etilgan jinoyatlar og‘irlashtiruvchi holat sifatida baholanadi va qo‘shimcha jazo choralari ko‘zda tutilgan.

Xulosa va takliflar / Conclusions

Yuqoridagi tahlillarga tayanib hamda respublikamizda yo‘l-transport hodisalari sonining ortib borayotganligini inobatga olgan holda mast holatda transport vositasini boshqarish faktini jinoyat sifatida tan olish va bu amaliyotni mamlakatimiz qonunchiligiga joriy qilishni lozim deb hisoblaymiz. Shundan kelib chiqib, amaldagi Jinoyat kodeksining 266-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq:

266-modda. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish

Transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish badanga o‘rtacha og‘ir tan jarohati yetkazilishiga sabab bo‘lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O‘sha qilmish badanga og‘ir tan jarohati yetkazilishiga sabab bo‘lsa, –

bir yildan uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilib, bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to‘rt yuz sakson soatgacha yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha qilmish odam o‘lishiga sabab bo‘lsa, –

bir yildan uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha qilmish:

a) odamlar o‘limiga;

b) halokatga;

v) boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, –

uch yilga muayyan huquqdan mahrum qilib, yetti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Pedofiliyaga ilk tavsiflardan birini R.Kraft-Eybing (1912) bergan. U pedofillarga bolalarga nisbatan birlamchi jinsiy mayl tug‘ilishi, potensiyaning saqlanishi, kattalar bilan muloqot qilish natijasida jinsiy ehtirosning qo‘zg‘alish imkoniyati yo‘qligi xos ekanligini, jinsiy aloqa qilishda quyushqondan chiqish hollari kuzatilishini, bolalar ularning o‘z jinsiy ehtiyojini qondirish obyektiga aylanishini qayd etadi. Uning fikricha, bunday jinoyatlarning aksariyatini, eng qabih va jirkanchlarini ruhiy kasallar emas, balki tabiiy jinsiy munosabatlardan zerikish natijasida, ba’zan mastlik oqibatida o‘z insoniy qiyofasini yo‘qotgan sog‘ odamlar sodir etadi.

R.Kraft-Eybing bolalarga tajovuz qiluvchi jinsiy jinoyatchilarni quyidagi guruhlarga ajratgan:

1. Ayol bilan normal va nonormal jinsiy aloqa qilishning barcha usullarini sinab ko‘rgan, o‘z tuyg‘ularini junbishga keltirish, umuman olganda o‘ziga yangicha jinsiy lazzat baxsh etish maqsadidagina qiz bolaning nomusiga tegadigan buzuq odamlar. Ayni vaqtda, ayol bilan jinsiy aloqa qilish uchun jinsiy quvvatning yetishmasligi yoki potensiya paydo bo‘lishi uchun ilgari sinalmagan ta’sirlantiruvchi omillarga ehtiyoj ham ma’lum rol o‘ynashi mumkin.

2. Ayollar bilan jinsiy aloqa qilishda o‘z potensiyasi va dadil harakat qilishiga ishonmaydigan yoki hozircha ishonmaydigan yosh yigitlar tashkil etadi. Ular asosan ruhiy impotensiyaga yoki jinsiy zaiflik negizidagi impotensiyaga yo‘liqqan va bolalar bilan axloqqa zid harakatlarda o‘zi amalga oshira olmaydigan jinsiy aloqa muqobilini (ekvivalentini) izlayotgan odamlardir. Bunday odamlarga jinsiy lazzat olish (orgazm) va shahvat chiqishi (eyakulyatsiya) uchun bolalarni ehtiros bilan paypaslashning o‘zi kifoyadir.

3. O‘ziga qarash yoki tarbiyalash uchun topshirilgan o‘g‘il bolalardan jinsiy aloqa qilish uchun foydalanadigan xizmatkor ayollar, murabbiyalar, hatto qarindoshlar yana bir keng toifani tashkil etadi.

R.Kraft-Eybing bolalarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarni tahlil qilar ekan, mazkur harakatlarda aybdorlar orasida qariligi tufayli aqli zaiflashgan, epilepsiya, alkogolizmga yo‘liqqanlar, tug‘ma aqli past odamlar anchagina ekanligini qayd etadi.

Ayni vaqtda, u mazkur odamlarning axloqiy tuyg‘u va jinsiy qobiliyatida nuqsonlar bor deb hisoblaydi, ammo axloqiy buzuqlik va jinsiy zaiflik o‘z holicha subyektni aqli noraso deb topish uchun asos bo‘lmaydi, chunki normal jinsiy aloqalardan zerikkanlik, ba’zan mastlik negizidagi oddiy buzuqlik nafsi buzuq shaxslarni bunday g‘ayritabiiy qilmishlarni sodir etishiga olib kelishi mumkin. Biroq jinoiy harakatning g‘ayrioddiylik darajasi qancha yuqori, uni sodir etgan odam normal jinsiy aloqa chegarasidan jismoniy va ruhiy jihatdan qancha ko‘proq chetga chiqqan bo‘lsa, jinoyatning subyektiv tomoniga baho berishda shuncha ehtiyot bo‘lish kerak [19; 73, 530, 544-b.].

Boshqa bir guruh olimlarning fikriga ko‘ra, pedofiliyani diagnostika qilish mezonlari qatoriga jinsiy yetilish yoshiga to‘lmagan bolalar bilan erotik va seksual manipulyatsiyalarni amalga oshirish, geteroseksual moslashuvning yo‘qligi yoki uning kamida olti oy mobaynida susayishi bilan birga kuzatiladigan bolalarga nisbatan jinsiy maylning kuchliligi kiradi.

Pedofiliyaning klinik xususiyatlari uning quyidagi asosiy psixopatologik ko‘rinishlari: xayoldan ketmaydigan, kompulsiv, impulsiv va soxta ratsionalistik pedofiliyani farqlash imkonini beradi.

B.V.Shostakovich, I.M.Ushakova, S.A.Potapov tadqiqotlariga ko‘ra, pedofiliyaning xayoldan ketmaydigan ko‘rinishi o‘rganilgan holatlarning 35,5% da kuzatilgan va pedofiliyaning asosiy patologik ko‘rinishlari orasida takroriyligi jihatidan birinchi o‘rinda turgan. Bunda u asosan ruhiy holati buzilgan shaxslarda, fe’l-atvorning psixopatologik jihatlari va rezidual-organik patologiya belgilari bo‘rtib ko‘rinadigan odamlarda, shuningdek surunkali alkogolizmga yo‘liqqan shaxslarda uchragan.

Pedofiliyaning mazkur turiga yo‘liqqan shaxslar, o‘z xohish-irodasidan qat’i nazar, yuzaga keluvchi jinsiy maylning g‘ayritabiiyligini to‘la anglagan, uni atrofdagilardan yashirishga harakat qilgan, ya’ni kompulsiv xususiyat kasb etgan[20; 21-b.]. Ular mazkur maylni ishga berilish yoki jismoniy mashqlarni bajarish yo‘li bilan, shuningdek isteronevrotik tushkunliklar va distimiyalar tarzidagi ruhiy holatning affektiv buzilishlari tarzida tiyib turishga qodir bo‘lganlar. Biroq, oxir-oqibatda baribir bu mayldan xalos bo‘la olmaganlar.

Pedofiliyaning soxta ratsionalistik ko‘rinishi nisbatan kam uchraydi. Bunda patsiyentlar jinsiy maylga g‘ayrioddiy hol va nuqson sifatida qaramaganlar, aksincha, ba’zan ular uni tushuntirish uchun ko‘p sonli ahmoqona dalillar keltirib, o‘z xulq-atvorini oqlashga harakat qilganlar. Xususan, ularning ayrimlari yoshlarni katta hayotga tayyorlash uchun ularga jinsiy hayotdan saboq berish bilan shug‘ullanishlarini qayd etganlar.

Bunday turdagi jinoyatlar ancha ko‘p uchraydi, lekin ulardan atrofdagilar doim ham ogoh bo‘lavermaydi va shu sababli aybdorlar jinoiy ta’qib qilinmaydi, ya’ni, yuqorida qayd etib o‘tilganidek, bunday qilmishlar latentligining nihoyatda yuqori ekanligi bilan tavsiflanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning nomusiga tegish bilan bog‘liq holatlarning deyarli uchdan birida jinoyatchi ularning qarindoshi bo‘lgan. Shuningdek, kichik yoshdagi (10 yoshga to‘lmagan) jabrlanuvchilarning qariyb yarmi o‘z oila a’zolari yoki tanishlarining jinsiy tajovuziga uchragan.

O‘rganilgan jinoyat ishlarining barchasida jinsiy harakatlar jabrlanuvchilarning roziligisiz sodir etilgan, faqat bir o‘smir aybdorga ijobiy munosabatda bo‘lgan, unga sukut saqlash bilan rozilik bergan va ularning munosabatlari to jabrlanuvchining qarindoshlari voqea haqida ichki ishlar organlariga xabar bergunga qadar ikki yil davom etgan.

Biroq nomusga tegish, zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinsiy harakatlar va uyatsiz buzuq harakatlar, odatda, jabrlanuvchilarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysundirish orqali amalga oshirilgan, jinsiy aloqa aldov yo‘li bilan ham sodir etilgan. Jinoyatchilarning ko‘pchiligi spirtli ichimliklar ichib, ayrim hollarda esa – o‘ta mast holatda bo‘lgan, lekin bu harakatlarni, odatda, mohiyatini to‘la anglagan holda sodir etgan. Shu narsa diqqatga sazovorki, aybdorlar ko‘pincha o‘zlarining bunday xulq-atvorini aynan mastlik bilan tushuntiradilar, ba’zan hech narsani eslamasliklarini qayd etadilar.

Jinoyatchining spirtli ichimliklar iste’mol qilishi va mast holda jinsiy jinoyatni sodir etishi o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik ko‘zga tashlanadi. O‘rganilgan jinoyat ishlarining 78% da jinoyatchilar oilada voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyatlarni sodir etgan paytida spirtli ichimliklar iste’mol qilib, mast holatda bo‘lganlar.

Tadqiqot natijalari bolalikda jinsiy tajovuzga duchor bo‘lish xavfi o‘gay ota bo‘lgan oilada tarbiyalanayotgan qizlarga ko‘proq tahdid solishini ko‘rsatadi.

Masalan, Sh. o‘gay qizining nomusiga tekkanligi uchun jazoga hukm qilinadi. Xotini ishda bo‘lgan paytida mahkum uning 13 yashar qizi D.ning nomusiga tegishga harakat qilgan, biroq qiz yordam so‘rab qichqira boshlagan. Yordamga qo‘shnilar yetib kelgach, erkak qizni qo‘yib yuborgan. Sh. o‘z harakatlarini kechasi takrorlab, D.ning nomusiga tekkan. Ertasiga jabrlanuvchi onasi ishlaydigan kasalxonaga kelib, unga o‘gay otasi tinimsiz ichkilik ichayotganini aytgan va undan uyga qaytishni so‘ragan, biroq uni ranjitgisi kelmay yuz bergan voqea haqida og‘iz ochmagan. Tunda o‘gay ota yana qizning nomusiga tekkan. Bu safar D. bo‘lgan voqeani onasiga gapirib bergan. Onasi bu haqda o‘z dugonasi orqali ichki ishlar organiga xabar bergan, chunki buni o‘zi qilishga qo‘rqqan. Sud tibbiy ekspertizasi xulosasiga ko‘ra, nomusga tegish harakatlari sodir etilganidan so‘ng qiz uzoq vaqt uxlay olmagan, yuz bergan voqea unga og‘ir ta’sir qilgan, u bir necha kun kechasi bilan ko‘z yoshi to‘kkan [21].

Boladan o‘z jinsiy ehtiyojini qondirish uchun foydalanadigan oilaning katta yoshli a’zosi uning tuyg‘ulari va keyingi taqdiri bilan mutlaqo qiziqmaydi, balki o‘zining jinsiy maylini qondirish haqida o‘ylaydi, xolos. Holbuki, bunday aloqa bolaning ruhiyatiga begona odam tomonidan sodir etilgan ayni shunday harakatlarga qaraganda ko‘proq darajada shikastlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi, chunki jabrlanuvchi oilaviy rishtalar bilan bog‘langan, oila a’zosi hisoblangan tajovuzkorga to‘la qaram bo‘ladi. U hatto o‘z oilasi bag‘rida ham o‘zini xavfsiz his etmaydi va kuchli ruhiy zo‘riqishni boshdan kechiradi.

Otasi nomusiga tekkan qizning ahvoli favqulodda og‘ir, hatto fojialidir. U otasi bilan yomon ish qilganini yaxshi anglaydi, unda aybdorlik tuyg‘usi shakllanadi, bu tuyg‘u uni bir lahza ham tark etmaydi, sharoit uni o‘zi moddiy jihatdan qaram bo‘lgan ota-onasini yaxshi ko‘rishga majbur qiladi. U o‘zi yordam so‘rab murojaat qilishi mumkin bo‘lgan odam yo‘qligini his qiladi. U o‘zi va otasi orasidagi munosabatlardan begonalar xabar topgudek bo‘lsa, oila buzilsa, javobgarlik o‘z zimmasiga tushishini, otasini qamab qo‘yishsa, onasi moddiy ko‘maksiz qolishini o‘ylab, onasini ranjitishni istamaydi. Odatda bu fikrni unga otasi uqtiradi. Jabrlangan bola dahshatli yolg‘izlik va bu dunyoda ortiqchalik tuyg‘usini his etadi.

Shu hol diqqatga sazovorki, ba’zan o‘gay ota yoki ota o‘z qizining nomusiga tegayotganidan ona xabardor bo‘ladi, biroq bunga qarshilik ko‘rsatishga harakat qilmaydi. Yuz bergan voqeani har xil vajlar, chunonchi: erdan ayrilish, uydan haydalish yoki erining o‘zidan o‘ch olishidan qo‘rqish, atrofdagilardan uyalish, biron-bir suiiste’molliklarning fosh bo‘lishidan cho‘chish va h.k.larga ko‘ra yashirishga harakat qiladi, ammo barcha hollarda ham bolaga nisbatan befarqlik odatdagi bir hol ekanligini qayd etadi. Ayrim hollarda ishni bosdi-bosdi qilishga urinishlar kuzatiladi, bunda onalar har xil uydirmalar to‘qish, qiz bolani yolg‘on ko‘rsatuvlar berishga ko‘ndirishdan ham qaytmaydilar.

Aksariyat hollarda xotin erining o‘zini tashlab ketishidan qo‘rqadi, ba’zan moddiy sabablarga ko‘ra shunday ish tutadi. Ayniqsa, jinoyatchi oilaning birdan-bir boquvchisi bo‘lganida, ona, agar erini qamab qo‘yishsa, oilasining moddiy jihatdan qiynalib qolishidan cho‘chiydi. Bunga P.ning jinoyat ishi misol bo‘lishi mumkin. U ishdan mast holda kelgan va ular bilan birga yashaydigan va ularning chaqalog‘iga qaraydigan 13 yashar qayinsinglisining nomusiga tekkan. Jabrlanuvchi ota-onasiz yetim bo‘lgan, shu sababli uni va ukasini katta opasi mazkur oilaning birdan-bir boquvchisi sanalgan mahkum bilan birga tarbiyalagan [22.].

Nima uchun jinsiy jinoyatchilar o‘z tajovuzlarining obyektlari sifatida o‘z oilasining a’zosi bo‘lgan voyaga yetmagan shaxslarni tanlaydilar? Balki buning sababi bolalar o‘zlari ishonishga odatlangan yaqin odamlariga kuchli qarshilik ko‘rsatmasligi, bu odam ularni osongina ko‘ndirishi yoki aldashi mumkinligidadir. Yaqin qarindoshlarining jinsiy tajovuziga duchor bo‘lgan bolalar yuz bergan voqea haqida birovga og‘iz ochishni uncha xohlamaydilar va o‘zlari ham yuz bergan

voqeaning mohiyatini doim ham tushunavermaydilar. Jinsiy zo‘rlik ishlatishning latentligi jabrlanuvchining o‘z atrofidagilardan uyalish, o‘ziga nisbatan bunday harakatlar sodir etgan shaxsdan qo‘rqish natijasida yuz bergan voqeani yashirishga intilishi bilan izohlanadi[23; 72–77-b.].

Bizning tadqiqotlar ham buni to‘la tasdiqlaydi. Bundan tashqari, o‘smirlar o‘z yaqinlariga yordam va himoya so‘rab murojaat etganida, ular mazkur voqeaga befarq qaraganlar, tubanlikka tushgan onalar esa, jabrlanuvchilarning so‘zlariga qaraganda, hatto ularni “rashk qilganlar” va bunda ularning o‘zlarini ayblaganlar [24; 98-b.]. Vaziyat o‘z yechimini topmagani bois o‘smirlar uydan bosh olib chiqib ketishga majbur bo‘lgan, natijada ko‘chada qolgan va keyinchalik ayni shu jinoyatlardan jabrlangan shaxslarning o‘zi ham jinoyatga qo‘l urgan. Hatto otasi nomusiga tekkan 14 yashar qizni o‘z onasi o‘ldirganligi ham ma’lum [25; 88-b.].

O‘z farzandlariga nisbatan jinsiy harakatlar sodir etish muammosi tabiatning eng chigal jumboqlaridan biridir. Bunday tajovuzlar inson mavjudligining teran mazmuniga mutlaqo ziddir.

Xulosa va takliflar / Conclusions

Xulosa qiladigan bo‘lsak, birinchidan, oilada bolalarga nisbatan sodir etilgan jinsiy jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga baho berishda ularga yetkazilgan muayyan ziyonni hisobga olish bilangina cheklanmaslik kerak, balki bunday qilmishlarning jamiyatdagi ma’naviy muhitga, jinslar o‘rtasidagi aloqalarga, yosh avlodga ko‘rsatilayotgan umumiy g‘amxo‘rlikka, pirovard natijada oilaning o‘ziga va uning a’zolariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham yodda tutilishi lozim.

Ikkinchidan, oilada voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarning tahliliga doir ilmiy yondashuvlar o‘rganilganda ushbu turdagi jinsiy jinoyat sodir etilgan beqaror oilada ijtimoiy nazorat olib borish funksiyasi buzilganligi hamda yosh avlodning axloqiy tarbiyasi yomonlashishi, yoshlarda moddiy manfaat izidan quvish, har qanday yo‘l bilan bo‘lsa-da, bir lahzalik lazzat olishga intilish hissiyoti kuchayishi aniqlandi.

Bu hol tiyiqsiz axloqiy erkinlikka olib keladiki, natijada jinsiy beboshlik, bu borada ko‘p sonli taqiqlarga befarqlik shakllanadi. Ruhiy holati buzilgan shaxslar tomonidan oilada g‘ayriqonuniy qilmishlar sodir etilishi ehtimoli ko‘payadi.

Uchinchidan, bolalarga nisbatan jinsiy jinoyatlar sodir etganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan, anomal jinsiy xulq-atvorning turli-tuman shakllarini o‘zida mujassamlashtirgan shaxslar orasida pedofiliya va efebofiliyaga moyil shaxslar ko‘proq uchraydi.

To‘rtinchidan, jinoyatlarning ushbu turiga o‘ta yashirinlik (latentlik) xos bo‘lib; o‘gay ota-qiz juftlari orasida ko‘p uchraydi; oilada bolalarga nisbatan jinsiy tajovuzlar o‘rta hisobda uch-to‘rt yillar, odatda jabrlanuvchilar roziligisiz, davom etgan, jinsiy aloqa ko‘pincha aldov yo‘li bilan, bolalarning ishonuvchanligi, itoatkorligi, kattalarga qaramligidan foydalanib amalga oshirilgan; jinoyatchi aksariyat hollarda spirtli ichimliklardan mast holatda bo‘lgan, biroq o‘z harakatlarining mohiyatini to‘la anglagan holda sodir etgan. Jinsiy munosabatlarning xususiyati har xil bo‘lib, ko‘pincha buzuq tarzda sodir etilgan.

Beshinchidan, oilada voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyatlar sodir etishda aybdor shaxsning ijtimoiy va psixologik portreti quyidagilar bilan tavsiflanadi: ma’lumot darajasining pastligi, asosan erkak jinsiga mansublik, bunda ularning aksariyati 25-35 yoshda, oilali va o‘z farzandlariga ega bo‘lgan, ilgari sudlangan. Jinsiy jinoyatlar sodir etgan shaxslar orasida ruhiy holati buzilganlar, xususan, alkogolizm, psixopatiya, shizofreniyaga yo‘liqqanlar ko‘pchillikni tashkil etadi.

Oltinchidan, oilada jinsiy tajovuzlardan jabrlanganlar 3-15 yoshlar oralig‘ida bo‘lib, zo‘rlik ishlatish harakatlari 3 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lgan qizlarga nisbatan ko‘proq sodir etilgan. Jinoyat sodir etish jarayoni intilish bosqichi, bevosita jinsiy aloqa qilish, aloqaning sir tutilishini nazorat qilish, oshkor bo‘lish bosqichlaridan iborat. Jinoyat sodir etilganidan keyin jabrlanuvchining ruhiy va jismoniy holati unga nisbatan ishlatilgan jinsiy zo‘rlikning xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Uyatsiz, buzuq harakatlar bir marta sodir etilganda ruhiy shikast uncha og‘ir bo‘lmasligi mumkin.

Yettinchidan, oilada voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinsiy jinoyatlarning sabablari inson ruhiyatining tuban qatlamlarida yotadi, bunday qilmishlarga turtki beruvchi motivlar ko‘pincha ong bilan qamrab olinmaydi.

Foydalanilgan manbalar | References

1.https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/juveniles_deinquency_prevention.shtml
2. https://www.un.org/ru/observances/parents-day
3. https://www.uznews.uz/uz/posts/63813
4. https://kun.uz/15107103#!
5. Payzullayev Q.P. Voyaga yetmaganlarning jinoiy daxlsizligi va erkinligini muhofaza qilish muammolari (jinoyat-huquqiy, kriminologik jihatlar): Yurid. fan. nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2006; Niyozova S.S. Shaxsga qarshi zo’rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi: Monografiya. –T.: TDYUU, 2017. – B. 89.
6. Payzullayev K.P. Voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligiga qarshi tajovuzlarda jabrlanuvchining viktimologik xususiyatlari va uning oldini olish // Davlat va huquq, 2004. – №1. – B.46–47; Ergashev X.J., Qodirov A.A. Voyaga yetmagan jinoyat qurbonlari va ularga yetkazilgan zararni qoplash // O’zbekiston Respublikasida qonunchilikni takomillashtirishning dolzarb muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2005. –B. 332–335; Морозова Н.Б. Психические расстройства у несовершеннолетних потерпевших жертв сексуального насилия: Автореф. дис... д-ра мед. наук. – М., 1999. – С. 2.
7. Pulatov Yu.S. Oila-turmush sohasida jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktika faoliyatini yanada takomillashtirish // Oila muhitini sog’lomlashtirishning vosita va uslublari: Konferensiya materiallari to’plami. – Toshkent, 2006. – B.53–57.; Irsaliyev A. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish zarur bo’lgan o’ziga xos jarayonlar // Huquq-Pravo-Law, 2001. – №4. –B. 22–23; Худойберганов С. Факторы, влияющие на формирование преступного поведения несовершеннолетних // Mustaqillik yillarida yuridik fan va amaliyotning rivojlanishi: Ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. II qism. – Toshkent, 2002. –B. 61–64.
8. Нурманова А.Р. К вопросу о личности преступника в сфере бытового насилия // Ж. Ученые труды Академии МВД Республики Казахстан. – С. 88.
9. Игнатов А.Н. Квалификация половых преступлений. – М.: Юрид. лит., 1974. 255 с.
10. Осипов П.П. Половые преступления: Автореф. дис. канд. юрид. наук. – Л., 1967. – 16 с.
11. Кирюхин А.Б., Шмарион П. В. Анализ современного состояния преступлений против половой неприкосновенности и половой свободы несовершеннолетних, совершаемых в семье // Вестник Воронежского института МВД России, 2020. –№ 1. – С. 221–225.
12. Бимбинов А.А. Изнасилование и насильственные действия сексуального характера: качество закона и вопросы квалификации // Всероссийский криминологический журнал, 2018. – № 12. – С. 6.
13. Новикова Е.П. Криминологическая безопасность половой свободы и половой неприкосновенности несовершеннолетних // Вестник Воронежского института МВД России, 2018. – № 4. – С.199–203.
14. Мартиросьян А.М. Насильственные половые преступления в отношении несовершеннолетних: уголовно-правовой и криминологический аспекты: Автореф. канд. юрид. наук. – М., 2009.
15. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/violence.shtml
16. Сексопатология. Справочник. – М.: Медицина, 1990. – С. 427–430.
17. Имелинский К. Сексология и сексопатология. – М., 1987. – С. 308.
18. Антонян Ю.М., Позднякова С.П. Сексуальные преступления и их предупреждение. –М., 1991. –С. 31
19. Крафт-Эйбинг Р. Половая психопатия. – М., 1996. – С. 73, 530, 544.
20. Шостакович Б.В., Ушакова И.М., Потапов С.А. Половые преступления против детей и подростков. – Ростов-на-Дону, 1994. – С. 21.
21. Jinoyat ishlari bo’yicha Toshkent shahri sudi arxividan. 122-19 raqamli jinoyat ishi.
22. Jinoyat ishlari bo’yicha Toshkent shahar sudi arxividan. JSX-1-240-2018-sonli jinoyat ishi.
23. Taxirov F. Jinsiy jinoyatlar uchun javobgarlik masalalarini hal etishda viktimologik muammolar // TDYUI Axborotnomasi, 2006. –№5. –B. 72-77; Niyozova S.S. Voyaga yetmaganlarni jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyalarning oldini olish masalalari: Monografiya. – T.: “Dimal” nashriyoti, 2025. – 125 b.
24. Rustambayev M.X., Niyozova S.S. Oiladagi zo’ravonlik va tazyiqlarning jinoyat-huquqiy, kriminologik va viktimologik jihatlari: Monografiya / Mas’ul muharrir prof. F.Taxirov. –T.: “Yuridik adabiyotlar publish” MCHJ nashriyoti, 2024. – 99 b.
25. Конышев Л.П. Проблемы борьбы с изнасилованиями. – М., 1985. – С. 88.

KRIMINOGEN VAZIYAT OG‘IR MAHALLALAR JINOYATCHILIGINING KRIMINOLOGIK TAHLILI VA BARVAQT OLDINI OLISH CHORALARI

Isamidin Ismailov

isomiddinosmoilov@gmail.com

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universtiteti professori, yuridik fanlar doktori, professor

Профессор Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

Professor of University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

Muzaffar Ziyodullayevich Ziyodullayev

muzziyo@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kriminogen vaziyat og‘ir mahallalardagi jinoyatchilikning kriminologik tavsifi va ularning barvaqt profilaktikasiga oid ilmiy qarashlar hamda bu sohada O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar tadqiq etilgan. Kriminogen vaziyat murakkab mahallalardagi jinoyatlar, ularni sodir etgan shaxslar va jinoyatlarning sabablari hamda imkon bergan shart-sharoitlarning qiyosiy tahlili asosida ularning o‘ziga xos kriminologik xususiyatlarini aniqlashga harakat qilingan hamda bunday mahallalarda jinoyatchilik barvaqt profilaktikasini samarali tashkil etish yuzasidan muayyan mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *mahalla, xavfsiz muhit, huquqbuzarlik, jinoyat, jinoyatchilik, kriminogen vaziyat, sabablar va shart-sharoitlar, omillar, tahlil, metodika, barvaqt profilaktika, ijtimoiy profilaktika, profilaktika obyektlari, ilmiy, manzilli, tizimli, maqsadli, chora-tadbirlar.*

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРЕСТУПНОСТИ В МАХАЛЛЯХ СО СЛОЖНОЙ КРИМИНОГЕННОЙ ОБСТАНОВКОЙ И МЕРЫ ПО РАННЕЙ ПРОФИЛАКТИКЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются криминологическая характеристика преступности в махаллях с сложной криминогенной обстановкой, научные подходы к ее ранней профилактике, а также реформы, проводимые в Узбекистане в этой сфере. На основе сравнительного анализа преступлений в махаллях со сложной криминогенной обстановкой, лиц их совершивших, их причины и условий предпринята попытка выявить их специфические криминологические особенности, а также высказаны соображения по эффективной организации ранней профилактики правонарушений в таких махаллях.*

Ключевые слова: *махалля, безопасная среда, правонарушения, преступность, криминогенная обстановка, причины и условия, факторы, анализ, методология, ранняя профилактика, социальная профилактика, объекты профилактики, научный, целенаправленный, системный, целесообразный, меры.*

CRIMINOLOGY ANALYSIS OF CRIME IN MAHALLAS WITH A DIFFICULT CRIMINOGENIC SITUATION AND MEASURES FOR EARLY PREVENTION

Abstract. This article examines the criminological characteristics of crime in mahallas with a difficult criminogenic situation and scientific approaches to their early prevention, as well as the reforms being carried out in Uzbekistan in this area. Based on a comparative analysis of crimes in mahallas with a difficult criminogenic situation, the perpetrators and their causes, as well as the enabling conditions, an attempt is made to identify their specific criminological characteristics, and certain considerations are made on the effective organization of early crime prevention in such mahallas.

Key words: mahalla, safe environment, crime, crime, criminality, criminogenic situation, causes and conditions, factors, analysis, methodology, early prevention, social prevention, prevention objects, scientific, targeted, systematic, targeted, measures.

Kirish / Introduction

Mamlakatimizda tizimli islohotlar natijasida: *birinchidan,* har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muammolarni bevosita joylarning o‘zida hal etish; *ikkinchidan,* hududlarda jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda “jinoyat o‘choqlari”ni bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalb qilish; *uchinchidan*, “respublika-viloyat-tuman-mahalla” tizimi asosida yaxlit boshqaruv va uzluksiz nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish; *to‘rtinchidan,* jamoat xavfsizligini ta’minlovchi organlar xodimlarining zamonaviy qiyofasini yaratish, ularning mas’uliyati va kasbiy salohiyatini oshirish; *beshinchidan* sohani to‘liq raqamlashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar oshirilmoqda [1].

Amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlarga qaramasdan, mamlakatimizning barcha ma’muriy-hududiy birliklarida tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashni yanada takomillashtirish, jamiyatning barcha bo‘g‘inlarida xavfsiz muhitni yaratish, huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo‘layotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni ijtimoiy profilaktika choralari tizimi orqali hal etish orqali barvaqt profilaktikani manzilli va tizimli, natijador amalga oshirish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishning tashkiliy profilaktik asoslarini zamon talablariga moslashtirish, sodir etilish ehtimoli bo‘lgan har qanday qonunbuzilishlarning asl omillarini o‘z vaqtida aniqlash va kompleks chora-tadbirlar bilan manzilli bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning, shu jumladan jinoyatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bugungi kunning ustuvor vazifalari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot [2] va “O‘zbekiston – 2030” [3] strategiyalariga muvofiq belgilangan ustuvor maqsadlarga erishish, shuningdek, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunda [4] va Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida [5] belgilangan mas’ul davlat organlari va tashkilotlarining respublika mahallalarida huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatini 2025-yilda sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son qarori qabul qilindi.

Mazkur Qarorda mas’ul idoralar va muassasalar uchun 2025-yilda “Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish” ustuvor vazifa etib belgilanib, quyidagi ishlash mexanizmlari joriy etilishi belgilandi:

2024-yilda jinoyat sodir etilgan har bir mahallada kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda jinoyatlarni barvaqt profilaktika qilishning mahallalar kesimida choraklik manzilli chora-tadbirlarini belgilagan holda mahalla-tuman-viloyat darajasida uning ijrosi uchun bevosita mas’ul rahbarlarni biriktirish va aniq sohaviy javobgarlikni yuklash;

kriminogen vaziyat og‘ir mahallalarda ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida joylarga chiqqan holda maqsadli o‘rganishlarni o‘tkazish orqali huquqbuzarliklarga sabab bo‘layotgan asl omillarni aniqlash va barham berish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy choralarni ko‘rish;

mahallalarda yoshlar, ayollar va ishsizlar tomonidan, shuningdek, oila turmush munosabatlari doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda “mahalla yettiligi” har bir vakilining aniq mas’uliyatini belgilash, ushbu toifadagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga yangicha ish uslublarini tatbiq qilish;

aholining huquqiy ongi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas’uliyatini oshirish, jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy muammolarni hal etishga jamoatchilik vakillari, nuroniylar va mahalla faollarini keng jalb etib borish;

mahallalar jamoat joylari va yashash xonadonlarida xavfsiz muhit yaratish, fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga har qanday tajovuzlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy yetish;

mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo‘yicha har bir mas’ul idora va muassasa tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijalari yuzasidan qat’iy so‘rov tizimini yo‘lga qo‘yish hamda ushbu masalaga mas’uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga ta’sir choralarini ko‘rib borish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya / Literature Review and Methods

Bugungi kunda mahallalarda sodir etilayotgan jinoyatlarni faqatgina ijtimoiy xavfli hodisa sifatida huquqiy nuqtayi nazardan o‘rganish bilan cheklanmasdan, uni sodir etgan shaxslarni, ular hayot kechirayotgan muhitni, undagi ijtimoiy munosabatlarni, shuningdek ularning yashash sharoitlarini va tahdid hamda tajovuzlardan himoyalangan holatlarini har tomonlama chuqur tadqiq etishga jamiyat ehtiyoji va talablaridan kelib chiqqan holda yangicha yondashuv talab qilinmoqda.

Mahallalarda qayd etilayotgan jinoyatlarga, ularning sabab va sharoitlariga, ularni sodir etayotgan shaxslarga, shuningdek barvaqt oldini olish masalalariga oid mavjud bilimlarni bugungi kun jinoyatchilikka qarshi kurash nazariyasi va amaliyotining ehtiyojlaridan kelib chiqib boyitish, mavjud muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topish va profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha zarur tavsiyalarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish davlat siyosati darajasidagi eng dolzarb masalalardan biridir.

Shuni unutmaslik zarurki, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklar, shu jumladan jinoyatlarning barvaqt profilaktikasiga doir samarali ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarni yaratish: *birinchidan,* kriminologik ilmiy-nazariy bilimlarni tizimli ravishda boyitib borishni; *ikkinchidan,* mazkur bilimlar bilan amaliyotni qurollantirishni*; uchinchidan,* mahalla aholisi hayoti va faoliyatida huquqiy madaniyatni yuksaltirish hamda qonun ustuvorligini uyg‘unlikda ta’minlashni taqozo etadi. Shu o‘rinda aholi hayoti farovonligini oshirish, ularning xavfsiz muhitda yashashi uchun shart-sharoit yaratish, shuningdek jamiyatda, uning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan mahallalarda huquqiy madaniyatning yuksalishi qonuniylikni ta’minlashning asosiy manbai bo‘lsa, qonun ustuvorligini ta’minlash esa aholining tinch va osoyishta, farovon hayot kechirishi, qolaversa, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishini unutmaslik kerak. Bugungi kunda, bir tomondan, qonun ustuvorligini ta’minlashda huquqiy ta’sir choralari, ayniqsa ma’muriy jazo qo‘llash kuchayib borayotganligini, ikkinchi tomondan, ayrim soha va hududlarda huquqiy nigilizm, ya’ni qonunlarni mensimaslik, ularni inkor etish va ularga bo‘ysunmaslik holatlarining saqlanib qolayotganligini kuzatish mumkin.

Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning, shu jumladan jinoyatlarning barvaqt oldini olishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish:

birinchidan, har bir muayyan jinoiy xatti-harakatning, ularning alohida turlari va umuman mahalla jinoyatchiligining ichki qonuniyatlarini hamda ularning bir-biriga bog‘liqligini;

ikkinchidan, jinoyat sodir etgan shaxslarning o‘ziga xos kriminologik xususiyatlarini, ularni shakllantirgan omillarni;

uchinchidan, jinoiy xatti-harakatni sodir etish haqida qaror qabul qilgan vaqtdagi obyektiv vaziyat, ya’ni mazkur qilmishni sodir etgan shaxs yashab turgan muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur va har tomonlama o‘rganishni taqozo etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, oxirgi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda mahallalarda sodir etilayotgan jinoyatlarni, ularni sodir etgan shaxslarni, tegishli hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini, barvaqt profilaktikani ta’minlashning, bu sohada o‘zaro hamkorlikning holati o‘rganilgan, shuningdek ularning natijalariga asoslangan holda ilmiy xulosa, taklif, tavsiya, xususiy metodikalar ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan.

Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklar, shu jumladan jinoyatlarning barvaqt oldini olish borasida o‘tkazilgan tadqiqot ishlari manbalari tahlilidan kelib chiqib, ilmiy-amaliy yondashuvlarni shartli ravishda to‘rt yo‘nalishga ajratgan holda tahlil qilishga harakat qildik.

Birinchi yo‘nalish – mahallalarda jamoat tartibi va xavfsizligini, huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilgan tadqiqotlarda: jamiyatda, uning asosiy bug‘ini bo‘lgan mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish [6], mazkur yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatuvchi ichki ishlar organlarining tayanch punktlari faoliyatini boshqarish [7], huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatlarni jilovlash bo‘yicha “fuqarobay”, “oilabay” va “mahallabay” ishlash tizimini tashkil etish [8] masalalari kompleks o‘rganilib, ilmiy asoslantirilgan taklif va tavsiyalar, xulosalar amaliyotga joriy etilgan.

Ikkinchi yo‘nalish – mahallalarda sodir etiladigan alohida turdagi jinoyatlarga qarshi kurash, xususan, ularning oldini olishga qaratilgan tadqiqotlarda: jinoyatchilik tuzilishida hissasi yuqori bo‘lgan firibgarlik [9], o‘g‘irlik [10], talonchilik [11], bezorilik [12], o‘lim bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalari [13] kabi jinoyatlarning huquqiy va kriminologik tavsifi, sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlari, shuningdek ularning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasini tashkil etish holatining ilmiy tahlili natijalariga asoslangan holda ularning oldini olishni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish bo‘yicha metodikalar yaratilgan.

Uchinchi yo‘nalish – kriminogen vaziyat murakkab bo‘lgan mahallalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda huquqbuzarliklar, shu jumladan jinoyatlarning oldini olish chora-tadbirlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarda: uyushmagan yoshlar bilan ishlash va ular o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini tashkil etish bo‘yicha Toshkent shahar Yunusobod tumani [14], huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni jilovlashda “fuqarobay” ishlash bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kegeyli tumani “Nurli bo‘ston” [15], Andijon tumani “Sultonobod” [16], Buxoro shahar “Piridastgir” [17], Jizzax viloyati Zafarobod tumani

“Chimqo‘rg‘on” [18], Qarshi shahar “G‘afur G‘ulom” [19], Namangan shahar “Guliston” [20], Navoiy shahar “Yoshlik” [21], Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani “Olti qahramon” [22], Guliston shahar “Taraqqiyot” [23], Termiz shahar “Majnuntol” [24], Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahar “Ramadon” [25], Toshkent shahar Uchtepa tumani “O‘rikzor” [26], Qo‘qon shahar “Sunbula” [27] mahallalarining o‘ziga xos xususiyatlari, jinoyatchiligining kriminologik jihatlari, sabablari va imkon bergan shart-sharoitlari tahlil qilinib, ularning oldini olishga oid metodikalar ishlab chiqilgan.

To‘rtinchi yo‘nalish – mahallalarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida o‘zaro hamkorlikni va ijtimoiy sherikchilikni takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarda: tayanch punktlari negizida ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligi [28], uni muvofiqlashtirish va boshqarish [29], profilaktika inspektorining ma’muriy hududda jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi hamkorligi [30] masalalari ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida tahlil qilingan, ularning natijalari bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif hamda tavsiyalar milliy qonunchilik va amaliyotga joriy etilgan.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, mahallalarda sodir etilgan jinoyatlar, ularni sodir etgan shaxslar, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash: *birinchidan,* asosan davlat rahbarining sohani takomillashtirishga oid farmon va qarorlari ijrosi doirasida amalga oshirilishi; *ikkinchidan,* huquqni muhofaza qilish organlariga kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarini ta’lim jarayoni hisobidan jalb etgan holda olib borilishi; *uchinchidan,* jinoyatchilik bilan bog‘liq tadqiqotlar tarqoq, tegishli mutaxassislar yetarli bo‘lmagan holda amalga oshirilishi belgilangan maqsadga to‘liq erishish imkonini bermayapti.

Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-10-son farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etildi, uning asosiy faoliyati, yo‘nalishlari belgilandi va yo‘lga qo‘yildi.

Muhokama / Discussuions

Oxirgi yillarda O‘zbekistonda mahallalarning jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida, shu jumladan hududda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, jamoat tartibi va xavfsizligini, huquq-buzarliklar profilaktikasini ta’minlash, obod va sog‘lom ma’naviy-ruhiy hamda xavfsiz muhitni yaratish sohasidagi rolini oshirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ularni shartli ravishda quyidagi uch bosqichga ajratib tahlil qilishga harakat qilamiz:

Birinchi bosqichda, jamiyatda jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish, xususan, mahallaning jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va faoliyati samaradorligini oshirish, mahallaning jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirish maqsadida:

mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitning barqarorligini saqlash, sog‘lom turmush tarzini yanada mustahkamlash, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashda jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorligi keng yo‘lga qo‘yildi;

mahallalarda zamonaviy sport maydonchalari barpo etildi, uyushmagan yoshlar o‘rtasida musobaqalar tashkil etilishi yo‘lga qo‘yildi;

mahallalarda huquqbuzarlik va jinoyat sodir etgan fuqarolarning xatti-harakatlarini muhokama qilish amaliyoti keng joriy etildi;

mahalladan turib barcha davlat organlariga murojaat qilish hamda ularning rahbarlari bilan muloqot qilish tizimi yaratildi;

fuqarolarning o‘z mahallasi hayotidagi ishtirokini kuchaytirish hamda davlat organlari va mahallalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni ta’minlash mexanizmlari joriy etildi [31].

Ikkinchi bosqichda, Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish maqsadida:

2022-yil “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” e’lon qilinib, davlat dasturi qabul qilindi;

hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda mahallalarning vakolatlari kengaytirildi;

mahallalarning jamoatchilik bilan aloqalarini kuchaytirish, xususan, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda mahalla to‘g‘risida bildirilayotgan tanqidiy axborotlar bilan ishlash, jumladan ko‘tarilayotgan muammolarni hal etish samaradorligini oshirish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rish, mutasaddi vazirlik va idoralar bilan o‘zaro axborot almashish tizimi takomillashtirildi;

mahallalarda hokim yordamchilari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga qaratilgan tizimli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi;

mahallalarning institutsional asoslari takomillashtirildi, xususan, mahalla raisiga nisbatan ishonchsizlik bildirish tartibi joriy etildi, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari bilan doimiy aloqaning huquqiy asoslari yaratildi;

mahalla tizim uchun yuqori malakali mutaxassislarni maqsadli tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi;

“Obod qishloq”, “Obod mahalla”, hududiy infratuzilma dasturlari doirasidagi loyihalar ochiq e’lon qilinib, keng jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqiladigan tizim yaratildi va amaliyotga joriy etildi;

mahalla hayotida faol ishtirok etgan fuqarolar tanlovini o‘tkazish va ularni rag‘batlantirish tizimi joriy etildi;

mahallada yoshlarning sport bilan shug‘ullanishlari uchun zarur infratuzilma yaratish, respublika hududlarida keng tarqalgan ommaviy sport turlari asosida musobaqalari o‘tkazish tizimi yaratildi [2].

Uchinchi bosqichda, “O‘zbekiston-2030” strategiyasiga muvofiq mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarni barvaqt profilaktika qilish maqsadida:

jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanish uchun kamida 5 mingta mahallada sport maydonchalari barpo etilishi ko‘zda tutildi;

mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlashga qaratilgan manzilli va tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda;

mahallalarda o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo‘yicha yangi yondashuvlar joriy qilinmoqda;

mahalla mablag‘larini, aholining ovoziga ko‘ra, infratuzilma loyihalariga yo‘naltirish amaliyoti joriy qilinib, mahallalardagi muammolarni hal etish uchun ajratiladigan mablag‘lar miqdori kamida 3 barobar ko‘paytirilib, aholi tashabbusi bilan infratuzilmani yaxshilashga ajratiladigan mablag‘larni 24 trillion so‘mga yetkazish belgilandi;

mahallalarda 100 dan ortiq davlat xizmatlarini “bir qadam”da ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish, aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni 100 foiz raqamlashtirib, har bir mahallada “elektron xizmat nuqtalari”ni ishga tushirish belgilab olindi;

hududlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni mahallaning o‘zida hal qiladigan xalqchil tizimni yaratish ko‘zda tutildi [3].

Jamiyatda, xususan, mahallalarda ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik, mehr-muruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilatlar va qadriyatlarimizni keng targ‘ib qilish, jamiyatda ijtimoiy-

ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash [32], aholining tinch va osoyishta hayotini hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirish [5], mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlash [33], “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish [34] bu boradagi Davlat siyosatida aniq belgilangan bo‘lib, uni to‘laqonli amalga oshirish ilmiy-amaliy tadqiqotlar asosida respublika mahallalarida jinoyatchilik, uning sabab va sharoitlariga, shuningdek jinoyat sodir etish va undan jabrlanish ehtimoli bo‘lgan shaxslarga samarali ta’sir ko‘rsatadigan kompleks ijtimoiy va barvaqt profilaktik chora-tadbirlarni maqsadli hamda tizimli ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Tadqiqotlarda jamiyat, uning asosiy bug‘ini bo‘lgan mahalla jinoyatchiligi va uning hududida sodir etilgan jinoyat(lar)ning har ikkalasi ham “ijtimoiy-huquqiy” va “ijtimoiy xavfli hodisa” hisoblansa-da, lekin ular bir-biridan farq qilishi, ularga xos belgilar kriminologik jihatdan ilmiy qiyosiy tahlilga tayangan holda yoritilib, uning natijasi asosida *“jinoyatchilik – bu jamiyatdagi ziddiyat va qarama-qarshiliklarning oqibati sifatida obyektiv mavjud bo‘lgan, ma’lum bir mintaqada, ma’lum bir vaqtda (davrda) sodir qilingan jinoyatlar majmuasini o‘z ichiga olgan, miqdor va sifat ko‘rsatkichlarda tavsiflanadigan, latentlik xususiyatiga ega, nisbatan ommaviy, tarixiy o‘zgaruvchan, o‘zini o‘zi oziqlantiruvchi ijtimoiy xavfli ijtimoiy-huquqiy hodisadir” degan mualliflik ta’rifi berilgan* [35].

Mahalla jinoyatchiligi haqida so‘z yuritilganda yuqoridagi ta’rifdagi belgilar unga ham xosligini, ya’ni mahalla jinoyatchiligi: a) jamiyatdagi, shu jumladan mahalla, uning hududidagi tarkibiy tuzilmalardagi, ijtimoiy munosabatlardagi ziddiyat va qarama-qarshiliklarning oqibati sifatida obyektiv mavjud bo‘lishi; b) mahalla hududida, ma’lum bir vaqtda (sutka, hafta, 10 kun, oy, chorak, yarim yil yoki 1 yilda) sodir qilingan jinoyatlar majmuasini o‘z ichiga olishi; d) miqdor va sifat (ahvol, dinamika, tuzilish, daraja, hududiy) ko‘rsatkichlarda tavsiflanishi; ye) latentlik (tabiiy va sun’iy holatda qayd etilmay qolgan yashiringanlik) va nisbatan ommaviylik, o‘zgaruvchan xususiyatga egaligi; f) o‘zini o‘zi oziqlantiruvchi ijtimoiy xavfli ijtimoiy-huquqiy hodisa ekanligini unutmaslik lozim.

Mahalla jinoyatchiligining kriminologik tahlilini obyektiv va xolisona amalga oshirish: *birinchidan,* hududda sodir etilgan jinoyatlarni qayd etish va ularga oid statistikani yuritishni; *ikkinchidan,* mahallaning geografik joylashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy infrastrukturasini o‘rganishni; *uchinchidan,* ma’muriy hududda yashovchi aholining tarkibi va demografik holatini o‘rganishni taqozo etadi.

Sud-huquq tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini raqamlashtirish maqsadida “Elektron jinoiy-huquqiy statistika” yagona axborot tizimi joriy etilib, sodir etilgan jinoyatlar statistikada: a) oldini olish mumkin bo‘lgan; b) aniqlanadigan jinoyatlarga ajratilgan holda hisobi yuritilishi; v) mahallalarni kriminogen vaziyatdan kelib chiqqan holda “yashil”, “sariq”, “qizil” toifalarga ajratish tartibi yo‘lga qo‘yildi. Bunda mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini olib borish uchun mas’ullar faoliyatini baholashda hududda qayd etilgan sodir etilishining oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlarning hisobot davridagi salmog‘i hamda jinoyat sodir etgan alohida toifadagi (voyaga yetmagan, ayol, ishsiz, ilgari sudlangan, mastlik holatidagi, profilaktik hisobdagi, ma’muriy nazorat ostidagi) shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishiga imkon berganlik holatlari asosiy mezon hisoblanishi belgilangan[36].

Bundan tashqari, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida amalga oshirilgan islohotlar jarayonida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish bevosita Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilish tartibining joriy etilishi natijasida, mazkur hududlarda jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun mas’ullik Milliy gvardiya bo‘linmalari zimmasiga yuklatildi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda jinoyatlarni, shu jumladan mahalla hududida sodir etilgan va aniqlangan jinoyatlarni qayd etish hamda ularning hisobini yuritishda bir qator muammolar mavjud. Jumladan, mahallalarni toifalarga ajratishda, nafaqat mahalla aholisining turar-joy hududlarida va u yerda yashaydigan shaxslar tomonidan, shuningdek jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash uchun ichki ishlar organlari mas’ul bo‘lgan jamoat joylarida migrantlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, hatto butunlay boshqa hududda sodir etilib, lekin mazkur mahalla hududida aniqlanganlari ham hisobga olingan holda kriminogen vaziyat baholanmoqda. Masalan, Toshkent shahri Chilonzor tumanida 2024-yil yakuni bo‘yicha qizil toifaga kiritilgan “Katta Chilonzor-3” mahallasida oldini olish mumkin bo‘lgan 42 ta jinoyat 44 nafar shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lib, ulardan 4 nafari ushbu mahalla fuqarolari bo‘lsa, 8 nafari Chilonzor tumanining boshqa mahallalarida istiqomat qiluvchi fuqarolar, 14 nafari Toshkent shahrining boshqa tumanlari fuqarolari va 18 nafari respublikaning boshqa ma’muriy-hududiy birliklaridan kelgan fuqarolar hisoblanadi. Xuddi shunday “qizil” toifaga kiritilgan “Navbahor” mahallasida oldini olish mumkin bo‘lgan 54 ta jinoyat 81 nafar shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lib, ulardan 2 nafari ushbu mahalla fuqarolari bo‘lsa, 7 nafari Chilonzor tumanining boshqa mahallalari fuqarolari, 29 nafari Toshkent shahrining boshqa tumanlari fuqarolari va 44 nafari respublikaning boshqa ma’muriy-hududiy birliklari fuqarolari hisoblanadi.

Islohotlar jarayonida kriminologik ta’limotlarga asoslangan holda hududdagi kriminogen vaziyatga bevosita ta’sir qiluvchi geografik joylashuvi va uning bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda demografik omillarni hisobga olgan holda tizimli va maqsadli kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yildi [37]. Bunday yondashuvni har bir hududning kriminogen vaziyatini o‘rganish va baholash asosida xavfsiz hududlarni yaratish va jinoyatchilikning barvaqt profilaktikasini ta’minlash tartibi asosida hudud metodikalarini ishlab chiqish amaliyotga joriy etildi [5].

Mahallalardagi kriminogen vaziyatni nazorat qilish, hududda jamoat tartibi va xavfsizligini, huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlash uchun mas’ul bo‘lgan hamda jalb etilgan kuch va vositalar faoliyatini, shuningdek bunda jamoatchilik ishtirokini bunday yondashuv asosida baholashda obyektivlik va xolislikni ta’minlash, shuningdek huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo‘yicha maqsadli va tizimli kompleks chora-tadbirlarini belgilash bilan bog‘liq bir qator qiyinchiliklarni, hatto mahalla faollarining haqli e’tirozlarini ham keltirib chiqarmoqda.

Yuqorida mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklar, shu jumladan jinoyatlarning barvaqt oldini olish borasida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy yondashuvlarning uchinchi yo‘nalishida hudud metodikalari yaratilganligi keltirilgan edi. Biroq, o‘rganish va tahlillar amaliyotda muayyan tuman yoki mahalla doirasida ishlab chiqilgan metodika barcha mahallalarga birdek mos kelmasligini, har bir mahalla geografik joylashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy infrastrukturasi bilan bog‘liq kriminogen vaziyatga ta’sir qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlarga egaligini ko‘rsatadi.

Xususan, Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi kriminogen vaziyati og‘ir mahallalardan biri – ***“Katta Chilonzor-3” mahallasi*** hududi 44,4 gektarni, aholisi 8277 nafarni tashkil etib, jami 2668 ta xonadonning 32 tasi “qizil”, 265 tasi “sariq” va 2371 tasi “yashil” toifaga kiritilgan bo‘lib, 32 tasi kambag‘al oila sifatida ro‘yxatga olingan. Hududda Respublika odam savdosi qurbonlarini reabilitatsiya qilish markazi, Toshkent shahar prokuraturasi ma’muriy binolari, 2 ta umumta’lim

maktabi, 1 ta musiqa va san’at maktabi, 1 ta sport maktabi, 2 ta maktabgacha ta’lim muassasasi, 2 ta mehmonxona joylashgan. Hududdagi ko‘p qavatli uylar soni 59 ta. Mahallada 86 ta tadbirkorlik subyekti, xususan 72 ta savdo shoxobchasi va 14 ta xizmat ko‘rsatish shoxobchalari faoliyat yuritib, uning hududi “Novza” mahallasi va “Muqumiy”, “Chilonzor” va “Cho‘ponota” ko‘chalari bilan chegaralangan bo‘lib, atrofida “Katta Chilonzor-1”, “Katta Chilonzor-2”, “Chilonzor” va “Katta Qozirabot” mahallalari joylashgan. “Chilonzor” savdo markazi va “Yuriy Gagarin” haykali mahalla hududdagi eng diqqatga sazovor joylar hisoblanadi.

Mahalla aholisi tarkibida ijtimoiy profilaktika obyektlari: ishsizlar 48 nafarni; xorijga ishlash uchun ketganlar 15 nafarni; “Ayollar” daftariga kiritilganlar 185 nafarni; “Yoshlar” daftariga kiritilganlar 31 nafarni; nogironlar 86 nafarni; pensionerlar 886 nafarni tashkil qiladi.

Tumandagi yana bir kriminogen vaziyat og‘ir mahalla – ***“Navbahor”****ning* hududi 38,5 gektarni, aholisi 4757 nafarni, xonadonlar soni 1263 tani tashkil etadi, jami 2065 ta oilaning 3 tasi kambag‘al oila sifatida ro‘yxatga olingan. Hududda Chilonzor tumani hokimligi, tuman davlat soliq idorasi, tuman aholi bandligini ta’minlash markazi ma’muriy binolari, Sanoatqurilishbank hududiy filiali, “Chilonzor” dehqon bozori (unga tutashgan uy bozori va gul bozori), 1 ta maktabgacha ta’lim muassasasi, 1 ta xususiy umumta’lim maktabi, 1 ta Nafis san’at litseyi, 1 ta kutubxona, “Integro”, “Magnum”, “Atlas” savdo markazlari binolari, 2 ta mehmonxona joylashgan. Hududdagi ko‘p qavatli uylar soni 15 ta. Mahallada 217 ta tadbirkorlik subyekti, jumladan 203 ta savdo, 5 ta umumiy ovqatlanish va 9 ta xizmat ko‘rsatish shoxobchalari faoliyat yuritadi.

Mahalla hududi “Bunyodkor” shoh ko‘chasi, “Kichik halqa yo‘li”, “Qatortol” va “Mehr” ko‘chalari bilan chegaralangan bo‘lib, atrofida “Katta Navbahor”, “Ko‘tarma”, “Fidokor” va “Zarqo‘rg‘on” mahallalari joylashgan. Toshkent metropolitenining “Chilonzor” bekatidan chiqish joyi, “KFC” kafesidan “Kichik halqa yo‘li” ko‘chasi bo‘ylab “Qatortol” ko‘chasigacha bo‘lgan yo‘lak, “Chilonzor” dehqon bozoriga tutashgan uy va gul bozorlari, “Integro”, “Magnum”, “Atlas”, “Mediapark”, “Idea” savdo markazlari hududdagi eng odam gavjum joylar hisoblanadi.

Mahalla aholisi tarkibida ijtimoiy va huquqbuzarliklar profilaktikasi obyektlari: band bo‘lmagan yoki doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan ishsiz shaxslar – 38 nafar; spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aql-irodasiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo‘lib qolgan shaxslar – 7 nafar; qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarga ruju qo‘ygan shaxslar – 2 nafar; g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar – 2 nafar; qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlar – 4 nafar; ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari – 6 nafar; davlat ko‘magiga muhtoj “og‘ir” toifadagi yoshlar – 6 nafar; huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar – 4 nafar; ajrim yoqasiga kelib qolgan va nizoli oilalar – 2 nafar; yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar – 1 nafar; muntazam tazyiq va zo‘ravonlikka uchrab kelayotgan xotin-qizlar – 4 nafar; jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan shaxslar – 9 nafar; og‘ir ahvolga tushib qolgan va og‘ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslar – 6 nafar; tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan shaxslar – 4 nafar; parvarishga muhtoj yolg‘iz keksalar – 1 nafar; nogironligi bo‘lgan va og‘ir kasallikka chalingan shaxslar – 4 nafar tashkil etadi.

Mahallalardagi kriminogen vaziyatni tahlil qilish va baholashda qayd etilgan jinoyatlar oldini olish mumkin bo‘lgan va aniqlanadigan, aholi turar-joylari va jamoat joylarida, mahallada yashovchilar va boshqa hududlardan kelganlar tomonidan sodir etilganligini, shuningdek hududning geografik joylashuvi va infrastrukturasini, demografik holatni inobatga olib amalga oshirish muammolarni hal etishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar / Results.

Mahallalarda xavfsiz muhitni shakllantirish va huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini samarali tashkil etish: *birinchidan,* hududda sodir etilgan jinoyatlarni; *ikkinchidan,* ularni sodir etgan va undan jabrlangan shaxslarni; *uchinchidan,* jinoyatlarning sabablari va imkon bergan shart-sharoitlari bo‘lgan kriminogen omillarni har tomonlama chuqur kriminologik tahlili natijalariga asoslanishni taqozo etadi.

“Katta Chilonzor-3” mahallasi hududida 2024-yil davomida qayd etilgan jinoyatlarning kriminologik tahlili. Mahalla hududida 48 ta jinoyat qayd etilgan bo‘lib, ularning 42 tasi oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar va 6 tasi aniqlanadigan jinoyatlar hisoblanadi. Jinoyatlar har ming kishiga nisbatan o‘rtacha 61,5 tani tashkil etib, mahalla “qizil toifa”ga kiritilgan, 2023-yilga nisbatan 2 barobarga, oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar 3 barobarga oshgan. Jinoyatlar turiga ko‘ra quyidagicha:



Oldini olish mumkin bo‘lgan 42 ta jinoyat 44 nafar shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lib, ular quyidagicha:



Ushbu shaxslarning 4 nafari ushbu mahalla fuqarolari bo‘lsa, 8 nafari Chilonzor tumanining boshqa mahallalarida istiqomat qiluvchi fuqarolar, 14 nafari Toshkent shahrining boshqa tumanlari fuqarolari va 18 nafari respublikaning boshqa ma’muriy-hududiy birliklaridan kelgan fuqarolar hisoblanadi.

Oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlarning asosiy qismi (67 %)ni o‘g‘irlik jinoyatlari tashkil etadi va ularni turlari bo‘yicha tahlil qilinganda quyidagicha:



O‘g‘irlik jinoyatlarining sodir etilgan joyi bo‘yicha tahlili quyidagicha:



Oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar tarkibida keyingi katta hissa tan jarohati yetkazish jinoyatlariga tegishli bo‘lib, ularning 3 tasi o‘rtacha og‘ir tan jarohat yetkazish bo‘lsa, 5 tasi yengil tan jarohat yetkazish hisoblanadi. Ularning sodir etilgan joyiga ko‘ra tahlili quyidagicha:

Mahalla hududida qayd etilgan 2 ta bezorilik, 2 ta transport vositasini olib qochish va 1 ta talonchilik jinoyatlari ko‘cha va jamoat joylarida sodir etilgan.

Mahalladagi oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlarning sodir etilgan vaqti bo‘yicha tahlili quyidagicha:

“Katta Chilonzor-3” mahallasida sodir etilgan jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlarini, shuningdek kriminogen vaziyatga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish hamda tahlil qilish asosida ularni quyidagi guruhlarga ajratgan holda bayon etish maqsad qildik:

Birinchi guruh, demografik va jug‘rofiy omillar:

mahalla hududida istiqomat qiluvchi aholi soni boshqa mahallalarga nisbatan ko‘p, “Katta Chilonzor-3” mahallasining aholisi 8277 nafar bo‘lsa, “Katta Chilonzor-1” mahallasi aholisi 6150 nafarni va “Katta Chilonzor-2” mahallasi aholisi 6475 nafarni tashkil etadi;

hududda ichki migratsiya jarayonlarining faolligi yuqori darajada, qo‘shni mahalla fuqarolari va tranzit o‘tuvchilar doimiy ravishda mahalla hududi orqali harakatlanadilar;

mahalla hududiga nafaqat asosiy 2 ta kirish darvozasidan, balki “Chilonzor”, “Muqumiy” va “Cho‘ponota” ko‘chalari hamda “Novza” mahallasi orqali xohlagan joydan, jumladan ko‘p qavatli uylar orasidan, “Anhor” kanali ustidagi ko‘priklardan kirish va chiqish imkoniyati mavjudligi sababli, kirib-chiquvchilarni nazorat qilishning imkoniyati cheklangan;

hududni o‘rab turgan “Chilonzor” va “Muqumiy” ko‘chalarida ko‘plab savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalari joylashgan bo‘lib, u yerlarda aholi gavjumligi kuzatiladi;

hududdagi eng odam gavjum joylar – “Chilonzor” savdo markazi va “Yuriy Gagarin” haykali, odatda, muayyan masala yuzasidan uchrashadigan shaxslarning qulay lokatsiya joyi hisoblanadi va ushbu hududda patrul naryadlari mavjud emas;

hududda talabalar, davolanish uchun kelganlar singari vaqtinchalik ijarada turuvchilar toifasiga kiruvchi shaxslar soni ko‘p va ular doimiy ravishda o‘zgarib turadi;

hududda huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan parvarishga muhtoj keksalar va yolg‘iz yashovchilarning soni ko‘p, xususan, mahalla hududida istiqomat qiluvchilar orasida 60 yoshdan yuqori bo‘lganlar 685 nafar (8,3 %)ni, jumladan yolg‘iz keksalar 27 nafarni, nogironligi bo‘lgan shaxslar 86 nafarni, og‘ir sharoitga tushib qolgan xotin-qizlar 8 nafarni va boquvchisini yo‘qotgan oilalar 16 tani tashkil etadi.

Ikkinchi guruh, ijtimoiy-iqtisodiy omillar:

kambag‘allik muammosi – mahallada 32 ta oila kambag‘al oila sifatida ro‘yxatga olingan, 265 tasining esa shunday toifaga kiritilishi xavfi mavjud;

aholi orasida ishsiz shaxslar ko‘p va ularning tarkibi doimiy o‘zgarib turadi, hududda bunday shaxslarni ish bilan ta’minlashga xizmat qiladigan aniq mexanizmlar, imkoniyatlar va yirik tadbirkorlik subyektlari mavjud emas;

mahalla hududiga respublikaning boshqa ma’muriy-hududiy birliklaridan ish izlab keluvchi shaxslar oqimi yuqori, savdo va xizmat ko‘rsatuvchi obyektlarda norasmiy mehnat qilish uchun ehtiyoj va sharoit mavjud hamda bu toifa shaxslar tomonidan huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etish darajasi yuqori;

oiladagi ijtimoiy muammolar, xususan moddiy yetishmovchilik va ishsizlikni ayrim shaxslar qonuniy yo‘llar bilan hal eta olmaganligi oqibatida yuzaga kelgan moddiy ehtiyojni noqonuniy, g‘arazli yo‘llar bilan hal etishga urinmoqda;

aholining asosiy qismi o‘rtahol va moddiy ahvoli bo‘yicha kam ta’minlangan toifaga kiradi, shu sababli ular tomonidan shartnoma asosida yashash xonadonlarini qo‘riqlovga topshirish, yo‘laklarga xavfsizlik qurilmalarini o‘rnatish masalalarining hal etilishi imkoniyati cheklangan;

hududda spirtli ichimliklarga ruju qo‘ygan 6 nafar shaxs ro‘yxatga olingan bo‘lsa-da, aholi orasida ichkilikka berilgan shaxslar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Uchinchi guruh, tashkiliy-boshqaruv sohasidagi omillar:

mahallaga xizmat ko‘rsatuvchi 307-son ichki ishlar organlari tayanch punktidagi mavjud 4 ta profilaktika (katta) inspektori lavozimlaridan 1 tasi 2024-yil avgust oyidan buyon jamlanmasdan kelmoqda;

tayanch punktida faoliyat olib borayotgan 3 nafar profilaktika inspektorining 1 nafari farmoyish asosida 2-son IIB surishtiruv guruhiga biriktirilgan, 1 nafari doimiy ravishda tungi smenadagi navbatchilikka jalb etilmoqda, 1 nafari asosiy vaqtini aniqlangan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish va suddan o‘tkazish bilan band bo‘lmoqda, shu sababli ma’muriy hududda huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir ishlar yetarlicha tashkil etilmagan;

mahalla yettiligi tarkibiga kiruvchi yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, hokim yordamchisi, ijtimoiy xodim, soliq inspektori lavozimlarini jamlashda bevosita mahalla raisi bilan kelishilmagan holda, qolaversa ushbu mahallada istiqomat qiluvchi fuqarolardan emas, balki boshqa hududlarda istiqomat qiluvchi fuqarolar tayinlanmoqda. Bu esa ushbu xodimlarning xizmatini tashkil etishda, jumladan ularning ishga kelib-ketishida muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda (mahalla ijtimoiy xodimi va yoshlar yetakchisi respublikaning boshqa hududidan kelib, Uchtepa tumanida vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tgan holda, yangi biriktirilgan bank vakili esa Sergeli tumanida istiqomat qilgan holda faoliyat yuritmoqda);

profilaktika inspektorlari tomonidan ichki ishlar organlari ma’muriy nazorati yoki profilaktik hisobida turgan shaxslar va boshqa ilgari sudlanganlar bilan profilaktik ishlar yetarlicha olib borilmagan, oqibatda bu toifa shaxslar tomonidan jinoyatlar qayta sodir etilgan;

mahalla hududi, jumladan yo‘llar va yurish yo‘laklari, bolalar maydonchalari, “Anhor” kanali atrofidagi hudud tungi vaqtda yetarlicha yoritilmagan, nazoratning yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagani oqibatida o‘rnatilgan ko‘pgina yoritish chiroqlarining lampalari yechib olingan;

mahalladagi jamoat joylari, xususan “Chilonzor” va “Muqumiy” ko‘chalari yoqasidagi piyodalar harakatlanish yo‘laklarida noqonuniy savdo bilan shug‘ullanish holatlariga yo‘l qo‘yilmoqda;

mahallada ijtimoiy profilaktikani tashkil etish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va xavfsiz muhitni yaratish bo‘yicha qonunchilik hujjatlari talablarini mahalla yettiligi a’zolari yetarlicha bilmaydilar;

mahallaning odamlar gavjum jamoat joylari, ko‘p qavatli uylarning atroflari videokuzatuv kameralari bilan yetarlicha ta’minlanmagan, mavjudlarining juda kam qismi Toshkent shahar IIBBning Yagona tezkor boshqaruv markazi va situatsion markazlarga integratsiya qilingan;

odamlar gavjum jamoat joylari va ko‘p qavatli uylarning kirish yo‘laklari tezkor chaqiruv tugmalari bilan yetarlicha qamrab olinmagan;

mahalla hududida sodir etilgan oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar mahalla yettiligi tomonidan zudlikda muhokama qilinib, kelgusida bu kabi jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar belgilab borilmagan hamda buning oqibatida takroriy va davomli jinoyatlar sodir etilishi kuzatilgan. Masalan: T.F.I. 2024-yilning 2-iyul kuni soat 20:30da o‘z jinoiy sherigi A.A.S. bilan birga mahalla hududidagi 73-sonli ko‘p qavatli uyning kirish yo‘lagida qarovsiz qoldirilgan fuqaro A.A.R.ga tegishli narxi 1.300.000 so‘m bo‘lgan “BONVY” velosipedini o‘g‘irlagan. Biroq, sodir etilgan jinoyat mahalla yettiligi tomonidan o‘z vaqtida muhokama qilinib, shunday o‘g‘riliklarning oldini olish choralari ko‘rilmaganligi oqibatida ushbu shaxslar tomonidan 2025-yilning 2-12-iyul kunlari “Katta Chilonzor-3”, “Katta Chilonzor-2”, “Katta Qozirabod”, “Novza”, “Fidokor” mahallalari ko‘p qavatli uylarining kirish yo‘laklaridan jami 12 ta shunday velosiped o‘g‘riligi jinoyati sodir etilgan;

mahallada sodir etilgan jinoyatlarni, xususan ularning boshqa hududlardan kelgan shaxslar tomonidan sodir etilganlarining sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlar hamda ularni bartaraf etish yuzasidan profilaktika inspektorlari tomonidan tegishli organlar va muassasalarga o‘rnatilgan tartibda taqdimnomalar kiritilmagan;

mahalla hududida 2 ta umumta’lim maktabi, 2 ta maktabgacha ta’lim muassasasi, Respublika odam savdosi qurbonlarini reabilitatsiya qilish markazi, Toshkent shahar prokuraturasi ma’muriy binolari, umumiy ovqatlanish shoxobchalari joylashganligi sababli kunning 7:30-9:30, 12:30-14:00, 17:30-20:00gacha ichki yo‘llarda transport vositalari tirbandligi yuzaga kelmoqda va bu atrofdagilarning xavfsizligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

To‘rtinchi guruh ma’naviy-ruhiy va tarbiyaviy sohadagi omillar:

ayrim oilalarda ona-onalar, ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan olib borilayotgan tarbiyada xato va kamchiliklar mavjud, xususan bolalar halollik, mehnatsevarlik, o‘zganing mulkiga ko‘z olaytirmaslik kabi sharqona qadriyatlar asosida emas, balki xudbinlik, olg‘irlik, boqimandalik kabi illatlarga yetaklovchi usul va vositalar yordamida tarbiyalanmoqda;

ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, farzandlarining o‘qish vaqtida kompyuter o‘yini klublariga, tungi vaqtlarda ko‘ngilochar (dam olish) joylarga borishiga yo‘l qo‘yib berish holatlari ko‘payib bormoqda, biroq shunday huquqbuzarliklarni aniqlash va aybdorlarga nisbatan tegishli choralarni ko‘rish, bu borada maktablardagi inspektor-psixologlar bilan o‘zaro hamkorlik ishlari yetarli emas. 2024-yilda bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik (MJtK 47-m.) bo‘yicha 3 ta, voyaga yetmagan shaxsning ko‘ngilochar (dam olish) joylarida tungi vaqtda bo‘lishiga yo‘l qo‘yish (MJtK 1882-m.) bo‘yicha 1 ta holat aniqlangan;

yoshlar bilan ishlash, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli va manzilli tashkil etish, ularni kasb-hunarga yo‘naltirish va ish bilan ta’minlash sohasida kamchiliklar mavjudligi oqibatida uyushmagan yoshlar tarkibida muammoli va jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan toifadagi shaxslar hissasi ortib bormoqda, xususan mahallada qayd etilgan jami jinoyatlarning 13 tasi (30 %) yoshlar tomonidan sodir etilgan;

jamiyatda kechayotgan globallashuv va “ommaviy madaniyat” ta’siri kuchayib borishi jarayonida uni targ‘ib qilish holatlari kuzatilmoqda;

giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar, shuningdek kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallash va muomalaga kiritish holatlari ko‘payib bormoqda, unga tobelikning yuzaga kelishi esa oqibatda pulga bo‘lgan ehtiyoj sababli ayrim shaxslar o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etmoqda.

Beshinchi guruh, viktimologik omillar:

kishilar pul, narsa, buyum, velosiped, skuter, bolalar aravachalari va boshqa mulklarini saqlashda ehtiyotsizlikka va beparvolikka yo‘l qo‘ymoqda, uylarning yo‘laklari, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarida velosipedlarni saqlash uchun maxsus joylar tashkil etilmagan, bu esa ularni o‘g‘irlash uchun sharoit yaratmoqda;

hududdagi 59 ta ko‘p qavatli uyning 224 ta kirish yo‘laklarining barchasiga raqamli qulflar o‘rnatilgan, biroq hozirda 10 tasi yaroqsiz holga kelgan, qolgan aksariyati qulflanmasdan ochiq holda qoldirilayotgani oqibatida 2024-yilda kirish yo‘laklaridan 12 ta o‘g‘rilik jinoyati sodir etilgan;

ko‘p qavatli uylarning kirish yo‘laklari, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari oldida velosiped, skuter, elektromoped va samokatlarni egalari tomonidan qarovsiz, qulflamasdan qoldirilishi ularning o‘g‘irlanishi uchun sharoit yaratmoqda;

olib borilayotgan tushuntirish va targ‘ibot tadbirlariga qaramasdan, mahallada xonadonlar, savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini Milliy gvardiya qo‘riqlash bo‘linmalari qo‘riqloviga topshirish ko‘rsatkichi juda past darajada. Hududidagi 2668 ta xonadonning 26 tasi (1 %), 72 ta savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalaridan 27 tasi (37,5 %) qo‘riqlash xizmati tomonidan qo‘riqlovga olingan, xolos;

noqonuniy maqsadlarini amalga oshirish, shuningdek savdo, xizmat ko‘rsatish, ta’lim olish, davolanish va boshqa sohalarda muayyan maqsadga tez va navbatsiz erishish uchun jabrlanuvchilar boshqa kishi (firibgar)larga murojaat qilishlari natijasida firibgarlikning qurboniga aylanmoqda;

ayrim shaxslar telefonidan foydalanish uchun so‘rab murojaat qilgan har qanday boshqa shaxsga uyali telefonini ishonib berishi hamda hushyorlikni yo‘qotishi, loqaydligi oqibatida talonchilik qurboniga aylanib qolmoqda;

avtotransport vositalari egalarining transport vositasini ochiq qoldirishi yoki unda uxlab qolishi oqibatida undagi pul, buyum va qimmatbaho narsalar o‘g‘irlanishiga sharoit yaratib bermoqda;

mahalladagi aholi gavjum bo‘ladigan joylarga “Hudud kamera nazoratida!” va “Obyekt qo‘riqlovda!” kabi aholini ogohlikka chaqiruvchi stikerlar o‘rnatilmagan.

Ko‘rsatilgan omillarni o‘z vaqtida bartaraf etish choralari ko‘rilmasligi mahallada jinoyatlar sodir etilishiga hamda jinoyatchilikni oziqlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar / Conclusions

Huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi – huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar tomonidan huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini o‘z vaqtida bartaraf etish, aholining barcha qatlamlari huquqiy madaniyatini oshirish, ma’naviy tarbiyalash, ularda qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko‘rinishiga murosasizlik tuyg‘usini singdirish yo‘li bilan amalga oshiriladigan huquqbuzarliklarning profilaktikasining dastlabki bosqichi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi mazmun-mohiyatiga ko‘ra shaxsni tarbiyalash, unda g‘ayriijtimoiy xulq-atvor, huquqbuzarlik sodir etishga moyillik yuzaga kelishining oldini olish bilan bog‘liq holda amalga oshirilishi sababli, ko‘plab huquqshunos olimlar huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bilan bog‘lagan holda o‘rganishga harakat qiladilar.

Huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini amalga oshirishda turli usul va shakllardan foydalaniladi. Ularni huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasining quyidagi chora-tadbirlari (yo‘nalishlari) doirasida tizimli o‘rganish mumkin: huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda o‘z vaqtida bartaraf etish; aholining barcha qatlamlari huquqiy madaniyatini oshirish; aholini, ayniqsa yoshlarni ma’naviy tarbiyalash, ularda qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko‘rinishiga murosasizlik tuyg‘usini singdirish.

Mahallalarda huquqbuzarliklar barvaqt profilaktikasi: a) aholining barcha qatlamlari huquqiy madaniyatini oshirish; b) huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda o‘z vaqtida bartaraf etish; d) aholini, ayniqsa yoshlarni ma’naviy tarbiyalash, ularga qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko‘rinishiga murosasizlik tuyg‘usini singdirish; e) har bir shaxs ijtimoiy profilaktika obyektiga nisbatan manzilli va tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ta’minlanadi.

Huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va sharoitlari bir qancha kriminologik determinantlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, g‘oyaviy, ijtimoiy-ruhiy, tashkiliy-boshqaruv, siyosiy sohalardagi kamchiliklar oqibati (determinanti) sifatida jinoyatchilikning mavjud bo‘lishi va rivojlanishini ta’minlaydi.

Aytish kerakki, jinoyatchilik ham, unga imkon beruvchi shart-sharoitlar ham jamiyatda kechayotgan jarayonlar, o‘zgarishlar va yangilanishlarga hamohang tarzda o‘zgarib boradi.

Hozirgi kunda yurtimizda huquqbuzarlik (jinoyat)larni keltirib chiqaruvchi, jinoyatchilikni oziqlantiruvchi asosiy kriminogen omillarga ishsizlik, axloqsizlik, boqimandalik, surunkali ichkilikbozlikni kiritish mumkin. Hududlarda bunday salbiy omillar, sabab va sharoitlarning ko‘payib borishi kriminogen vaziyat yomonlashuviga olib keladi. Ma’muriy hududda kriminogen vaziyat haqida doimiy va haqiqiy axborotga ega bo‘lib borish uchun davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan [33] mahalla yettiligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda [38] belgilangan vakolatlarni samarali amalga oshirish lozim.

Buning uchun hududning xususiyatlari, zarur demografik ma’lumotlar, transport vositalarining harakati, dam olish va ko‘ngilochar maskanlar, profilaktik hisobda turgan shaxslarning turmush tarzi va xulq-atvori, aholini qiynayotgan muammolar, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarining tovar-moddiy boyliklari saqlanadigan omborlar, hududdagi obyektlarning texnik jihatdan himoyalanganligi va qo‘riqlanish tartibiga doir hamda boshqa tegishli axborotlar doimiy ravishda olinib, kriminologik nuqtayi nazardan tahlil qilib borilishi lozim.

Foydalanilgan manbalar / References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6196-son Farmoni https://lex.uz/docs/5344118.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining.2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni https://lex.uz/docs/5841063.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi ““O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni https://lex.uz/docs/6600413.
4. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi O'RQ-371-son Qonuni https://www.lex.uz/acts/2387357.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-27-son Farmoni https://lex.uz/uz/docs/5749291.
6. Ismailov I., Muxamedov O'.X., Ziyodullayev M.Z., Muxtarov J.S. va boshq. Ichki ishlar idoralaridagi islohotlar – tinchlik va osoyishtalik garovi: Monografiya / Mas'ul muharrir: SH.T. Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – B. 272.
7. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: MonografiY. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 280 b.; Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: Yurid. fan. dok. (DSs) dis. – T., 2019. – B. 235.
8. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatlarni jilovlash bo'yicha “fuqarobay”, “oilabay” va “mahallabay” ishlash tizimini tashkil etish metodikasi: O'quv-metodik qo'llanma / M.Z.Ziyodullayev, A.S.Tursunov, A.SH.Murodov va boshq. – T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 125 b.
9. Firibgarlik jinoyatlarining barvaqt oldini olish bo'yicha hudud metodikasi (Toshkent shahar Chilonzor tumani misolida): O'quv-amaliy qo'llanma / M.Z.Ziyodullayev, SH.A.Kulmatov, B.N.Rashidov va boshq. Mas'ul muharrir: R.A.Xatamov – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 69 b.
10. O'g'irlik jinoyatlarining barvaqt oldini olish bo'yicha hudud metodikasi (Toshkent shahar Chilonzor tumani misolida): O'quv-amaliy qo'llanma / M.Z.Ziyodullayev, O.A.Kamalov, F.A.Primov va boshq. Mas'ul muharrir: R.A.Xatamov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 67 b.; Ziyodullayev M.Z., Yuldashev M.O. Xorazm viloyatida o'g'rilik jinoyatlarining bugungi holati va ularning barvaqt oldini olish yo'llari // Eurasian journal of law, finance and applied sciences / https://doi.org / 10.5281/zenodo.5584563. – P. 4–8.
11.Talonchilik jinoyatlarining barvaqt oldini olish bo'yicha hudud metodikasi (Toshkent shahar Chilonzor tumani misolida): O'quv-amaliy qo'llanma / M.Z.Ziyodullayev, B.A.Saidov, A.O.Sharofutdinov va boshq.; Mas'ul muharrir: R.A.Xatamov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 71 b.
12. Bezorilik jinoyatlarining barvaqt oldini olish bo'yicha hudud metodikasi (Toshkent shahar Chilonzor tumani misolida): O'quv-amaliy qo'llanma / M.Z.Ziyodullayev, B.A.Rajabov, B.B.Murodov va boshq. Mas'ul muharrir: R.A. Xatamov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 80 b.
13. Ziyodullaev M.Z. O'lim bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarining barvaqt oldini olishga doir ayrim mulohazalar (Jizzax viloyati misolida) / Huquqiy olam: ilmiy-amaliy jurnal. – 2023, – № 3. – B. 41–50. https://doi.org/10.5281/zenodo.5584563. – P. 4–8.
14. Uyushmagan yoshlar bilan ishlash va ular o'rtasida huquqbuzarliklarning erta profilaktikasini tashkil etish metodikasi (Toshkent shahri Yunusobod tumani misolida): O'quv-amaliy qo'llanma / M.Z.Ziyodullayev, T.B.Mamatqulov, Q.A.Saitqulov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – 41 b.
15. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha “fuqarobay” ishlash metodikasi (QR Kegeyli tumani “Nurli bo'ston” mahallasi misolida): O'quv-metodik qo'llanma/R.A.Xatamov, M.Z.Ziyodullayev, R.O.Nigmatov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 248 b.
16. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha “fuqarobay” ishlash metodikasi (Andijon tumani “Sultonobod” mahallasi misolida): O'quv-metodik qo'llanma/Mualliflar: R.A.Xatamov, M.Z.Ziyodullayev, R.O.Nigmatov va boshq. – T. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 232 b.
17. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha “fuqarobay” ishlash metodikasi (Buxoro shahar “Piridastgir” mahallasi misolida): O'quv-metodik qo'llanma/Mualliflar: R.A.Xatamov, M.Z.Ziyodullayev, R.O.Nigmatov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 208 b.
18. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha “fuqarobay” ishlash metodikasi (Jizzax viloyati Zafarobod tumani “Chimqo'rg'on” mahallasi misolida): O'quv-metodik qo'llanma / R.A.Xatamov, M.Z.Ziyodullayev, R.O.Nigmatov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 232 b.
19. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha “fuqarobay” ishlash metodikasi (Qarshi shahar “G'afur G'ulom” mahallasi misolida): O'quv-metodik qo'llanma/R.A.Xatamov, M.Z.Ziyodullayev, R.O.Nigmatov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 216 b.
20. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha “fuqarobay” ishlash metodikasi (Namangan shahar “Guliston” mahallasi misolida): O'quv-metodik qo'llanma/Mualliflar: R.A.Xatamov, M.Z.Ziyodullayev, A.S.Tursunov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 216 b.
21. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha “fuqarobay” ishlash metodikasi (Navoiy shahar “Yoshlik” mahallasi misolida): O'quv-metodik qo'llanma/R.A.Xatamov, M.Z.Ziyodullayev, R.O.Nigmatov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 224 b.
22. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha “fuqarobay” ishlash metodikasi (Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani “Oltiqahramon” mahallasi misolida): O'quv-metodik qo'llanma/Mualliflar: R.A.Xatamov, M.Z.Ziyodullayev, R.O.Nigmatov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akade miyasi, 2023. – 232 b.
23. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha “fuqarobay” ishlash metodikasi (Guliston shahar “Taraqqiyot” mahallasi misolida): O'quv-metodik qo'llanma / Mualliflar: R.A.Xatamov, M.Z.Ziyodullayev, R.O.Nigmatov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 200 b.
24. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha “fuqarobay” ishlash metodikasi (Termiz shahar “Majnuntol” mahallasi misolida): O'quv-metodik qo'llanma / R.A.Xatamov, M.Z.Ziyodullayev, R.O.Nigmatov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 216 b.
25. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha “fuqarobay” ishlash metodikasi (Toshkent viloyati Yangiyo'l shahar “Ramadon” mahallasi misolida): O'quv-metodik qo'llanma / R.A.Xatamov, M.Z.Ziyodullayev, R.O.Nigmatov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 156 b.
26. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha “fuqarobay” ishlash metodikasi (Toshkent shahar Uchtepa tumani “O'rikzor” mahallasi misolida): O'quv-metodik qo'llanma/R.A.Xatamov, M.Z.Ziyodullayev, R.O.Nigmatov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 200 b.
27. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha “fuqarobay” ishlash metodikasi (Qo'qon shahar “Sunbula” mahallasi misolida): O'quv-metodik qo'llanma / Mualliflar: R.A.Xatamov, M.Z.Ziyodullayev, R.O.Nigmatov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. –200b.
28. Ziyodullayev M.Z. Militsiya tayanch punktlari negizida ichki ishlar idoralarining jamoatchilik bilan hamkorligi: tahlil, yutuq va muammolar // O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari axborotnomasi. – Toshkent, 2011. – № 3. – 57-61-betlar.
29. Ziyodullayev M.Z. Militsiya tayanch punktlari negizidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish va boshqarish: takomillashtirish yo'nalishlari // O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – Toshkent, 2013. – № 2. – 48–52-b.
30. Profilaktika inspektorining ma'muriy hududda jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi hamkorligi: O'quv-metodik qo'llanma / R.A. Xatamov, M.Z. Ziyodullayev va boshq. – T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. –72b.
31. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son Farmoni https://lex.uz/docs/3107036.
32. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi “Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 5416-son farmoni. https://lex.uz/docs/3686277.
33. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-209-son Farmoni https://lex.uz/docs/6705763.
34. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 yanvardagi “2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-1-son Qarori.
35. I.Ismailov Kriminologiya va jinoyatchilik: yangi O'zbekiston huquqbuzarliklar profilaktika milliy tizimi.// Jahon kriminologiyasining ilg'or tajribalari I xalqaro forumi materiallari to'plami. 29-30 oktabr 2024 yil., – B.66-75.
36. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuraturasi, Milliy gvardiya, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2021 yil 30 martdagi 14/28/6/14/18-son qarori; O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo'mitasi, Milliy gvardiya, Oliy sudining 2021 yil 15 noyabrdagi 70, 71-qq, 30, 01-02/22-56, 34,16/1020-21-son qarori.
37. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent viloyatida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari kuch va ositalarini boshqarishning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish to'g'risida” 2019 yil 29 maydagi PQ-4343-son qarori https://lex.uz/docs/4355767.
38. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora tadbirlari to'g'risida” 2024 yil 30 noyabrdagi 801-son qarori https://lex.uz/docs/7243832.

VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI VA UNING PROFILAKTIKASI

Usmanova Muborak Akmaldjanovna

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

Профессор Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, доктор юридических наук

Professor of University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

Ashurova Nilufar O‘ktamovna

nilufar01092017@mail.ru

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar b‘yicha falsafa doktori

Доцент кафедры Уголовного права Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам

Associate Professor of the Department of Criminal Law of the University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Law

Annotatsiya: *Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning kriminologik tavsifi, ularning asosiy sabablari va oldini olish choralari tahlil qilingan. Voyaga yetmagan jinoyatchilarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari va ularni jinoyatchilikka undovchi omillar o‘rganilgan. Jinoyatchilikning kamayishiga xizmat qiluvchi xalqaro va mahalliy amaliyotlar hamda profilaktik tadbirlar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, kriminologik tahlil, jinoyatlarning oldini olish, ijtimoiy-demografik xususiyatlar, huquqiy tarbiya, oilaviy muhit, jinoiy javobgarlik, jinoyatchilik profilaktikasi, yoshlar siyosati, jinoyatga moyillik omillari.*

ПРЕСТУПНОСТЬ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ И ЕЁ ПРОФИЛАКТИКА

Аннотация: *В статье анализируется криминологическая характеристика преступлений, совершаемых несовершеннолетними, их основные причины и меры профилактики. Изучены социально-демографические особенности несовершеннолетних преступников и факторы, способствующие их вовлечению в преступную деятельность, рассмотрены международные и локальные практики, способствующие снижению преступности, предложены профилактические мероприятия.*

Ключевые слова: *Преступность несовершеннолетних, криминологический анализ, предотвращение преступлений, социально-демографические характеристики, правовое воспитание, семейная среда, уголовная ответственность, профилактика преступности, молодежная политика, факторы преступной склонности.*

JUVENILE DELINQUENCY AND ITS PREVENTION

Abstract: *This article analyzes the criminological characteristics of crimes committed by minors, their main causes, and preventive measures. The socio-demographic characteristics of juvenile offenders and the factors that encourage their involvement in criminal activities are examined. International and local practices aimed at reducing crime, as well as preventive measures, are proposed.*

Keywords: *Juvenile delinquency, criminological analysis, crime prevention, socio-demographic characteristics, legal education, family environment, criminal liability, crime prevention measures, youth policy, factors of criminal inclination.*

Kirish / Introduction

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar jamiyat barqarorligi va xavfsizligiga tahdid soluvchi o‘ta jiddiy ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri hisoblanadi. Yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar nafaqat ularning kelajagiga, balki jamiyatning umumiy taraqqiyotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday holatlarni kamaytirish va oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, huquqiy va ijtimoiy tizimlarni mustahkamlash orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlarni jinoyatchilikdan himoya qilish va ularning huquqiy ongi hamda madaniyatini oshirish dolzarb vazifalardan biri ekanligini, bu borada huquqni muhofaza qilish organlari, ta’lim muassasalari, mahalliy hokimiyat va jamoatchilik tashkilotlari hamkorligi muhimligini ta’kidlab: “Har bir jinoyatning oldini olish va yoshlarni jinoyatchilikdan qaytarish bo‘yicha aniq strategiyalar ishlab chiqilishi lozim”ligini uqtiradi [1].

Ayni paytda mamlakatimiz aholisi 37 milliondan oshgan va ularning 18 milliondan ortig‘ini yoshlar tashkil qiladi. Ushbu demografik omil davlatning yoshlar siyosatini yanada kuchaytirish va ularning huquqiy savodxonligini oshirish zaruratini yanada dolzarblashtiradi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish uchun ularning ijtimoiy muhitini yaxshilash, huquqiy ta’limni mustahkamlash va ular uchun foydali ijtimoiy loyihalarni joriy etish zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili / Literature Review

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, jamiyatimizda jinoyat sodir etgan shaxslarning har uchinchisini yoshlar tashkil qiladi. Bu achinarli, shu bilan birga, tashvishli holdir. Misol uchun, 2023-yilda 3599 nafar voyaga yetmagan shaxs jinoyat sodir qilgani qayd etilgan. Ularning 82,6 foizi jinoiy javobgarlikka tortilgan bo‘lib, 744 nafari 13–15 yoshda, 2855 nafari esa 16–17 yoshda bo‘lgan. Jinoyat sodir etganlar orasida qizlar ulushi 8,7 foizni (314 nafar) tashkil etgan [2].

Ijtimoiy tarmoqlarning tezkor rivojlanishi yoshlarni o‘rganish usullarini qayta shakllantirdi va ilk bor kibermakonning salbiy ta’sirida o‘sib kelayotgan avlodning huquqlarini himoya qilish masalasini birinchi o‘ringa qo‘ydi. Yoshlarning raqamli texnologiyalar bilan o‘zaro aloqalari masalasida birinchilardan bo‘lib Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST), Xalqaro bolalar fondi (YUNISEF), Ta’lim, fan va madaniyat masalalari tashkiloti (YUNESKO) kabilar tashvishlana boshladi.

BMT 15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan shaxslarni yoshlarni sifatida e’tirof etadi [3]. BMT Yoshlar strategiyasi – “Yoshlar – 2030”ni taqdim etar ekan, BMT Bosh kotibi Antoniu Gutterish: “Yoshlar eng qimmatbaho va juda muhim resurs. Ko‘pincha ular boshqa odamlar tomonidan

zo‘ravonlikka duchor bo‘ladi, iqlim o‘zgarishi yoki tabiiy ofatlarning bevosita ta’siriga uchraydi. Jamiyat ularni ma’lum bir shaklda rad etishi bilan ro‘para keladi va inson huquqlarining global tanazzuli hamda haqiqiy adolatga yetishishning mavjud emasligi og‘irliklarini o‘z yelkasida ko‘taradi... ”[4], dedi.

Voyaga yetmagan jinoyatchilarning aksariyati 14 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan shaxslar, aynan ushbu yosh oralig‘idagi shaxslar orasida jinoiy xatti-harakatga moyillik yuqori bo‘lib, bu davr inson rivojlanishining o‘ziga xos psixologik, ijtimoiy va tarbiyaviy jihatlari bilan xarakterlanadi.

Ushbu yoshdagi voyaga yetmaganlar orasida jinoyat sodir etishning asosiy motivlari impulsivlik, jazo oqibatlarini to‘liq tushunmaslik, atrof-muhitning ta’siri va yetarli darajada ijtimoiy tajribaga ega emaslik bilan izohlanadi. Kriminologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining asosiy qismini mulkiy jinoyatlar tashkil etadi. Jumladan, o‘g‘irlik, bosqinchilik va firibgarlik kabi jinoyatlar ularning moddiy ehtiyojlari yoki noqonuniy yo‘l bilan daromad olish istagi bilan bog‘liq bo‘ladi. Mulkiy jinoyatlar bilan bir qatorda, shaxsga qarshi jinoyatlar, jumladan, bezorilik, zo‘ravonlik va sog‘liqqa qasddan zarar yetkazish kabi qilmishlar ham keng tarqalgan bo‘lib, bunday jinoyatlar ko‘pincha yosh jinoyatchilarning tajovuzkor xulq-atvori, ijtimoiy ziddiyatlarga berilishi yoki guruhli jinoyatchilik faoliyati doirasida sodir etiladi.

Sotsiologik konsepsiyalarda (Ch.Lambrozo, E.Krechmer va boshq.) shaxs jinoiy xulqining tabiati tug‘ma, avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tuvchi omillar va mexanizmlar bilan tushuntiriladi. Italyan shifokori Ch.Lambrozo jinoyatchilar tasnifini ishlab chiqqan va unga tug‘ma jinoyatchilar, ruhiy kasallar, ishtiyoqmand jinoyatchilar va ehtiyotsizlik oqibatida jinoyatchi bo‘lib qolganlarni kiritgan.

Tahlil va natijalar / Results

Bugungi kunga kelib esa, turli olimlarning qarashlaridan kelib chiqqan holda, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyatga qo‘l urishning quyidagi sabablarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

tarbiyasi og‘ir va g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli o‘smirlarning yoshga oid psixofiziologik sharoitlari [5];

o‘smirlar tomonidan jinoyatlar sodir etilishining psixofiziologik sharoitlari bolalik bosqichidan balog‘at yoshiga o‘tish bilan bog‘liq [6];

o‘smirning ijtimoiylashuvini qiyinlashtiruvchi psixik va jismoniy patologiyalar hamda anomaliyalar [7];

Ya’ni, voyaga etmagan bolaning balog‘atga yetish vaqtida uning salbiy xulq-atvorini shakllantirishi mumkin bo‘lgan muhitning, asosan, oilaviy muhit, tarbiya tizimi va jamoaviy nazoratning yetarli darajada tashkil etilmaganligi ushbu jarayonga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Oilaviy muhit voyaga yetmaganlarning huquqiy ongi shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ajrashgan oilalarda yoki nazoratsiz qolgan bolalar orasida jinoyatchilik darajasi yuqori ekani aniqlangan bo‘lib, bu holat ota-onaning yetarli darajada nazorat o‘rnatmasligi, befarqligi yoki aksincha, haddan tashqari qattiqqo‘lligi natijasida yuzaga keladi. Shu bilan birga, noto‘g‘ri do‘stlar ta’siri ham voyaga yetmaganlarning jinoiy faoliyatga jalb etilishida muhim rol o‘ynaydi. Yosh jinoyatchilar orasida guruhiy jinoyatchilik ko‘rinishlari keng tarqalgan bo‘lib, bunday jinoyatlar ko‘pincha tajribali jinoyatchilar yoki jinoyatga moyil bo‘lgan shaxslar rahbarligida amalga oshiriladi. Shunday qilib, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi kompleks omillar ta’sirida shakllanadigan murakkab jarayon bo‘lib, uning oldini olish uchun tizimli huquqiy va ijtimoiy choralar ko‘rish talab etiladi.

Tarbiya muammolari ham voyaga yetmaganlarning jinoyatchilik yo‘liga kirishiga sabab bo‘luvchi muhim omillardan biridir. Bola axloqiy qadriyatlar va huquqiy normalarni oiladan va jamiyatdan o‘rganadi. Agar unga yetarli darajada ijtimoiy me’yorlar singdirilmasa, u jinoyat va huquqbuzarlikni oddiy hol sifatida qabul qilishi mumkin. Xususan, bolalikdan jinoyatga moyil bo‘lgan muhitda o‘sgan shaxslar o‘z atrofidagi shaxslar xulq-atvorini takrorlashga moyil bo‘ladi. Shuning uchun yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalash, ularga axloqiy tamoyillarni singdirish va huquqiy madaniyatni shakllantirish jinoyatchilikning oldini olishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlikka moyilligi ko‘pincha atrof-muhit va do‘stlar ta’siri bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Jinoyatchilikka moyil bo‘lgan guruhlarning ta’siri ostida bo‘lgan voyaga yetmagan shaxslar huquqbuzarlikni ijtimoiy maqbul xulq-atvor sifatida qabul qilishi mumkin. Guruhiy jinoyatchilik voyaga yetmaganlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, bu holat ularning mustaqil ravishda jinoyat sodir etishdan ko‘ra, guruh ta’sirida ushbu yo‘lni tanlash ehtimolini oshiradi. Xususan, voyaga yetmaganlar orasida bosqinchilik, bezorilik, o‘g‘rilik kabi jinoyatlar ko‘pincha guruhiy harakat natijasida sodir etiladi.

Iqtisodiy omillar ham voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga turtki beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Qashshoqlik va moddiy ehtiyoj ko‘plab yoshlarni noqonuniy faoliyatga undaydi. Moliyaviy qiyinchiliklar oilaning voyaga yetmagan a’zolariga yetarli sharoit yaratib bera olmasligi natijasida ular jinoyat orqali moddiy manfaat ko‘rishga intilishlari mumkin. Ayniqsa, o‘g‘rilik va firibgarlik kabi jinoyatlar ko‘pincha moddiy ta’minotning yetishmovchiligi bilan bog‘liq holda sodir etiladi. Bunday holatda jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy muammolar yoshlarni jinoyatchilik yo‘liga boshlashi mumkin.

Shu bilan birga, ishsizlik ham voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining muhim sabablaridan biridir. Yoshlarning ta’lim tizimidan ajralishi yoki mehnat bozorida talab qilinadigan malakalarga ega bo‘lmasligi ularni noqonuniy faoliyat bilan shug‘ullanishga undaydi. Ish topish imkoniyati cheklangan sharoitda voyaga yetmaganlar narkotik moddalar savdosi, firibgarlik va boshqa noqonuniy yo‘llar orqali daromad topishga moyil bo‘ladilar. Bu esa nafaqat ularning huquqbuzarlik sodir etish ehtimolini, balki jamiyatdagi jinoyatchilik darajasini ham oshiradi.

Kriminogen omillar esa, asosan, huquqiy madaniyatning pastligi va nazorat tizimining sustligi bilan bog‘liq. Yoshlarning o‘z huquq va majburiyatlarini yetarlicha bilmasligi ularning qonunbuzarlik qilishiga olib keluvchi omillardan biridir. Huquqiy ongning shakllanishida ta’lim tizimining roli katta bo‘lib, voyaga yetmaganlarga huquqiy bilim va qonunlarga rioya qilish zarurati haqida tushuncha berish juda muhimdir. Agar yosh avlod huquqiy me’yorlarni yetarlicha bilmasa, huquqbuzarlikning huquqiy oqibatlarini ham to‘liq anglamaydi.

Bundan tashqari, oilaviy va davlat nazoratining sustligi ham voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onaning farzandlari ustidan yetarli nazorat o‘rnatmasligi, ular bilan doimiy ravishda muloqot qilmasligi va ularning muammolariga e’tibor qaratmasligi jinoyatchilikning oshishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning profilaktik tadbirlarni yetarlicha amalga oshirmasligi ham voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini balog‘atga yetgan jinoyatchilar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlardan ajratib turuvchi bir qator o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Ushbu xususiyatlar, avvalo, voyaga yetmagan shaxslarning psixologik va ijtimoiy rivojlanish darajasi, ularning ijtimoiy muhit ta’siriga yuqori darajada moyilligi va huquqiy ongining yetarlicha shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Shuningdek, ularning shaxsiy xulq-atvorining beqarorligi, tajribasizlik hamda hissiyotlarga beriluvchanligi jinoyat sodir etish jarayonida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Birinchi navbatda, impulsivlik va rejalashtirilmagan harakatlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Ko‘p hollarda voyaga yetmagan shaxslar

tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar oldindan puxta rejalashtirilmaydi va hissiy ta’sir ostida amalga oshiriladi. Kriminologik tadqiqotlarga ko‘ra, voyaga yetmagan jinoyatchilarning katta qismi jinoyatni his-tuyg‘ulari, muhit ta’siri yoki o‘zini tasdiqlash istagi asosida sodir etadi. Ushbu yosh toifasiga mansub shaxslarning psixikasi hali to‘liq shakllanmaganligi sababli, ularning o‘z xatti-harakatlarini anglash va uzoq muddatli oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish qobiliyati sust rivojlangan bo‘ladi. Shu sababli, ular ko‘pincha oldindan aniq maqsad qo‘ymagan holda jinoyat sodir etadilar va bu qilmish keyinchalik afsuslanishga sabab bo‘lishi mumkin. Voyaga yetmagan shaxslarning aqliy va hissiy rivojlanishi ularning ijtimoiy munosabatlarida beqarorlikni yuzaga keltirib, huquqbuzarlik qilish ehtimolini oshiradi. Ayniqsa, jahl, tajovuzkorlik yoki qasos olish istagi kabi impulsiv his-tuyg‘ular natijasida shaxsga qarshi jinoyatlar, bezorilik va bosqinchilik kabi huquqbuzarliklar sodir etilishi kuzatiladi.

Ikkinchidan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida guruhiy jinoyatchilikning ustunligi kuzatiladi. Voyaga yetmagan shaxslarning ijtimoiy identifikatsiya jarayoni ularning tengdoshlari va muhit ta’siriga yuqori darajada bog‘liq bo‘lib, bu ularning jinoyatchilikka guruhiy shaklda jalb etilishiga sabab bo‘ladi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning aksariyati guruhiy tarzda amalga oshiriladi. Guruh ichida shaxs o‘zini yanada ishonchli his qiladi, javobgarlik hissi pasayadi va u muhit ta’sirida ko‘pincha o‘zining odatdagi xatti-harakatlariga zid bo‘lgan harakatlarni amalga oshiradi. Guruh bosimi ostida jinoyat sodir etish ehtimoli ortadi, chunki voyaga yetmaganlar ko‘pincha jamiyatga yoki o‘z tengdoshlariga o‘zini isbotlash istagida bo‘ladilar. Bu esa ularni huquqbuzarlik sodir etishga undashi mumkin.

Guruhiy jinoyatchilikning ustunligi, ayniqsa, jinoyatga moyil guruhlarga qo‘shilgan yoshlar orasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu guruhlarga qo‘shilish sabablari orasida oilaviy muammolar, nazoratsizlik va psixologik qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyoj yetakchi o‘rin tutadi. Voyaga yetmagan jinoyatchilar jinoyat guruhlarida o‘zlarini “himoyalangan” deb his qiladilar va ularga jinoiy yo‘l bilan o‘zini tasdiqlash osonroq bo‘lib tuyuladi. Shu sababli, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini kamaytirish uchun yoshlar orasidagi guruhiy ta’sirni kamaytirish, ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish va ularni sport, san’at, madaniyat kabi ijtimoiy foydali faoliyatlarga jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, voyaga yetmagan jinoyatchilarning yana bir muhim xususiyati tarbiyaviy ta’sirga yuqori darajada moyillik hisoblanadi. Balog‘atga etmagan shaxslar balog‘at yoshiga etgan jinoyatchilarga qaraganda ijtimoiy reabilitatsiyaga tezroq bo‘ysunadi va ijobiy tarbiyaviy ta’sir ostida o‘z xulq-atvorini o‘zgartirishga moyil bo‘ladi. Bu esa voyaga yetmaganlar uchun maxsus ijtimoiy tarbiya va reabilitatsiya dasturlari samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda voyaga yetmagan jinoyatchilarni jazolashdan ko‘ra ularni qayta tarbiyalash va jamiyatga moslashtirish tamoyili ustuvor hisoblanadi. Chunki ularning shaxsiyati hali to‘liq shakllanmaganligi sababli, jinoyatchilikka oid motivlarni o‘zgartirish, ularni sog‘lom muhitga moslashtirish nisbatan osonroq kechadi. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, voyaga yetmagan jinoyatchilar to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatilgan taqdirda o‘z xulq-atvorlarini o‘zgartirishga moyil bo‘lib, ularning ko‘pchiligi jinoyatchilik yo‘lidan qaytishga intiladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, voyaga yetmagan jinoyatchilarning tarbiyaviy ta’sirga moyilligi ularning qaysi muhitga tushib qolishiga bevosita bog‘liqdir. Agar ular qayta tarbiyalash tizimi orqali to‘g‘ri ijtimoiy muhitga jalb etilsa, ularning jinoyatchilikdan voz kechish ehtimoli ortadi. Aksincha, agar ular jazolashga yo‘naltirilgan repressiv muhitga tushsa, ularning kelajakdagi xulq-atvori yanada radikallashishi va kriminogen yo‘lga butunlay o‘tib ketishi mumkin. Shu sababli voyaga yetmagan jinoyatchilar bilan ishlashda ta’lim, ijtimoiy yordam va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimining samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Ko‘pchilik olimlar tomonidan jinoyatchilikning oldini olish jinoyatchilikka qarshi kurashning bir ko‘rinishi, tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilgan [8]. Xususan, Z.Zaripov va I.Ismailov jinoyatchilikka qarshi kurash tizimini shartli ravishda uchta yo‘nalishga ajratishadi, ya’ni jinoyatchilik va jinoyatlarning oldini olish, jinoiy-huquqiy yoki jinoyatga oid huquq yordamida jinoyatchilikka qarshi kurash, sud tomonidan belgilangan jazoning ijrosini ta’minlash.

Birinchi yo‘nalish jinoyatchilikning oldini olish sifatida keltiriladi va bu yo‘nalishning asosiy mazmuni butun jamiyat va alohida ijtimoiy subyektlar tomonidan jinoyatlar sabablarini aniqlash, bartaraf etish yoki ularning kriminal xususiyatlariga ega bo‘lgan ta’sirini yo‘qotish, kuchsizlantirish, shu jumladan, jinoiy taqiqlarni buzgan yoxud shunday xatti-harakatlarni sodir qilishga moyil bo‘lgan shaxslarga tarbiyaviy-ogohlantirish ta’sirini ko‘rsatishdan iboratdir[9], deb asoslantiriladi.

Bundan tashqari, jinoyatchilikni oldini olishning nazariy qoidalari A.Radishchev, A.Gersen, N.Chernishevskiy va boshqa qator xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan. Umuman olganda, jinoyatchilikning oldini olish – bu odamlarni, jamiyatni, davlatni jinoyatlardan muhofaza qilishdir[10. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, jinoyatchilikning oldini olish – bu uni keltirib chiqaruvchi, oziqlantiruvchi va jamiyatda ijtimoiy hodisa sifatida bo‘lishini taqozo qiluvchi hodisa, voqea, jarayonlarni kamaytirish, cheklash, kuchsizlantirish, ularga to‘sqinlik qilish va ularni bartaraf etuvchi ijtimoiy-huquqiy jarayondir.

Xulosa va takliflar / Conclusions

Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ko‘p omilli, murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, unga qarshi samarali kurashish uchun kompleks yondashuv zarur. Oilaviy tarbiya, huquqiy ta’lim, ijtimoiy nazorat va maxsus profilaktik dasturlar orqali ushbu muammoni kamaytirish mumkin. Kriminologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yosh jinoyatchilarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va tarbiyaviy ta’sir vositalarini takomillashtirish jinoyatchilik darajasini pasaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikni kamaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishning eng samarali vositalaridan biri – ularning huquqiy ta’limi va tarbiyasini yaxshilash. Huquqiy ta’lim yosh avlodning huquqiy ongini shakllantirish, qonunlarga hurmat bilan qarashni o‘rgatish va javobgarlik hissini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktab ta’limi va ijtimoiy tarbiya tizimi voyaga yetmaganlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi, chunki aynan yoshligidan insonning huquqiy qadriyatlari shakllanadi va ularni kelgusida qanday yo‘l tutishi bevosita shu bosqichdagi tarbiyaga bog‘liq bo‘ladi.

2. Huquqiy tarbiya, avvalo, maktablarda huquqiy madaniyatni oshirishga yo‘naltirilgan maxsus darslarni tashkil etish orqali amalga oshirilishi lozim. Bugungi kunda aksariyat ta’lim tizimlarida huquqiy bilimlar umumiy ijtimoiy fanlar tarkibida beriladi, ammo bu yetarli darajada samarali natija bermaydi. Shu sababli, huquqiy ta’lim alohida yo‘nalish sifatida maktab dasturiga kiritilishi, huquq va majburiyatlar bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etilishi zarur. Bunday kurslar voyaga yetmaganlarga nafaqat ularning huquqlari haqida, balki jamiyat oldidagi majburiyatlari, qonun buzilishining oqibatlari va huquqiy javobgarlik masalalari haqida ham keng ma’lumot berishi kerak. Shuningdek, ushbu darslar faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, interaktiv metodlar orqali yoshlarning huquqiy ongini shakllantirishga yo‘naltirilishi lozim. Misol uchun, huquqiy mavzularda rolli o‘yinlar, simulyatsiyalar, jinoyat holatlari tahlili va boshqa faol o‘qitish usullaridan foydalanish talab etiladi.

3. Huquqiy ta’lim faqat maktab darajasida cheklanib qolmasligi, balki oilada ham davom ettirilishi muhim. Ota-onalar farzandlarida huquqiy madaniyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, oilalar bilan ishlash va ota-onalarga farzand tarbiyasida huquqiy aspektlarni tushuntirish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilishi zarur. Ota-onalar farzandlariga huquqbuzarlikning oqibatlari va qonuniy mas’uliyat haqida tushuntirish, ularning xatti-harakatlarini nazorat qilish hamda huquqiy savodxonligini oshirish orqali farzandlarining jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirishlari mumkin. Kriminologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, huquqiy tarbiya oilada yetarli darajada shakllangan bolalar jinoyatchilik yo‘liga kamroq kiradi.

4. Voyaga yetmaganlarning huquqiy bilimlarini oshirish orqali ularning javobgarlik hissini kuchaytirish ham huquqiy tarbiyaning muhim jihatlaridan biridir. Aksariyat hollarda voyaga yetmaganlar o‘zlari sodir etayotgan huquqbuzarlikning huquqiy oqibatlarini to‘liq tushunmaydi yoki jazodan qochish mumkin degan noto‘g‘ri qarashga ega bo‘ladi. Aynan shu bois, ularga huquqiy bilimlarni singdirish orqali har qanday noqonuniy harakatning aniq javobgarlik choralari mavjudligini tushuntirish muhim hisoblanadi. Huquqiy ong shakllangan shaxs o‘z harakatlari uchun mas’uliyatni his qiladi va qonunlarni buzishdan tiyiladi. Bunda, voyaga yetmaganlarning yoshiga mos ravishda ularga ta’sirchan usullarda qonuniy javobgarlik va huquqiy normalar haqida tushuntirish berish lozim. Masalan, voyaga yetmaganlar uchun maxsus huquqiy treninglar, huquqshunoslar bilan uchrashuvlar, jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning hayotiy tajribalariga oid seminarlar tashkil etish orqali ularga huquqbuzarlikning real oqibatlarini tushuntirish mumkin.

5. Huquqiy ta’lim va tarbiya jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ham ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Profilaktika inspektorlari, prokuratura va sud tizimi vakillari muntazam ravishda maktablarda huquqiy targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazishi, yoshlar orasida huquqbuzarlikning oldini olish bo‘yicha suhbatlar olib borishi lozim. Shuningdek, jinoyatchilikning oldini olish maqsadida voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi mutaxassislar – psixologlar, ijtimoiy pedagoglar va huquqshunoslar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish talab etiladi.

Foydalanilgan manbalar / References

1. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnoma // Xalq so‘zi. 2022-yil 21-dekabr.
2. https:// kun.uz.
3. https://undocs.org/ru/A/36/215
4. https://undocs.org/ru/A/36/215. Молодёжная стратегия ООН: Молодёж – 2030.
5. Беличаева С.А. Характеристика современного состояния проблем девиантного поведения несовершеннолетних и пути ее решения. – М., 1995. – С. 91-95
6. Выгоцкий Л.С. Кризисы детского развития. http:// lutim.narod.ru/dip.htm
7. Выгоцкий Л. С. Проблемы возраста. http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Pedagog/hrestomatia /03.php.10
8. Варданян А. Б. Некоторые проблемы раскрытия и расследования тяжких преступлений против личности, совершенных по сексуалным мотивам // Юрист-Правоведь. – 2010. – № 4. – С. 11-14.
9. Zaripov Z., Ismailov I. Kriminologiya: Darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. – B.170.
10. Криминология: Учебник для вузов. /А.И.Алесеев, Ю.Н.Аргунова, С.В.Ванюшкин и др.; Под общ. ред. д.ю.н., проф. А.И.Долговой. – М.: Норма, 2017. – С.338.
11. Kriminologiya: Darslik. M.X.Rustambayev, Q.R.Abdurasulova, G.B.Nurmuhammedova. – T.: Yuridik adabiyotlar Publish, 2024. – 424-b.
12. http://www.gov.uz// – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali rasmiy sayti.
13. http://www.stat.uz// – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
14. http://www.norma.uz//– Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi rasmiy sayti.
15. http://www.lex.uz// – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy axborot bilan ta’minlash markazi rasmiy sayti.

KORRUPSIYA BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI VA PROFILAKTIKASI

Nurmuhammedova Go‘zalxon Bahodirovna

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Доцент кафедры уголовно-правовых дисциплин Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам, доцент

Associate Professor of the Department of Criminal Law Disciplines, University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, PhD in Law, Associate Professor

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminologik xususiyatlari tahlil qilingan bo‘lib, korrupsiyaning ijtimoiy xavfliligi, uning turlari, sabablari va oqibatlari ilmiy asosda o‘rganilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar va O‘zbekistondagi korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *korrupsiya, korrupsiyaga oid jinoyatlar, kriminologiya, korrupsiyaga qarshi kurash, mansabdor shaxslar, jinoyatchilik, huquqbuzarlik, kriminologik tahlil, korrupsiya omillari, korrupsiya profilaktikasi.*

КРИМИНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И ПРОФИЛАКТИКА ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С КОРРУПЦИЕЙ

Аннотация. *В статье проанализированы криминологические характеристики преступлений, связанных с коррупцией, рассмотрена общественная опасность коррупции, её виды, причины и последствия на научной основе, также изучен международный опыт и механизмы борьбы с коррупцией в Узбекистане. По итогам исследования выдвинуты предложения по предотвращению коррупции.*

Ключевые слова: коррупция, коррупционные преступления, криминология, борьба с коррупцией, должностные лица, преступность, правонарушение, криминологический анализ, факторы коррупции, профилактика коррупции.

CRIMINOLOGICAL CHARACTERISTICS AND PREVENTION OF CORRUPTION-RELATED CRIMES

Abstract. *This study analyzes the criminological characteristics of corruption-related crimes. It examines the social danger of corruption, its types, causes, and consequences based on scientific analysis. Additionally, international experiences and anti-corruption mechanisms in Uzbekistan are explored. Based on the study's findings, proposals for corruption prevention are presented.*

Keywords: *corruption, corruption-related crimes, criminology, anti-corruption, public officials, crime, offense, criminological analysis, corruption factors, corruption prevention.*

Kirish / Introduction

Bugungi kunda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish, ularga chek qo‘yish, shuningdek, ushbu huquqbuzarliklarning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tahlillarga ko‘ra, “korrupsiya dunyo iqtisodiyotiga har yili o‘rtacha 2,6 trillion dollar zarar keltirmoqda. Bu esa dunyo yalpi ichki mahsulotining 3 foizini tashkil etadi” [1].

Bu illatga qarshi kurashda barcha davlatlar va hukumatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, ilmiy muassasalar, xullas, butun fuqarolik jamiyati hamkorlikda faoliyat yuritib, korrupsiya hodisasini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishlari hamda shaffoflik va halollik tantana qilishi uchun harakat qilishlari lozim. Bu illat, avvalo, milliy, qolaversa, mintaqaviy va xalqaro xalqaro hamkorlikni taqozo etadi.

Hozirgi globallashuv zamoni, mintaqalar va davlatlararo integratsiya jadallashib borayotgan murakkab bir sharoitda korrupsiya barcha mamlakatlarda birdek muammolarni keltirib, jamiyatni ich-ichidan yemirib, jamiyat rivojiga jiddiy to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Transparency International xalqaro nodavlat tashkiloti har yili "Korrupsiyani qabul qilish indeksi" (CPI)ni e’lon qiladi, bu indeks 180 ta davlatda davlat sektoridagi korrupsiya darajasini baholaydi. 2024-yilda O‘zbekiston ushbu indeksda 32 ball to‘plab, 180 davlat orasida 121-o‘rinni egalladi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 1 ballga pasayganini ko‘rsatadi [2].

CPI 0 dan 100 gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha baholanadi, bu yerda 0 — yuqori darajadagi korrupsiyani, 100 esa – korrupsiyadan xoli holatni anglatadi. O‘zbekistonning 32 ballik natijasi mamlakatda korrupsiya muammosi hali ham jiddiy ekanligini ko‘rsatadi.

Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rtacha ko‘rsatkich 35 ballni tashkil etib, global miqyosda past ko‘rsatkich hisoblanadi. Mintaqada eng yaxshi natijani Gruziya (53 ball), Armaniston (47 ball) va Chernogoriya (46 ball) qayd etgan. Eng past ko‘rsatkich esa Rossiya va Ozarbayjon (22 balldan), Tojikiston (19 ball) va Turkmaniston (17 ball) davlatlariga tegishli [3].

O‘zbekiston hukumati korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida bir qator islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish va jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan aniq maqsadli ko‘rsatkichlar belgilandi. Ushbu yo‘nalishda davlat siyosati izchilligini ta’minlash maqsadida 2023–2024-yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi qabul qilindi.

Shuningdek, ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar ro‘yxati 35 tadan 40 tagacha kengaytirildi. Davlat fuqarolik xizmatiga ishga qabul qilish jarayonini shaffoflashtirish va inson omilini kamaytirish maqsadida ochiq tanlov tizimi joriy etildi. Barcha vazirlik va idoralar uchun yagona “Davlat xizmatchisi” test tizimi ishlab chiqildi, test topshirish jarayoni maxsus jihozlangan test markazlarida o‘tkazilishi va Internet jahon axborot tarmog‘i orqali real vaqt rejimida kuzatilishi ta’minlandi.

2023-yilda O‘zbekiston “Transparency International” tashkilotining “Korrupsiyani qabul qilish indeksi” bo‘yicha 5 pog‘onaga ko‘tarilib, so‘nggi 10 yil ichida barqaror o‘sishga erishdi. Shuningdek, Jahon boshqaruv sifati indikatorlarida (WGI) korrupsiyani nazorat qilish yo‘nalishi bo‘yicha mamlakat 15 pog‘onaga yuqoriladi. “Open Data Inventory” reytingida O‘zbekiston 195 ta davlat ichida 30-o‘rinni egallab, avvalgi yilga nisbatan 15 pog‘onaga ko‘tarildi va Markaziy Osiyo davlatlari orasida 1-o‘rinni egalladi. Bundan tashqari, 2023-yilda korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar soni 879 nafarni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 12 foizga kamaydi [4].

Umuman olganda, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash borasida muayyan ijobiy o‘zgarishlar kuzatilsa-da, hali ham ko‘plab muammolar mavjud. Korrupsiyani qabul qilish indeksining pasayishi mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurash choralarini yanada kuchaytirish va samaraliroq amalga oshirish zarurligini taqozo etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili / Literature Review

Korrupsiya ijtimoiy hodisa sifatida baholanib, shu kungacha uning ijtimoiy, huquqiy, psixologik va boshqa jihatlarini o‘z ichiga oluvchi ta’rifi ishlab chiqilmagan.

Yuridik adabiyotlarda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tarkibini tashkil etuvchi jinoiy xatti-harakatlar, ularning xususiyatlari va tasnifi, qolaversa, “korrupsiya”, “korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar” va “korrupsiyaga oid jinoyatlar” kabi tushunchalarni aniqlash, shuningdek korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminologik xususiyatlarini tahlil etish bilan bog‘liq bahs va munozaralar mavjud.

Qadimgi huquq tizimlaridan hisoblangan “Rim huquqi” manbalariga ko‘ra, “corrumpire” atamasi quyidagi ikki lotincha so‘zdan yasalgan bo‘lib, “correi” – biror muammoga nisbatan majburiyatga ega bo‘lgan tomonlarning kelishuvi, “rumpire” – “buzish”, “zarar yetkazish”, “parchalash”, “o‘zgartirish” ma’nolarini anglatadi. Umumiy tarzda, “buzish”, “yemirish”, “zarar yetkazish”, “soxtalashtirish”, “sotib olish” ma’nolarida ishlatilgan [5].

Yuridik ensiklopediya mualliflarining ta’kidlashicha, “korrupsiya – mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat” [6].

Yuridik adabiyotlarda “korrupsiya” atamasiga huquqshunos olimlarning bergan ta’riflari ham turlicha. Masalan, O.A.Kuznetsova “korrupsiya deganda ikki asosiy jihatni hisobga olish kerak, ya’ni shaxsning mansabdor shaxs bo‘lishi hamda ushbu mansabdor shaxs maqomidan shaxsiy manfaat olishda foydalanishi lozim”[7], degan fikrni ilgari suradi. A.I.Dolgova esa, korrupsiya tushunchasiga “davlat amaldorlari yoki o‘zga xizmatchilar pora evaziga og‘dirilishi va shu asosda ular o‘z xizmat vakolatlaridan shaxsiy yoki muayyan guruh manfaatlarida foydalanishi bilan tavsiflanuvchi ijtimoiy hodisa” [8], deb ta’rif bergan. N.F.Kuznetsovaning fikricha, “korrupsiya – davlat apparati va nodavlat tuzilmalarining xodimlarini pora evaziga og‘dirishdan iborat bo‘lgan ijtimoiy xavfli hodisa” [9] dir.

Keltirilgan ta’riflarning barchasida subyekt sifatida mansabdor shaxsning bo‘lishi talab etilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Fikrimizcha, ushbu yondashuv tor ma’noda ishlatilsa to‘g‘riroq bo‘ladi. Amaliyotda korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning subyekti sifatida nafaqat mansabdor shaxslar, balki xizmatchilar ham ishtirok etayotganliklarini guvohi bo‘lyapmiz. Shuning uchun “korrupsiya” atamasiga berilgan ta’rifda “mansabdor shaxslar” atamasi o‘rniga “davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo‘lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslar” atamasini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bu borada Q.R.Abdurasulovaning quyidagi fikrlari o‘rinlidir: «Korrupsiya davlat ahamiyatiga molik vazifalarni bajarayotgan va ularga tenglashtirilgan shaxslar tomonidan o‘z xizmat vakolatlari yoki ular bilan bog‘liq imkoniyatlardan foydalanib, g‘araz maqsadda yoki boshqa shaxsiy manfaatni ko‘zlab sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar (bu qilmishlar uchun javobgarlik O‘zbekiston Respublikasi JKning tegishli moddalarida nazarda tutilgan) yig‘indisidir»[10].

B.D.Axrarov “korrupsiya deganda, mansabdor shaxslar tomonidan hokimiyat yoki mansab vakolatlaridan qonunga zid ravishda foydalanib, moddiy yoki nomoddiy manfaatdorlikka erishish tushuniladi” [11], deya o‘z qarashlarini bayon etgan. Q.Tojiboyev esa, “korrupsiya jinoyatchiligi davlat boshqaruvining imkoniyatlaridan foydalanish, uni o‘z manfaatlariga bo‘ysundirilgan holda tashkil etilishi asosida vujudga keladi” [12], deydi.

Ushbu yondashuvlarni umumlashtirsak, korrupsiyaning umumiy belgisi sifatida **davlat vakolatlaridan shaxsiy yoki korporativ manfaatlar yo‘lida noqonuniy foydalanish** tushuniladi. Ammo uning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va iqtisodiy jihatlari har bir ta’rifda har xil tarzda aks etgan. Shu bois, korrupsiyani tushunish va unga qarshi kurash strategiyalari mukammal va keng qamrovli yondashuvni talab qiladi.

“Korrupsiya” tushunchasiga doir aholining fikri o‘rganilganda, respondentlarning 48 foizi pora olish, 14 foizi sovg‘alar taqdim etish, 12 foizi davlat mablag‘larini o‘zlashtirish, 12 foizi mansab vakolatini suiiste’mol qilish, 8 foizi mansab vakolatlari hamda davlat mulkidan o‘z manfaati yo‘lida foydalanish hamda 6 foizi tamagirlik deya javob berishgan.

Bevosita mazkur masala borasida xalqaro qonunchilik tahlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, BMT, Yevropa Kengashi va IHRT (OESR) konvensiyalarining hech birida korrupsiyaga aniq ta’rif berilmagan, biroq korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarning turlari sanab o‘tilgan.

Shu o‘rinda xorijiy davlatlar qonunchiligiga ham to‘xtalsak. Xususan, Rossiya Federatsiyasi, Belarus hamda Qozog‘iston Respublikalarining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonunlarida “korrupsiya” atamasiga quyidagicha ta’riflar berilgan:

Rossiya Federatsiyasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida” 2008-yil 25-dekabridagi Federal qonuni [13]da, Belarus Respublikasining 2015-yil 15-iyulda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuni [14] da hamda Qozog‘iston Respublikasining 2015-yil 18-noyabrda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuni[15] mazmunidan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin: ***birinchidan,*** o‘xshashlik tomonlari, ya’ni har uchala qonunda berilgan ta’riflarda ham mansabdor shaxslarning o‘z mansab (xizmat) vakolatlaridan yoki ular bilan bog‘liq imkoniyatlardan foydalanishi; o‘zi yoki uchinchi shaxs uchun pul, qimmatbaho narsalar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xususiyatdagi xizmatlar va boshqa mulkiy huquqlarni olishi yoxud bunday buyumlar yoki naflarni noqonuniy taqdim etishi kabi belgilar mavjud, ***ikkinchidan,*** farqli jihatlari, ya’ni Belarus va Qozog‘iston Respublikalarining qonunlaridagi korrupsiyaga berilgan ta’riflarda subyektlar alohida mavjudligi, Rossiya Federatsiyasi qonunida esa, korrupsiya ta’rifida subyektlar masalasiga oydinlik kiritilmagan. Biroq, Rossiya Federatsiyasi qonunida aynan korrupsiyaga berilgan ta’rifda bevosita korrupsiya bilan bog‘liq qilmishlar sanab o‘tilgan, buni qolgan ikki davlat qonunida umumiy tarzda bayon etilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi qonunida korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar uchun yuridik shaxslarning javobgarligi masalasi korrupsiyaga berilgan ta’rifning 2-bandida alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida “korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish” [16], deb ta’rif berilgan.

Nazarimizda, “korrupsiya” tushunchasiga turli xil ta’riflar berilishiga qaramasdan, ularning barchasiga xos umumiylik shundaki, korrupsiya mansab vakolatini suiiste’mol qilish yoki mansab maqomidan foydalanish bilan bog‘liq holatlarni o‘z ichiga oladi. Mansab esa tashkiliy-huquqiy xarakterga ega bo‘lib, bevosita hokimiyatni amalga oshirish shaklidir.

Yuqorida keltirilgan ta’rif va tushunchalarni umumlashtirgan holda, korrupsiyaning quyidagi asosiy belgilari ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Subyektiv tarkib – korrupsiya huquqbuzarliklarining subyekti sifatida asosan mansabdor shaxslar gavdalanadi.

2. Shaxsiy manfaatdorlik – korrupsiya huquqbuzarliklari fuqarolar yoki tashkilotlar tomonidan shaxsiy yoki guruh manfaatlari uchun noqonuniy ravishda boylik, imtiyoz yoki boshqa manfaatlar olish maqsadida sodir etiladi.

3. Xizmat mavqeidan foydalanish – davlat yoki jamoatchilik vakolatlariga ega shaxs o‘z mansab vakolatlarini suiiste’mol qilib, qonunga xilof ravishda moddiy yoki nomoddiy manfaatlar orttiradi.

4. Ikki tomonlama manfaatdorlik – korrupsiya ko‘pincha ikki tomon o‘rtasida kelishuv asosida amalga oshadi, ya’ni pora beruvchi va pora oluvchi ishtirok etadi, bu korrupsiyani boshqa huquqbuzarliklardan farqli jihati.

5. Jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazish – korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar davlat apparatiga, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. U davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiradi va fuqarolarning huquqiy tengligini buzadi.

6. Yashirinlik va maxfiylik – korrupsiya deyarli yashirin shaklda sodir etiladi, bu esa uning aniqlanishi va isbotlanishini qiyinlashtiradi.

7. Huquqiy normalarni buzish – korrupsiya bilan bog‘liq harakatlar milliy va xalqaro huquqiy me’yorlarga zid bo‘lib, ular uchun jinoiy, ma’muriy yoki intizomiy javobgarlik nazarda tutilgan.

B.V.Voljenkinning qarashlariga ko‘ra, korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarning belgilari quyidagilardan iborat:

1) mansab mavqeidan foydalanib, mulkni o‘zlashtirish yo‘li bilan talon-toroj qilish;

2) hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish;

3) poraxo‘rlik [17].

Biz ham yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo‘shilgan holda, korrupsiyaning belgilarini unga berilgan ta’riflardan kelib chiqib ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, ya’ni bu belgilarga:

maxsus subyektlar tomonidan sodir etilishi;

mansab vakolatiga ega bo‘lishi;

jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlariga zid ravishda sodir etilishi;

mansab vakolatlaridan shaxsiy ehtiyojlari uchun foydalanishi;

harakat yoki harakatsizlik orqali sodir etilishi;

latentligi;

muayyan manfaatni (moddiy yoki nomoddiy ko‘rinishdagi) ko‘zlab sodir etilishi kabilarni kiritishimiz mumkin.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, olimlar tomonidan hanuzgacha korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslar to‘g‘risida qat’iy belgilar mavjud emas. Zero, ushbu turdagi huquqqa xilof xatti-harakatlarni sodir etuvchilarga ham komplekslilik xususiyati xosdir. Shularni inobatga olgan holda O.V.Vannovskaya korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslar doirasini aniqlashtirish uchun besh muhim xususiyatga e’tibor qaratishni taklif etgan [18]:

1) ma’no va qadriyatlar darajasi (hayotiy maqsadlari, intilishlari, ma’no va qadriyat yo‘nalishlari);

2) kogniktiv-axloqiy darajasi (axloqiy o‘zini anglash, axloqiy xatti-harakatlarga munosabat, huquqiy ong, mas’uliyat hissi);

3) hissiy daraja (hayotdan qoniqish darajasi, kasbdan qoniqish darajasi, shaxsiy hayotdan mamnunlik, o‘zini o‘zi baholash darajasi);

4) tartibga solish darajasi (nazorat doirasi, qaror qabul qilish mexanizmi);

5) xulq-atvor darajasi (munosabatning yetakchilik darajasi).

Tadqiqot metodologiyasi / Methods

Ushbu tadqiqotda korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminologik xususiyatlari va ularning

profilaktikasi o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-tadqiqot metodlari qo‘llanilib, jinoyatchilikni o‘rganishda kriminologiya va jinoyat huquqi sohalaridagi zamonaviy yondashuvlar tatbiq etildi. Dialektik metod asosida korrupsiyaga oid jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va oqibatlari tizimli ravishda o‘rganilib, ularning dinamikasi tahlil qilindi. Qiyosiy-huquqiy metoddan foydalangan holda O‘zbekiston va xorijiy davlatlar qonunchiligidagi korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari tahlil qilindi. Kriminologik tahlil usuli yordamida sud hujjatlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ma’lumotlari asosida korrupsiya jinoyatlarining tendensiyalari va xususiyatlari o‘rganildi. Sotsiologik usullar orqali jamiyatda korrupsiya haqidagi jamoatchilik fikrini aniqlash maqsadida anketa so‘rovlari va ekspert intervyulari o‘tkazildi. Statistik metod yordamida korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha sud hujjatlari tahlil qilinib, dinamika va tuzilmaga doir tahlil o‘tkazildi. Shuningdek, kontent-tahlil usuli orqali ommaviy axborot vositalaridagi materiallar, normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar tadqiq qilindi.

Tahlil va natijalar / Results

Tadqiqot jarayonida korrupsiya bilan bog‘liq 516 ta jinoyat ishi materiallari o‘rganilib, mazkur ishlar bo‘yicha sudlar tomonidan hukm chiqarilgan 860 nafar shaxsning xususiyatlari tahlil qilindi.

Toshkent shahrida korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarning 77 foizi erkaklar, 23 foizi ayollar tomonidan sodir etilgan [19].

Demak, tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar asosan erkaklar tomonidan sodir etiladi.

Shu o‘rinda savol tug‘ilishi tabiiy, ayollar tomonidan mazkur turdagi jinoyatlarning sodir etilish ko‘rsatkichining pastligi nima bilan izohlanadi? Qator farazlar va amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida buning sababi quyidagilar degan fikrga kelindi:

mansab lavozimlarida asosan erkak jinsi vakillarining ko‘pligi;

ayollarda qonunni buzish moyilligining pastligi;

oilani boqish majburiyatiga ega emasligi;

oylik maoshining pastligi ayolning maqomiga salbiy ta’sir etmasligi.

Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyat sodir etganlarning ijtimoiy ahvoli o‘rganilganda ularning 87,3 foizini oilali, 6,4 foizini ajrashgan va 6.3 foizini bo‘ydoq yoki turmushga chiqmaganlar tashkil etadi. Ma’lumotiga ko‘ra, 64,3 foizi – oliy ma’lumotli (mansab lavozimi talabidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, tabiiy hol), 20,5 foizi – o‘rta-maxsus ma’lumotli va 15,2 foizi – o‘rta ma’lumotlilar tomonidan sodir etilgan.

Sudlanganlik holatiga ko‘ra, korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etganlarning 69 foizi muqaddam sudlanmagan shaxslar, bu ham ularning xizmat talablari bilan bog‘liq. Jinoyat sodir etganlarning 31 foizini muqaddam sudlanganlar tashkil etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, sudlanganlarning 49,5 foizi aynan muqaddam o‘zlashtirish va rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish jinoyati (JK 167-m.); 50,5 foizi mansabdorlik jinoyatlari bilan sudlangan [19].

Har bir jinoyatni kriminologiya nuqtayi nazaridan tahlil etishda jinoyatchining yoshini e’tiborga olish katta ahamiyatga ega. Chunki shaxsning yoshi va ijtimoiy-ruhiy holatini aniqlash orqali u sodir etishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning vaqtida oldini olish choralarini ko‘rish imkoniyati yuzaga keladi.

Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning yosh jihatdan tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda, ya’ni jinoyatlar asosan 36–40 yoshdagi shaxslar tomonidan sodir etilgan, ular jami jinoyat sodir etgan shaxslarning 21,5 foizini tashkil etadi.

E’tiborlisi, sodir etilgan jinoyatlarning 18,2 foizi 56 va undan yuqori yoshdagi shaxslar tomonidan sodir etilgan. Buni shu bilan izohlash mumkinki, ularning ko‘pchiligi bugungi kunda nafaqada, jinoyatlar esa, bir necha yillar ilgari, ular xizmat faoliyatini olib borgan davrlarida sodir etilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning eng to‘g‘ri va samarali yo‘li jamiyatda korrupsiyaning paydo bo‘lishiga imkoniyat yaratayotgan shart-sharoit va omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish hisoblanadi. Korrupsiyani vujudga keltiruvchi sabab va shart-sharoitlarni o‘rganish yo‘li bilangina uni kamaytirish va cheklash bo‘yicha muayyan chora-tadbirlarni belgilash va ishlab chiqish mumkin.

I.Ismailov korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarning determinantlarini shartli ravishda uch guruhga: iqtisodiy-ijtimoiy omillar; ma’naviy-ruhiy omillar; tashkiliy boshqaruv va huquqiy omillarga ajratgan [20]. Shuningdek, R.R.Gazimzyanov korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarning asosiy determinantlariga quyidagilarni kiritgan: huquqiy; tashkiliy-boshqaruv; tarbiyaviy; mafkuraviy; ijtimoiy-iqtisodiy; axloqiy-psixologik; ijtimoiy-siyosiy va boshqalar [21].

Boshqa bir guruh mualliflar korrupsiyaga yo‘l ochadigan omillar sirasiga hokimiyat organlari tizimining murakkabligi, buyruqbozlik taomillarining ko‘pligi, davlat hokimiyati organlari apparatining faoliyati ustidan tashqi va ichki nazoratning yo‘qligi kabi holatlarni kiritishgan. Tashkiliy tushunmovchiliklarni fuqarolarning korrupsion xulq-atvorini rag‘batlantirishdan farqlash ba’zan juda qiyin kechadi. Taqiqlar, ruxsat berish taomillari sonining haddan tashqari ko‘pligi, davlat hokimiyati organlari faoliyatiga jalb qilingan fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish mexanizmi va huquqiy asoslarining yo‘qligi ham korrupsiyaga yo‘l ochadi [22].

A.A.Zvyaginning aytishicha, mamlakatda mustaqil iqtisodiy faoliyat yurituvchi subyektlar xatti-harakatlari ustidan davlat boshqaruv organlari nazoratining ko‘pligi davlat xizmatchilariga o‘z manfaatlarini ko‘zlab mansabini suiiste’mol qilishi uchun sharoit yaratadi. Holbuki, bu fikr to‘g‘ri, chunki “iqtisodiyotni erkinlashtirish” va “xususiy sektorda davlat nazoratini qisqartirish” bozor iqtisodiyotining asosiy qonuniyatlaridan biri hisoblanadi [23].

Bundan tashqari, shaxsning psixologiyasi ham korrupsiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishiga imkon beruvchi omil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologlarning fikricha, jamiyatda korrupsiyaga xayrixoh psixologik muhitning mavjudligi ushbu hodisaning tarqalishi va uning darajasi ortishiga imkoniyat yaratadi [24].

K.I.Golovshinskiyning aytishicha, davlat boshqaruv organlarida “qonunosti aktlari”ni ishlab chiqish jarayonining to‘liq nazorat qilinmasligi natijasida amaldagi qonunchilikda korrupsiogen, ya’ni korrupsiyaga sharoit yaratuvchi huquqiy normalar shakllanadi. Natijada qonunchilikda noaniq va tushunish qiyin bo‘lgan huquqiy normalar va ko‘rsatmalar yuzaga kelishi mumkin, bu esa mansabdor shaxslar uchun fuqarolarni qo‘rqitish va pora olishga sharoit yaratadi [25].

Mazkur davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonidagi quyidagi ijtimoiy omillar korrupsiyaning sodir etilishiga imkoniyat yaratishi mumkin:

– davlat boshqaruv organlarida “ruxsat berish” tamoyiliga asoslangan mutlaq xizmat ko‘rsatish turining mavjudligi;

– fuqarolarning “davlat xizmati”dan foydalanish huquqlarini bilmasligi;

– davlat boshqaruv organlari mansabdor shaxslarning fuqarolarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha majburiyatlari haqida to‘liq ma’lumotga ega emasligi;

– davlat boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari tomonidan xizmat majburiyatlari va fuqarolar huquqlari haqidagi ma’lumotlarning sir tutilishi.

V.V.Merkurishinning fikricha, bugungi kunda korrupsiyaning sodir etilishiga imkon yaratayotgan asosiy shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

– davlat boshqaruv organlari ustidan jamoatchilik nazoratining sustligi;

– davlat boshqaruv organlarida byurokratik tuzumga xos salbiy illatlarning saqlanib qolishi;

– o‘tish davrida duch kelingan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning to‘liq hal qilinmay qolib ketishi [26].

Shuningdek, Sh.Qobilov va N.Abdullajonov korrupsiyaning sabablarini obyektiv va subyektiv omillarga bo‘lishadi. Bunga misol sifatida qonunchilikning nomukammalligi, demokratik prinsiplar va institutlarning rivojlanmaganligi, davlatning kuchsizligi [27] kabilarni keltirib o‘tishadi.

Jinoyatchilik, shu jumladan korrupsiya muammosiga doir maxsus kriminologik adabiyotlar tahlili korrupsiyani o‘zining tabiiy mahsuli sifatida belgilovchi sabablar va shart-sharoitlar (omillar)ning ayrim guruhlarini qayd etish imkonini beradi. Ijtimoiy hayot mazmuni yoki sohalariga ko‘ra bunday omillar qatoriga huquqiy, tashkiliy-boshqaruv, tarbiyaviy, mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sabablar va shart-sharoitlar kiradi [28]. Mazkur sabab va shart-sharoitlarni V.N.Kudryavsev va V.Ye.Eminov [29], M.S.Strelnikov [30], T.N.Timina [31], R.R.Gazimzyanov [21] ham o‘z tadqiqot ishlarida ilgari surib, ilmiy asoslab berishgan.

Xulosa va takliflar / Conclusions

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, davlat boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish hamda jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

Korrupsiyaga oid jinoyat sodir etgan shaxslarning davlat boshqaruviga qaytishini cheklash. Korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilgan shaxslarni va ularning yaqin qarindoshlarini mansab lavozimlariga tayinlamaslik amaliyotini joriy etish orqali davlat boshqaruvida halollik va ishonchni ta’minlash.

Mansabdor shaxslarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash. Mansab etikasini buzgan shaxslarga nisbatan javobgarlik choralarini kuchaytirish va davlat xizmatchilarining huquqlari hamda majburiyatlari tizimini ishlab chiqish.

Korrupsiya darajasini baholash va monitoring qilish. Har bir sohada korrupsiya holatlarini aniqlash, aholi orasida so‘rovlar o‘tkazish va har yili natijalarni jamoatchilikka e’lon qilish orqali ochiqlikni ta’minlash.

“Transparency International”ning analogini yaratish orqali mamlakatdagi korrupsiya holatlarini xolis baholash.

Ma’muriy-xo‘jalik organlarining shaffofligini ta’minlash. “OPEN” dasturini joriy etish orqali fuqarolarga mansabdor shaxslar bilan bog‘liq qaror qabul qilish jarayonlarini real vaqtda kuzatish imkoniyatini yaratish.

Fuqarolarga o‘z murojaatlarining holati, ijro uchun kim mas’ulligi va uning natijasi haqida tezkor ma’lumot olish imkonini yaratish.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining institutsional kuchaytirilishi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzilmasida “Etika bo‘yicha maslahatchi” lavozimini joriy etish orqali davlat xizmatchilarining manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik va Axloq kodeksiga rioya qilishini ta’minlash.

Ushbu takliflar korrupsiyaga qarshi tizimli chora-tadbirlarni joriy etish, davlat organlarida mas’uliyat va hisobdorlikni oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, aholining korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini shakllantirish orqali korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan. Bularning barchasi mamlakatda korrupsiyani kamaytirish va davlat boshqaruvida shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar / References

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish: Amaliy ishlarda hamkorlik zarur. https://parliament.gov.uz.
2. https://www.transparency.org/en/countries/uzbekistan
3. https://www.gazeta.uz/uz/2025/02/11/transparency-international
4. 4821-IV-son 10.09.2024. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma’ruzasi.
5. *Чезаре С.С.* Курс римского права: Учебник. – М.: Издательство «БЕК», 2002. – С. 28.
6. Юридик энциклопедия . – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 258.
7. *Кузнецова О.А.* Коррупционная деятельность: криминологический и уголовно-правовой аспекты: Автореф. дис. … канд. юрид. наук. –Тамбов, 2007. – С. 24.
8. Криминология: Учебник / Под ред. А.И. Долговой. – М.: ИНФРА-М, 1997. – С. 68.
9. Криминология: Учебник / Под ред. Н.Ф. Кузнецовой, Г.М. Миньковского. – М.: МГУ, 1994. – С.58.
10. *Abdurasulova Q., Qurbonov O.* Korrupsiya: Asosiy tushuncha va shakllari (risola). – T.: Falsafa va huquq instituti, 2009. – B. 60.
11. *Axrarov B.D.* Boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgarlik muammolari: Yurid. fan. d-ri. ... dis. – T., 2008. – B.143-146.
12. *Tojiboyev Q.* Mansab mavqeini suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zgalar mulkini talon-toroj qilganlik uchun javobgarlik. – T.: TDYUI, 2004. – B.13.
13. http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_82959/
14. https://kodeksy-by.com/ zakon_rb_o_borbe_s_korruptsiej.htm
15. http://miid.gov.kz/ru/pages/o-protivodeystvii-korrupcii
16. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasi // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 09.01.2017, 1-son, 2-m.
17. *Волженкин Б.В.* Коррупция и уголовный закон // Правоведение, 1991. – №6. – С.64.; Корыстные злоупотребления по службе (хищения, взяточничество, злоупотребление служебным положением, уголовно-правовая характеристика и проблемы квалификации: Автореф. дис.... д-ра юрид. наук. – М., 1991. – С.41.
18. *Ванновская О.В.* Личностные детерминанты коррупционного поведения // Журнал. Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена, 2009. – №102. – С.323– 324. // file:///c:\journal\n\
19. Jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudi tomonidan so‘rovnoma asosida taqdim etilgan sud hukmlari tahlili.
20. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasi: O‘quv qo‘llanma / I.Ismoilov, J.S.Muxtorov, S.B.Xo‘jaqulov; mas’ul muharrir prof. Q.R.Abdurasulova. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – B. 9.
21. *Газимзянов Р.Р.* Коррупционная преступность в Республике Татарстан на рубеже веков (криминологическое исследование). Автореф. дис. ...канд.юрид.наук. – Нижний Новгород, 2005. –С.32.
22. *Zufarov R.A., Axrarov B.J., Mirzayev U.M.* Korrupsiya. Qonun. Javobgarlik: Monografiya / Mas’ul muharrir: prof. M.X.Rustambayev. – T.: TDYUI nashriyoti, 2011. – B. 154.
23. *Звягин А.А.* Факторы роста коррупции и теневой экономики. Центр проблемного анализа и государственно-управленческого проектирования. – М., 2012. – С.34.
24. *Усманов А..А., Норбоев А.Н.* Юридическая психология. – Т.: ТГЮИ, 2006. – С. 29.
25. *Головщинский К.И.* Диагностика коррупциогенности законодательства. – М., 2005. – С. 25, 29.
26. *Меркуришин В.В.* Борьба с транснациональной преступностью. – М.: «Амалфея», 2003. – С.208.
27. *Qobilov Sh.R., Abdullajonov N.B.* Korrupsiya va xavfsizlik. – T., 2006. – 5 b.
28. *Алауханов Е.О., Турсынбаев Д.Е.* Борьба с коррупцией в государственных органах Республики Казахстан: Учебное пособие / Под ред. Е.О.Алауханова. – Алматы: КазАТК, 2008. – С. 182– 187.
29. *Кудрявцев В. Н., Эминов В. Е.* Криминология: Учебник 5-е издание – М., 2013. – С. 53.
30. *Стрельников М. С.* Детерминанты преступности коррупционной направленности // Молодой ученый. – 2016. – №14. – С. 472– 474. URL https://moluch.ru/archive/118/32831/ (дата обращения: 03.06.2019).
31. *Тимина Т. Н.* Факторы совершения преступлений коррупционной направленности // Криминология: вчера, сегодня, завтра. – 2011. – № 4. – С. 64–69.

NARKOKRIMINOLOGIYA KRIMINOLOGIYA FANINING MUSTAQIL ILMIY YO‘NALISHI SIFATIDA

To‘rayev Ilxomjon Esanovich

turaev-25@mail.ru

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, tibbiyot fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Исследовательский институт криминологии Республики Узбекистан, ведущий научный сотрудник, доктор философии по медицинским наукам

Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan leading research fellow, Doctor of Philosophy in Medical Sciences

To‘rayev Akmal Panjiyevich

turaevakmal@gmail.com

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodim-tadqiqotchisi

Исследовательский институт криминологии Республики Узбекистан, научный сотрудник-исследователь

Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan research fellow

Annotatsiya. *Maqolada narkokriminologiya kriminologiyaning mustaqil ilmiy yo‘nalish ekanligi yoritilib, asosiy e’tibor narkokriminologiyaning nazariy va amaliy ahamiyatiga qaratilgan. Giyohvandlik moddalari noqonuniy aylanishining oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar taklif qilingan.*

Kalit so‘zlar: *kriminologiya, narkokriminologiya, giyohvandlik moddalarining noqonuniy aylanishi, giyohvandlik, giyohvandlik jinoyatlarining oldini olish.*

НАРКОКРИМИНОЛОГИЯ КАК САМОСТОЯТЕЛЬНОЕ НАУЧНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ КРИМИНОЛОГИИ

Аннотация. *В статье наркокриминология освещена как самостоятельное научное направление криминологии. Основное внимание уделено теоретическому и практическому значению наркокриминологии. Предложен комплекс мер по предупреждению и противодействию незаконному обороту наркотических средств.*

Ключевые слова: *криминология, наркокриминология, незаконный оборот наркотических средств наркомания, предупреждение наркопреступлений.*

NARCOCRIMINOLOGY AS AN INDEPENDENT SCIENTIFIC BRANCH OF CRIMINOLOGY

Abstract: *This article introduces narcocriminology as an independent scientific branch of criminology. The primary focus is on the theoretical and practical significance of narcocriminology. A comprehensive set of measures for preventing and combating illicit drug trafficking has been proposed.*

Keywords: *criminology, narcocriminology, illicit drug trafficking, drug addiction, prevention of drug-related crimes.*

Kirish / Introduction

Kishilik jamiyati taraqqiyotida jinoyatchilikka qarshi kurash masalasi har doim dolzarb bo‘lib kelgan, insoniyat esa bu muammoni yechish uchun choralar izlagan, ilmiy izlanishlar olib borgan. Ana shunday izlanishlar natijasi o‘laroq yaratilgan kriminologiya ilmi bu borada jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, ularning oldini olish usullari va jinoyatchilikni kamaytirish yo‘llarini o‘rganadigan mustaqil fan sifatida shakllandi. Bugungi kunga kelib, ko‘plab yangi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan kriminologiya kompleks fan sifatida nafaqat huquqshunoslik, balki psixologiya, sotsiologiya, biologiya va boshqa fanlarning yutuqlaridan ham keng foydalangan holda rivojlanib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili / Literature Review

Kriminologiya fanining rivojlanishiga xorijlik Ch. Lombrozo, R. Garofalo, J. Pinatel, R. Klark, E. Ferri, E. Shur, mustaqil davlatlar hamdo‘stligi va o‘zbek olimlaridan G.A. Avanesov, A.I. Alekseev, B.A. Ahmedov, Yu.M. Antonyan, M.M. Babayev, N.I. Vetrov, B.V. Voljenkin, A.I. Gurov, A.I. Dolgova, S.M. Inshakov, D.A. Koreskiy, I.I. Karpes, N.F. Kuznetsova, S.Ya. Lebedev, V.V. Luneev, Ye.P. Pobegailo, O.V. Starkov, V.S. Ustinov, D.A. Shestakov, V.E. Eminov, Yu.D. Bluvshteyn, A.E. Jalinskiy, A.B. Saxarov, Z.S. Zaripov, I. Ismailov, Q.R. Abdurasulova, Yu.S. Pulatov, X. Sulaymonova, I.Yu. Fozilov va boshqalar katta hissa qo‘shdilar.

Kriminologiya jinoyatlar profilaktikasini jinoyatchilikka qarshi kurashning eng samarali, insonparvar, kam mablag‘ talab qiladigan yo‘nalishi sifatida o‘rganadi. Jinoyatlar profilaktikasi kriminologiya o‘rganadigan boshqa barcha masalalarni muayyan ma’noda o‘zida aks ettiradi. Ayni vaqtda, shuni e’tiborga olish kerakki, jinoyatlar profilaktikasi boshqa huquqiy fanlar, masalan, jinoyat huquqi, jinoyat-ijroiya huquqi tomonidan ham o‘rganiladi. Lekin bu fanlar, kriminologiyadan farqli o‘laroq, jinoyatchilikka qarshi kurashning boshqa chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Kriminologiya ko‘rsatib o‘tilgan huquqiy fanlardan farq qilgan holda, jinoyatchilikka qarshi kurash va uning profilaktikasini nafaqat huquqiy, balki mazmunan boshqa tarzdagi ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy, tarbiyaviy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa vositalarini ham ishlab chiqishda qatnashadi [1].

Yuqorida ta’kidlanganidek, nafaqat kriminologiya boshqa fanlarning yutuqlaridan foydalanadi, o‘z navbatida, boshqa fanlar ham o‘z tadqiqot predmetini chuqurroq tahlil qilishda kriminologiyaning yutuqlarini qo‘llaydi. Xususan, kriminologiya jinoyat qonunchiligini jinoyatchilik darajasi, uning tuzilishi, dinamikasi, profilaktika tadbirlarining samaradorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan ta’minlaydi, jinoyatchilikdagi o‘zgarishlarni bashorat qiladi [3]. Bu qilmishlarni dekriminallashtirish, shuningdek, jinoyat sodir etganlik uchun jazo choralarini ko‘rish nuqtayi nazaridan qonun ijodkorlik funksiyalarini o‘z vaqtida amalga oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, kriminologiya jinoyatga oid siyosatning strategiyasi va taktikasini belgilaydi, jamiyatning izchil va uyg‘un rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi noto‘g‘ri o‘ylangan qonunlar qabul qilinishiga va mulkiy manfaatlar qo‘llab-quvvatlanishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Kriminologiyada yuvenologiya, kriminoteologiya, terrologiya, kriminofamilistika, jinoiy armologiya, ekokriminologiya, kriminopenologiya, arxitektura kriminologiyasi, krimino-

seksologiya, kriminoyustitsiologiya va boshqa shu kabi ilmiy sohalarga katta ahamiyat beriladi [4].

Bugungi kunda zamonaviy kriminologiya bir nechta mustaqil yo‘nalishlarga bo‘linadi, jumladan:

jinoyatchilik sotsiologiyasi – jinoyatchilikning ijtimoiy sabablarini, ijtimoiy guruhlar va jamiyat tuzilmalari bilan bog‘liqligini o‘rganadi;

jinoyatchi psixologiyasi – jinoyat sodir etuvchi shaxsning psixologik xususiyatlari, ruhiy holati va motivatsiyasini tahlil qiladi;

viktimologiya – jinoyat qurbonlari (viktimlar)ning xususiyatlari, jinoyatga uchrash sabablari va ularni himoya qilish choralarini o‘rganadi;

penologiya – jazo choralarining samaradorligi, jazoni ijro etish tizimi va uni takomillashtirish usullarini tahlil qiladi;

kiberkriminologiya – kiberhujumlar, onlayn firibgarlik, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash kabi jinoyatlarning sabablari va ularning oldini olish choralarini o‘rganadi;

ekologik kriminologiya – jinoyatchilikning shahar muhiti, demografik o‘zgarishlar va atrof-muhit faktorlari bilan bog‘liqligini o‘rganuvchi yo‘nalish.

Ammo jamiyat taraqqiy etgan sari jinoyatlar yangi tur va sifat ko‘rinishlarida *(axborot texnologiyalar sohasidagi jinoyatlar, internet-firibgarlik, korxona va tashkilotlarni reyder xatlash, jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish usullari va boshqalar)* namoyon bo‘lmoqda.

Bunday vaziyatda milliy kriminologiya fanini rivojlantirish, jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish birinchi galdagi vazifa sifatida maydonga chiqadi.

Zamonaviy kriminologiyaning rivojlanishi (sotsiologiya, psixologiya, jinoyat huquqi, kriminologiya bilimlarini birlashtirish) integratsiya jarayonlari va differensiallash (yangi bilim sohalarini aniqlash) bilan tavsiflanadi [5]. Misol tariqasida harbiy kriminologiya (kriminomilitarologiya), shuningdek, tanqidiy, boshqaruv, mintaqaviy, pedagogik kriminologiyani keltirish mumkin. Dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar natijasida etnokriminologiya, kriminoglobalistika, narkokriminologiya, ommaviy kommunikatsiyalar kriminologiyasi kabi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi [6].

Maxsus kriminologik nazariya kriminologiya va boshqa fanlar chorrahasida yoki kriminologiyaning alohida ilmiy yo‘nalishlari rivojlanishi natijasida vujudga keladi. Shunday qilib, jinoyatchilikning iqtisodiy determinantlarini o‘rganish iqtisodiy kriminologiyaning, ayollar jinoyatchiligi – gender kriminologiyaning, turli davlatlardagi jinoyatchilikni o‘rganish qiyosiy kriminologiyaning paydo bo‘lishiga olib keldi [7].

Tadqiqot metodologiyasi / Methods

Tadqiqot davomida funksional yondashuv, mantiqiylik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, statistik, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan holda narkokriminologiyaning kriminologiya fanining mustaqil yo‘nalishi sifatida shakllanishi, tushunchasi, predmeti va vazifalari tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar / Results

XX asrning oxirlarida dunyo miqyosida giyohvandlikning jadal sur’atlarda tarqalishi aholi o‘rtasida giyohvandlikning oldini olish bo‘yicha hukumat darajasida chora-tadbirlar qabul qilishni taqozo etdi va bu giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlarni o‘rganish maqsadida mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida narkokriminologiyaning paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi.

Bu g‘ayriijtimoiy hodisaga qarshi kurashning muhimligini tasavvur qilish uchun quyidagi ikki omilni ko‘rsatib o‘tish kifoya deb o‘ylaymiz. Rasmiy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, ijtimoiy xavfli qilmishlar umumiy tarkibida giyohvandlik jinoyatchiligi taxminan 15 foizni tashkil etadi. Holbuki, giyohvandlik hamda giyohvandlik moddalari bilan g‘ayriqonuniy muomalada bo‘lish o‘ta yashirin jinoyatlar qatoriga kiradi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda va butun dunyoda narkojinoyatchilikning o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Ikkinchidan, ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlik moddalarini iste’mol qiluvchilarning uchdan ikki qismidan ko‘prog‘ini 30 yoshga to‘lmagan yoshlar tashkil etadi. Vaholanki, aholining bu toifasi ijtimoiy taraqqiyotni belgilovchi ishlab chiqarish kuchlarining o‘zagi hisoblanadi. Bunda yana bir muhim holatni hisobga olish lozim, ya’ni ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning tubdan o‘zgarishi, yangi xalqaro munosabatlar va umumiy aloqalar rivojlanishi munosabati bilan mamlakatimiz Sharqdan G‘arbga, Janubdan Shimolga giyohvandlik vositalari olib o‘tiladigan o‘ziga xos “tranzit yo‘lagi”ga aylangan. Bu hamda bu yerda qayd etilmagan boshqa omillar giyohvandlik vositalarining tarqalishi va iste’mol qilinishiga qarshi kurash borasidagi oldingi yondashuvlarni jiddiy qayta ko‘rish zarurligidan dalolat beradi [2; 9–10-b].

Aholining sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazadigan, jamiyat uchun xavfli illatlardan biri hisoblangan giyohvandlik vositalari muammosi so‘nggi yillarda nafaqat respublikamiz, balki butun dunyo jamoatchiligini ham tashvishga solmoqda [8; 3-b].

Eng achinarli jihati shundaki, respublikamizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog‘liq sodir etilgan jinoyatlarning 22–25 foizi yoshlar (30 yoshgacha) tomonidan sodir etilmoqda.

Yoshlar orasida “Tropikamid”, “Pregabalin” (“Lirika”, “Regapen” va “Lipre”), “Zaleplon” (“Selofen”) kabi kuchli ta’sir qiluvchi preparatlar va tarkibida giyohvandlik vositasi bo‘lgan “Tramadol” dori vositalari keng tarqalgan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, so‘nggi vaqtlarda onlayn platformalar giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy savdosi uchun qulay axborot maydoniga aylanib bormoqda.

Internet makonida giyohvandlik vositalari va psixoaktiv moddalar savdosiga ixtisoslashgan 52 ta axborot manbai aniqlangan. Ularning 14 tasi veb-saytlarda, 38 tasi esa telegram messenjeri orqali faoliyat yuritgan, umumiy auditoriyasi 119 671 nafar foydalanuvchini tashkil etgan [9].

Giyohvandlik vositalarini iste’mol qilish inson kamolotiga, imon-e’tiqodiga xavf solishi bilan birga, mustaqil mamlakatimiz rivojlanishi va taraqqiyotiga ham o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Dinimiz ta’limotida ham inson hayoti, sog‘lig‘iga zarar beradigan, aql-hushini karaxt qiladigan har qanday modda, u qanday ko‘rinishda bo‘lishidan qat’i nazar, zararli deb hisoblanadi.

Alloh taolo bu haqda barchalarimizni ogohlantirib, aytadi: *“...O‘z qo‘llaringiz bilan o‘zlaringizni halokatga tashlamangiz!”, “O‘zingizni o‘zingiz o‘ldirmang. Albatta, Alloh sizlarga rahmlidir”.*

Shu o‘rinda aytish kerakki, giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish dunyo miqyosida terrorizm, odam savdosi singari global jinoiy qilmishlardan biri sanaladi. BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasining ma’lumotlariga ko‘ra, butun dunyoda 246 mln. nafarga yaqin odam giyohvandlik vositalarini iste’mol qiladi. Ulardan 27 mln.ga yaqini “muammoli” iste’molchilar, ya’ni giyohvandlar bo‘lib, ushbu vositalarga mustahkam tobelik yoki boshqa biror narkologik patologiyalar shakllangan shaxslardir. Jumladan, ularning yarmi giyohvandlik vositalarini inyeksiya orqali qabul qiluvchilar, 1,65 mln.ga yaqini esa OITSga chalingan shaxslardir. Giyohvandlik vositalari suiiste’moli bilan bog‘liq o‘limlar soni yiliga 187 mingdan ziyodni tashkil qilmoqda.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, jinoiy guruhlarning narkobiznes savdosidan olayotgan daromadlari yiliga 400 milliard dollarni tashkil etmoqda. Eng yomoni, giyohvandlik balosiga chalingan kimsalar tomonidan og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etilayotir.

Shuningdek, oxirgi yillarda qator mamlakatlarda, shu jumladan yaqin xorijda narkotik moddalarning yangi sintetik turlari – kannabinoidlar, fenitilamin va sintetik katinonlar keng tarqalib,

ularni qabul qilish asosan 20 yoshgacha bo‘lgan yoshlar orasida sodir bo‘layotgani xavotirli holatdir. Bunday giyohvandlik vositalarni tarqatish asosan internet resurslari orqali amalga oshirilishi “mahsulotni” oson reklama qilish va huquq-tartibot idoralarining e’tiboridan chetda qolish imkonini yaratadi.

O‘zbekistonda giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish va uning oldini olishga qaratilgan normativ-huquqiy baza yaratilgan. Jumladan, “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan.

Mamlakatimiz tomonidan BMTning “Giyohvandlik vositalari to‘g‘risida”gi, “Psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi hamda “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish bo‘yicha” konvensiyalari ratifikatsiya qilingan. O‘zbekiston mazkur xalqaro shartnomalar orqali zimmasiga olgan majburiyatlarini to‘liq bajarib kelmoqda.

Giyohvandlikning oldini olish, narkotik vositalar noqonuniy aylanishi ustidan nazorat olib borish bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yig‘ish va shakllantirish maqsadida 1996-yil mamlakatimiz Hukumati huzurida Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazi tashkil etilgan.

Ammo, ko‘rilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, 2024-yilda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va kuchli ta’sir qiluvchi dori vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq 12 278 ta jinoyat aniqlangan bo‘lib, mazkur jinoyatlarning 67,3 foizi Toshkent shahri, Farg‘ona va Toshkent viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Hisobga olingan har o‘ninchi, shuningdek aniqlanadigan har ikkinchi jinoyat giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatdir.

Tezkor-profilaktik tadbirlar natijasida 2 tn 138 kg 233 gr giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar noqonuniy muomaladan olingan. 15 084 metr kvadrat maydonda noqonuniy yetishtirilgan giyohvandlik o‘simliklari yo‘q qilingan.

2024-yilda giyohvandlik bilan bog‘liq qayd etilgan jinoyatlarning 94,2 foizi ochilgan, qidiruvdagi shaxslarning 53,2 foizi ushlangan.

Boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda o‘tkazilgan 772 ta tadbir davomida jami 567,4 kg miqdordagi giyohvandlik vositalari olindi [10].

Yuqoridagi ma’lumotlar tahlili narkokriminologiyani kriminologiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida yanada chuqurroq o‘rganish va uning yutuqlaridan amaliyotda foydalanish zarurligini ko‘rsatmoqda. Zero, kriminologiya umumiy jinoyatchilikni tahlil qilsa, narkokriminologiya esa aynan narkotiklar bilan bog‘liq jinoyatlarni tadqiq etadi, narkojinoyatchilikka qarshi samarali kurashish usullari ishlab chiqadi.

Narkokriminologiyaning predmetiga giyohvandlik jinoyatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hamda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste’mol qiluvchi shaxs shaxsiyati o‘rganish, giyohvandlik omillarini aniqlash, hozirgi zamonda giyohvandlik vositalari noqonuniy aylanishining oldini olish va unga qarshi kurashish masalalari kiradi.

Jahon amaliyotida aholi o‘rtasida giyohvandlik jarayonlariga nisbatan ijtimoiy nazorat modellarining uchta asosiy omili mavjud: ***repressiv*** (jamiyatdagi ushbu ijtimoiy salbiy hodisani to‘liq taqiqlash va yo‘q qilish), ***liberal*** giyohvandlik vositalariga nisbatan tolerant munosabat), ***restriktiv*** (taqiqlovchi-cheklovchi).

Ko‘pgina Yevropa davlatlari restriktiv, ya’ni cheklovchi siyosatga amal qiladi va O‘zbekiston Respublikasi uchun ham eng istiqbolli hisoblanadi. Uning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi:

– giyohvandlik moddalarni iste’mol qiluvchilar jamiyat uchun haqiqiy ijtimoiy xavf tug‘diradi;

– ularga nisbatan profilaktik va davlat majburlovi xarakteridagi mutanosib choralar qo‘llanilishi kerak;

– bu kasallikni erta bosqichlar (ta’lim muassasalarida va mehnat jamoalarida narkotik dori vositalarini qabul qilish bo‘yicha sinovlar)da aniqlash;

– aholining giyohvandlikni davolashning zamonaviy usullaridan foydalanishini ta’minlash;

– davolangan shaxsning normal yashash sharoitlariga moslashishi.

Narkokriminologiya umumiy va maxsus qismlardan iborat. Umumiy qism giyohvandlik jinoyatlarining holati, darajasi, dinamikasi, tarqalishi, tuzilishi, giyohvandlikning sabab va sharoitlari, noqonuniy harakatlar sodir etgan jinoyatchi shaxsiga taalluqli bilimlardan iborat bo‘lsa, maxsus qismda giyohvandlik moddalarining noqonuniy aylanishi bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olishning o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi. Giyohvandlik va boshqa ijtimoiy salbiy hodisalar (fohishalik, sargardonlik, o‘z joniga qasd qilish va boshqalar) o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganiladi.

R. Klark narkokriminologiya “narkotik moddalarni iste’mol qilish va u bilan bog‘liq jinoyatlarning ijtimoiy hayotga va qonunchilikka ta’sirini tadqiq etadi”, deb hisoblaydi. Uning fikriga ko‘ra, narkokriminologiya nafaqat narkotik moddalar bilan bog‘liq jinoyatlar, balki uning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’sirini ham o‘rganishni qamrab oladi.

E.Ferri narkokriminologiya “narkotiklar bilan bog‘liq jinoyatlarning sabablarini, rivojlanishini va ularga qarshi kurashish strategiyalarini o‘rganadi”, deya e’tirof etadi.

R. Beykerning fikricha, narkokriminologiyaning vazifasi narkotiklar bilan bog‘liq jinoyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilishdir.

Yuqorida nomlari keltirilgan mualliflar o‘z tadqiqotlarida giyohvandlik bilan bog‘liq ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy omillarni chuqur tahlil qilishgan.

Narkokriminologiyaning nazariy asoslari jamiyatshunoslik, psixologiya, biologiya va huquq kabi ko‘plab sohalarni o‘z ichiga oladi. Bu nazariyalar narkotik vositalarning jinoyatchilikka, ijtimoiy munosabatlarga va inson hayotiga ta’sirini tushunishga yordam beradi. Narkotiklar bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish uchun nazariy tushunchalar jamiyatning profilaktik siyosati, huquqiy siyosat, yoshlar bilan ishlash va ijtimoiy muhitni yaxshilashga qaratilgan amaliy choralar bilan birgalikda ishlatilishi kerak.

Ko‘plab olimlarning ilmiy nazariy xulosalari hamda tadqiqotlarimiz natijasi asosida quyidagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi:

“Narkokriminologiya — narkotik moddalarning noqonuniy muomalasi va unga bog‘liq jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy oqibatlarini hamda ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini tizimli o‘rganuvchi kriminologiya fanining alohida yo‘nalishi. U giyohvandlik vositalari iste’molining sabablari, oqibatlari va ularning jamiyatga ta’siri, shuningdek, giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish, noqonuniy savdosi, tarqatish va iste’mol qilish bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish usullarini o‘rganadi.

Giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar va ularga qarshi kurashish samaradorligi kriminologiyada muhim ilmiy tadqiqot mavzu hisoblanadi.

Nazarimizda, narkokriminologiyaning asosiy vazifalarini quyidagi 4 ta guruhga bo‘lish maqsadga muvofiq:

1. Giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlarning sabablarini o‘rganish, ya’ni giyohvandlik moddalari noqonuniy savdosi va ishlatilishining ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillarini aniqlash.

2. Giyohvandlikning jinoyatchilikka ta’sirini tahlil qilish, ya’ni giyohvandlik moddalarining ishlatilishi va noqonuniy savdosi jinoyatchilikning tarkibi va ko‘rinishlariga qanday ta’sir qilishini o‘rganish.

3. Qonunlar va qonunga zid harakatlarning tadqiqotini o‘tkazish, ya’ni giyohvandlik moddalari tarqalishining oldini olishga qaratilgan qonunchilik choralarini o‘rganish va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish.

4. Giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashish strategiyalarini ishlab chiqish, ya’ni jinoyatlarni kamaytirish va giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatchilikka qarshi kurashishda samarali takliflarni ishlab chiqish.

Narkokriminologiyaning asosiy maqsadi narkotik moddalar bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish, ularning salbiy ijtimoiy ta’sirlarini kamaytirish va jamoat xavfsizligini ta’minlashdan iborat. Bu soha, shuningdek, giyohvandlikka qarshi kurashda ilmiy yondashuvlarni taklif etadi, ularning samaradorligini tahlil qiladi va yangi reabilitatsiya usullarini ishlab chiqadi.

Xulosa va takliflar / Conclusions

Yuqoridagi tahlillar hamda bugungi kunda amaliyotda giyohvandik bilan bog‘liq holatlarni inobatga olgan holda, **O‘zbekiston Respublikasining giyohvandlikka qarshi kurash siyosatining ustuvor yo‘nalishlari** sifatida quyidagilarni taklif qilamiz:

1) narkotik vositalarga talabni bosqichma-bosqich qisqartirish, giyohvandlikdan davolangan shaxslarni reabilitatsiya qilish va narkologik yordam ko‘rsatish faoliyatni takomillashtirish hamda giyohvandlikning oldini olish, qarshi kurashish, barvaqt tashxislash, davolash va reabilitatsiya qilish kabi dolzarb masalalar yuzasidan huquqni muhofaza qilish organlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan har yili amaliy tadqiqotlar tanlovini tashkil qilish va o‘tkazish;

2) Respublika miqyosida giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq vaziyat bo‘yicha monitoringi o‘tkazish, ushbu illat bilan bog‘liq jinoyatlar eng yuqori va eng kam ulushga ega hududlarni aniqlash. Bunda, hududlarda giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlarning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni o‘rganish va tahlil qilish, “ilmiy diagnoz” asosida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash, ularning oldini olish, kriminogen vaziyati yuqori bo‘lgan hududlar xususiyatidan kelib chiqqan holda maqsadli profilaktik chora-tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish;

3) respublikaga yaqin va uzoq xorij mamlakatlaridan narkotiklarning kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaslik. Bunda:

– xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, giyohvandlikning tarqalishini oldini olish va unga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha xorijiy huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar bilan tajriba almashish.

– SHHT doirasida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasida jinoiy javobgarlikni belgilashda ularning miqdorlariga oid davlatlar qonunchiligini unifikatsiyalash;

– SHHT tarkibidagi giyohvandlik vositalariga qarshi kurashish xizmatlari vakolatlarini kengaytirish orqali ularning mavqeini oshirish;

– Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ular prekursorlarining qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishiga qarshi kurashish bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazining onlayn platformasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga oid tezkor, statistik, ilmiy-uslubiy ma’lumotlarni o‘z vaqtida kiritish mexanizmlarini ishlab chiqish;

4) narkotik dori vositalarining legal sohadan (tibbiyot, farmatsevtika faoliyati) noqonuniy aylanishiga yo‘l qo‘ymaslik: Bunda, tarkibida giyohvandlik vositalari va kuchli ta’sir qiluvchi dorilarning chakana savdosini amalga oshiruvchi dorixonalar va tibbiyot muassasalari o‘rtasida **“retsept”**larni almashishga mo‘ljallangan yagona platforma yaratish va dori-vositalari realizatsiyasi faqat ushbu platforma orqali amalga oshirilishini qat’iy nazorat qilish;

5) professional va uyushgan jinoyatchilik, xalqaro narkobiznes, korrupsiya va giyohvandlik lobbisiga qarshi kurash;

6) aholi o‘rtasida giyohvandlik darajasini pasaytirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

7) giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar, kuchli ta’sir qiluvchi dori vositalarining noqonuniy savdosini tashkil qilgan Internet akkauntlarini aniqlash va bloklash, olib tashlash yoki o‘chirishning tashkiliy asoslarini takomillashtirish. Bunda:

– O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi va Internet ijtimoiy tarmoqlar bosh ofislari *(Telegramm, Youtube, Facebook, Instagram, Tik-Tok)* o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

– O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo‘yicha markazi tomonidan resurslarni qisqa muddatlarda bloklash yuzasidan ijtimoiy tarmoq bosh ofislari *(Telegram, Youtube, Facebook, Instagram, Tik-Tok)* bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri onlayn aloqa qilish amaliyotini kengaytirish.

8) giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishda aholining ogohligi va huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorligini yanada oshirish. Bunda:

– aholi, ayniqsa ota-onalar va ta’lim muassasalari xodimlarini giyohvandlik vositalari va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar, ular ta’siriga tushgan shaxs belgilari va profilaktik chora-tadbirlar yuzasidan xabardorligini oshirish;

– giyohvandlik va narkojinoyatlar haqida anonim xabar berishga mo‘ljallangan mobil ilovalarni yaratish *(Masalan, AQSHdagi DEA Tip411 va Anonymous Alerts ishlab chiqilgan);*

– xabar bergan fuqarolarni moddiy rag‘batlantirish mexanizmini ishlab chiqish:

9) giyohvandlik ta’siriga ega bo‘lgan yangi turdagi psixofaol moddalar muomalaga kirishining oldini olish va ularga chek qo‘yish;

10) giyohvandlikka qarshi kurash bo‘yicha qonunchilikni va uni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish, profilaktika va majburlov ta’sir choralarini maqbul tarzda uyg‘unlashtirish;

11) giyohvandlikka qarshi zamonaviy standartlar joriy etish, giyohvandlikka qarshi ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish;

12) ta’lim, madaniyat, sport, ko‘ngilochar muassasalar tizimini rivojlantirish, yoshlarni iqtisodiyotning ijtimoiy foydali sohasida bandligini ta’minlash, giyohvandlikka qarshi tashviqot ishlarini jadallashtirish. Bunda:

giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etilishini kamaytirish va barvaqt oldini olish borasida videoroliklar yaratish va ularni OAVlari orqali doimiy ravishda namoyish etish;

har chorakda kamida bir marotaba giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar bilan yakka tartibda profilaktik ishlarni olib borish maqsadida mahallalar kesimida ro‘yxatlarini shakllantirib, ularni sog‘lom turmush tarziga qaytarish uchun mutasaddi idora (tuman hokimi o‘rinbosarlari, bandlikka ko‘maklashish markazi va h.k.) vakillaridan iborat ishchi guruh tarkibida “Xavfsiz xonadon” maxsus profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

13) huquqni muhofaza qiluvchi organlarning axborot bilan ta’minlash, mavjud ma’lumotlarni tizimlashtirish va o‘zaro axborot almashinuvini ta’minlashga qaratilgan Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazida giyohvandlikka qarshi kurashish hamkorlik portali va maxsus ma’lumotlar bazasini yaratish.

Foydalanilgan manbalar / References

1. Kriminologiya fanining shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi holati: O‘quv qo‘llanma / I. Ismailov, Q. R. Abdurasulova, I. Yu. Fazilov. — T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 57-b.
2. Kriminologiya: Darslik / Q.R. Abdurasulova, A.G. Zakirova, I. Ismailov va boshq. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 354 b.
3. Старков О.В. Криминология: Общая, Особенная и Специальные части: Учебник. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2012. – 1048 с.
4. Криминология: Учебник / Под ред. Н.Ф. Кузнецовой, В.В. Лунеева. – М.: Волтерс Клувер, 2005. – 640 с.
5. Антонян Ю.М. Криминология. Избранные лекции. – М.: Логос, 2004. – 448 с.
6. Лунеев В.В. Курс мировой и российской криминологии: Учебник. Т. 1. Общая часть. – М.: Юрайт, 2011. – 1003 с.
7. Клейменов М.П. Криминология: Учебник. – М.: Норма, 2011. – 448 с.
8. Otajonov A.A. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar: O‘quv qo‘llanma. – T., 2013. – B. 3.
9. Yoshlar o‘rtasida giyohvandlik va psixotrop moddalar iste’molining oldini olishga qaratilgan jamoatchilik eshituvi (28.11.2024.)
10. Jinoyatchilik omillari davlat hisoboti (2024-yil).

THE IMPACT OF DIFFERENT CRISES ON VICTIMS OF DOMESTIC VIOLENCE

Prof. Dr. Andrea Domokos

domokos.andrea@kre.hu

Head of the Department of the Institute of Criminal Sciences of the Karoli Gaspar University of the Reformed Church, Professor (Hungary)

Vengriya Islohot cherkovi Karoli Gaspar Universitetining Jinoiy fanlar instituti departament rahbari, professor (Vengriya)

Заведующий кафедрой Института криминалистики Университета им. Кароля Гашпара Венгерской реформатской церкви, профессор (Венгрия)

TURLI INQIROZLARNING OILADAGI ZO'RAVONLIK QURBONLARIGA TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ КРИЗИСОВ НА ЖЕРТВ ДОМАШНЕГО НАСИЛИЯ

What is domestic violence, what is partner abuse? In a partnership, in a family, relations are not necessarily equal. People can keep their partner or family in psychological, physical, sexual and economic dependence and abuse their position. This person abuses the victim(s) verbally, physically and in other ways. There was a widespread belief that the head of the family was entitled to control the rest of the family even by force. Worldwide and in Hungary it was refused to explore, investigate and interfere with what happened within the family. The NGO-s contributed big time to the recent legal changes. This led to international conventions. One of these conventions is the Istanbul Convention. Even the European Union joined it in 2023. The directive proposal by the European Commission considers violence against women and domestic violence a criminal law issue and a serious violation of human rights. Although the proposal focuses on women, the European Commission of Human Rights acknowledges that men and children can also become victims of domestic violence.

It is important to consider the victims' dependence and the perpetrators' desire for control and possession during criminal proceedings. Reducing latency can be possible by building trust with the victims. When victims of violence feel that they are receiving special protection, they are more likely to trust society and the authorities. To aid those affected by such violence, it is essential to offer them access to shelters, phone hotlines, and medical and legal aid.

The situation of victims of domestic violence and partner abuse becomes even more serious in crisis situations. There have been and are ongoing conflicts in the world, which have been scrutinised by economists, sociologists, criminologists, health professionals and lawyers alike in recent years. The latest related research worldwide provides a lot of important new information that can help prepare for the problem and provide professionally competent answers.

It is clear from the processed literature that the individual forms of violence are connected in crisis situations and pose an even greater danger. Violence at the macro level, such as war, also increases violent conflict at the micro level. The crises caused by the fear of COVID, the lockdown,

war conflicts, hunger, and the climate disaster spill over into family homes and make the victims of domestic violence and partner abuse even more vulnerable. Most of the processed materials analyse research born after COVID. The COVID–19 epidemic also provided many lessons regarding the management and prevention of the economic effects of future natural disasters and the associated increased domestic violence.

Introduction / Kirish

In Hungary during the last decades all the violent conflicts that were taking place in other parts of the world, seemed distant, we felt that they were not dangerous for us, that they could not apply to us. This idyllic state of affairs was first questioned by the COVID panic, immediately followed by Russian-Ukrainen conflict. We need to explore conflict zones outside Europe and prepare to live with conflicts that will drastically change our lives. The need to find solutions to criminal threats in crisis situations has already been suggested [2]. The COVID epidemic and war conflicts all teach us that international preparedness and action is essential in crises that cross national borders [3]. The potential consequences of environmental scarcity must also be prepared for at the international level. The problem of migration is also a constant source of tensions, generating strong ethnic divisions and social and cultural conflicts. Global environmental problems can lead to gang wars within countries and tensions between states, even escalating into war [1].

Health crisis, economic vulnerability and domestic violence

Both domestic violence and violence against women are systemic, cross-border violations of fundamental rights and serious crimes that must be prevented and prosecuted [URL1]. COVID–19 has exacerbated the problem of domestic violence. Violence has intensified and/or become more serious in this crisis situation [URL2].

There has been a large amount of research and publications on conflicts caused by mental and economic stress. The European Parliament has also addressed the question of the extent to which the COVID–19 epidemic has affected different members of society, to what extent they have become multiple victims. The pandemic has exacerbated structural gender inequalities, particularly for girls and women from disadvantaged groups. Neither the EU nor the Member States were prepared for the global crisis and the economic and social impossibility that followed. The resolution states that the Member States have failed to tackle violence against women and girls. Neither in their emergency response plans, nor in their preparations for future global crises, have they included plans for measures to prevent violence against women. They therefore call on Member States to set up safe and flexible emergency alert systems to help support services work in a coordinated way. The resolution also calls on member states to share national legislation and best practices on dealing with relationship violence. In the framework of the 'Next Generation EU', Member States are called upon to take measures to restore social, economic and gender equality for women who were disadvantaged during the COVID–19 epidemic. These actions are particularly relevant in the areas of employment and gender-based violence [URL3].

There have been papers in economics and sociology that have explored the relationship between the COVID–19 epidemic and the conflict situations that followed. From December 2019 to July 2023, the virus infected 692 million people worldwide, resulting in 6.9 million deaths. The studies made it clear that during the epidemic, people had to cope with increasing mental health problems and economic hardship. During the epidemic, inequality increased, and health and social systems collapsed. Studies have shown that these challenges have led to more conflict at both the individual and societal levels [6].

Following the COVID–19 epidemic, online violence against women and intimate partner violence have also become increasingly common [URL4]. According to the data from the World Health Organization (WHO), by 2021, one in three women worldwide will have been a victim of physical or sexual violence by a partner or another person at least once in their lifetime [URL5].

The WHO responded quickly to the violence caused by COVID–19, developing a global strategy to prevent violence against women and children. According to the WHO, more attention needs to be paid to vulnerable groups of women, including women with disabilities, who are at increased risk of domestic violence. For them, accessing services and providing care at home was even more difficult under COVID–19. Similarly, particular attention should be paid to displaced women, refugees and women in conflict-affected areas. They are even more vulnerable due to their poor social and health situation. The WHO recommends that health facilities make information on locally available services widely available (e.g. emotional support and emergency helplines, shelters). Humanitarian organisations should also organise support for women and children who have suffered violence and collect data on violence against women in preparation for COVID–19 [URL6].

According to the WHO, the COVID–19 pandemic has reinforced a number of negative phenomena. It has led to increased levels of anxiety, depression, excessive alcohol consumption and domestic violence [URL7].

The United Nations Women (UN Women) has highlighted that violence against women and children has also worsened during the Ebola epidemic, with an increase in human trafficking, sexual exploitation and child marriage and sexual abuse [URL8].

The so-called 'shadow pandemic', i.e. the domestic violence epidemic in the shadow of COVID–19, has appeared not only in economically underdeveloped countries, but also in rich countries. Research has shown an increase in suicidal tendencies and depression, in addition to an increase in domestic violence. Both women and men were affected by anxiety about their personal safety [URL9].

It is important to look at the often different findings and experiences of different countries.

In Portugal, domestic violence during the pandemic affected both sexes and all age groups. According to the responses to the online questionnaire, the abuser was the partner or ex-partner in 47.3% of cases, a parent or foster parent in 17.8%, a child or foster child in 8.9%, a sibling or stepsibling in 1.4%, and a person currently living with the victim in 2.7%. 21.9% of victims did not say who the abuser was. 13.0% of the abuse was verbal, 1.0% sexual and 0.9% physical. The study highlights that a high proportion of victims of verbal abuse were male. The authors call for further research into the vulnerability of male victims. They also pointed out that many elderly victims reported sexual abuse [4].

An Australian study showed that during the COVID–19 epidemic, domestic violence victims had higher economic insecurity than their partners. Victims' financial insecurity was also often greater than that of the abusive partner. Those who experienced economic hardship during the COVID–19 epidemic were more likely to experience physical, sexual and economic abuse. The COVID–19 epidemic caused acute economic stress in the community and domestic violence was also perpetrated by people who had not previously engaged in abusive behaviour within their families [URL10].

According to the UN Refugee Agency, the situation of refugee women has worsened during the COVID–19 epidemic. Not only did their financial position deteriorate, but they were also at increased risk of gender-based violence. The Agency cited Syria and Venezuela as examples [URL11].

In Sri Lanka, researchers have also emphasised that domestic violence can affect anyone, regardless of age, gender, social status, sexual orientation, religion, education or economic background. Domestic violence can occur in a variety of relationships, including couples living together, married couples or even separated partners. In Sri Lanka, data on violence against women and girls in 2019 was collected by the Department of Statistics. It shows that Sri Lankan women suffered twice as much violence from their partners (17.4%) as from strangers (7.2%). Similarly, sexual violence from partners (6.2%) is higher than violence from others (4.1%) [URL12].

In Argentina, an increase in domestic violence was also observed when women and their partners were quarantined. Compared to the period before the pandemic closures, verbal violence increased by 12%, sexual violence by 35% and physical violence by 23% in 2020. Three main phenomena were identified as the cause. The first is the inability to escape from the abuser. The second is social isolation, which has also contributed to mental health problems and increased alcohol consumption. The third was deprivation [URL13].

War conflicts and violence against women - Rape is cheaper than bullet

Sexual violence in war was first declared a war crime in the 1949 Geneva Convention. The Rome Statute of the International Criminal Court of 17 July 1998 classifies many forms of sexual violence as crimes against humanity and war crimes. The Istanbul Convention applies to all crimes of violence against women in times of peace and armed conflict [URL4].

András Hárs gives a precise overview of when wartime sexual crimes constitute genocide, war crimes or crimes against humanity. He describes not only the development of the regulation of sexual crimes as international crimes, but also the practice of international criminal courts. He also quotes Navathenem Pillay's statement in which Pillay states that rape is not a trophy of war [5].

The term 'conflict-related sexual violence' (CRSV) has been used by the UN since 2000 to refer to cases of rape committed during an armed conflict [URL14]. Eight years later, a resolution states that armed conflict-related sexual violence is a tactic of warfare that in itself threatens the maintenance of international peace and security [URL15]. A UN Security Council resolution on conflict-related sexual violence was also adopted in 2009 [URL16]. The Stop Rape Now initiative [URL17] is a network of UN agencies. It aims to prevent rape from being used as a war strategy. The UNDP (United Nations Development Programme) Global Programme on Strengthening the Rule of Law in Conflict and Post-Conflict Situations has helped to strengthen national capacity to end impunity for gender-based violence in 20 conflict and post-conflict countries [URL16].The Security Council also sought answers on how to hold perpetrators of sexual violence in armed conflict accountable at national level [URL18].

The first perpetrator to be convicted of 'conflict-related sexual violence' by the ICC in 2016 was a Congolese warlord [URL19].

Gender-related violence during and immediately after the war has also been collected by some women's NGOs. The first important finding of their research was that there is still little information available to social scientists on the phenomenon of violence and changes in crime during global crises. In developing their research methodology, they encourage a rigorous investigation to understand the causes in more depth. A global analysis must of course take into account the different characteristics of different parts of the world. In any case, the common feature is that the increasing violence in global crises primarily affects inherently vulnerable groups, including minorities and women. Given the increasingly global nature of crises, the study of deviant and criminal behaviour that changes during these crises should also be the subject of international comparative and multidisciplinary research [URL20].

In many countries, even in times of peace, the regulation and prevention of domestic violence and gender-based violence was not sufficient. When there is a risk of conflict, the number of such cases increases, as the different forms of violence are interlinked and reinforce each other. Regulation must be strengthened even in times of peace, and we must be prepared for even more serious problems in times of crisis. Violent conflicts give rise to new forms of behaviour, making rape even more violent. This is due to stress, trauma, insecurity and the widespread acceptance of rape as a common form of behaviour among soldiers.

There is also another area in which women's sexual freedom is violated in conflict or in situations of danger, and this phenomenon is hardly mentioned. In such cases, women are not forced to have sex by physical violence, but rather by peacekeepers or aid workers abusing their power to distribute food and medicine [URL21].

In 2021, NATO issued guidance on what NATO personnel should do in the event of 'sexual violence in armed conflict'. Data collection and mandatory reporting are among these tasks [URL22].

The UN Secretary-General's report for 2023 examined the situation of 'conflict-related sexual violence'. The term includes all forms of sexual violence, such as sexual slavery, forced prostitution, forced pregnancy, forced abortion, forced sterilisation, forced marriage, etc. The report for the year 2022 mentions the situation in the Democratic Republic of Congo, Ethiopia, Haiti, South Sudan, among others. It also addresses the issue of wartime sexual violence in Ukraine, stating that it was a form of torture and inhuman treatment of civilians and prisoners of war [URL23].

O‘zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olishda hozirgi mavjud amaliyot asta-sekinlik bilan takomillashib bormoqda. Biroq jinoyatchilikning oldini olish masalasida hali oldimizda yechimini kutayotgan muammolar ham oz emas. Shuning uchun xorijiy rivojlangan davlatlarda amal qilayotgan jinoyatchilikning oldini olish masalalari bizda ilmiy jihatdan qiziqish uyg‘otishi tabiiy.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, avvalo, rivojlangan xorijiy davlatlarda amalda bo‘lgan jinoyatchilikka qarshi kurashish va jinoyatchilikning oldini olish nazariyasi va amaliyoti, bu borada mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, olimlarning olib borgan tadqiqotlari o‘rganildi. Xususan, “jinoyatchilikning oldini olish” tushunchasi ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

O‘zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish masalasi davlat va jamiyatning muhim funksional vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, jinoyatchilikning oldini olish muammolarini nazariy metodologik jihatlarini tahlil etish o‘ta muhimdir.

Mazkur ishda ilmiy bilishning mantiqiy, tarixiy, tizimli, qiyosiy-huquqiy, sotsiologik tahlil usullari, shuningdek induksiya, deduksiya, analiz va sintez metodlaridan samarali va unumli foydalanildi.

Tahlil va natijalar / Results

Jinoyatchilikning xalqaro miqyosda transmilliylashuvi va unga qarshi kurashish borasida xorijiy davlatlarda mavjud tajriba va bilimlarni o‘rganish va ulardan foydalanish O‘zbekistonda jinoyatchilikning oldini olishda katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy yo‘nalishlari orasida uning barvaqt oldini olish, shubhasiz konseptual ahamiyat kasb etadi.

Jinoyatchilikning oldini olish va profilaktika choralarini ishlab chiqish masalalari har bir davlat qonunchiligi talablaridan kelib chiqqan holda turlicha belgilangan. Ma’lumki, jinoyatchilikning oldini olishda aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqmasdan va amalga oshirmasdan turib unga qarshi kurashish samarasiz bo‘lib qoladi.

So‘nggi yigirma yil ichida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida, AQSH, Kanada, GFR va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarda jinoyatchilikning oldini olish nazariyasi va amaliyoti faol rivojlandi. Bunda G‘arb davlatlaridagi kriminolog olimlar ijtimoiy hodisa sifatida jinoyatchilikning oldini olish emas, balki uning cheklanishi, aniq kriminogen omillar va holatlarga nisbatan to‘xtatib turuvchi ta’siri haqida so‘z yuritadilar. Shunday bo‘lsa-da, jinoyatchilikning oldini olish yo‘nalishida amaliyotda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Jinoyatlarning oldini olish, agar u tizimli va muvofiqlashtirilgan asosda tashkil etilmasa, aholi hayotini yaxshilash va jinoiy sudlovni takomillashtirish chora-tadbirlarini o‘z ichiga olmasa, samarali bo‘lmaydi, deb taxmin qilinadi[2].

“Hozirgi vaqtda huquqshunoslar g‘ayriijtimoiy, salbiy hodisalarga nisbatan qo‘llaydigan “jinoyatchilikning oldini olish”, “profilaktika qilish”, “ogohlantirish”, “ to‘xtatish”, “barham berish” kabi atamalar nafaqat maxsus adabiyotlarda, balki turli hujjatlarda, shuningdek matbuotda ham ko‘p uchraydi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “jinoyatchilik” atamasining ma’nosi “jamiyat uchun xavfli xatti-harakat”[3], deya ta’riflangan. Agar ushbu atama yuqorida qayd etilgan “jinoyatchilikning oldini olish” atamasi bilan omixta tahlil qilinadigan bo‘lsa, “jinoyatchilik – jamiyat uchun xavfli xatti-harakat” degan ma’no kelib chiqadi. Demak, “jinoyatchilikning oldini olish”, “profilaktika qilish”, “ogohlantirish”, “ to‘xtatish”, “barham berish” kabi atamalar oxir-oqibat jamiyat uchun xavfli xatti-harakat bo‘lgan jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan.

Kriminologiyaga oid adabiyotlarda jinoyatchilikning oldini olish tushunchasi haqida ko‘p fikr yuritiladi, lekin mazkur tushunchaning umume’tirof etilgan ta’rifi mavjud emas [4].

Kriminolog olimlar tomonidan jinoyatchilikning oldini olish muammolari bilan bog‘liq qator ilmiy asarlar yaratilgan. Bunday ilmiy tadqiqotlarda mualliflar jinoyatlarning oldini olish sohasida qo‘llaniladigan atamalar to‘g‘risida turlicha fikr yuritganlar.

Masalan, bir guruh tadqiqotchilar o‘z asarlarida “oldini olish”, “barham berish”, “profilaktika qilish”, “to‘xtatish” atamalarining mazmunidagi farqni qidirish o‘rinli emasligini, bu atamalarning mazmuni birligini – shu ma’noda ular muayyan shaxslar tomonidan jamiyatga zarar yetkazuvchi qilmishlar sodir etilishining oldini olish va keyinchalik bunday holatlarga mutlaqo barham berish chora-tadbirlarini ko‘rish zarurligi haqidagi fikrni ifodalovchi sinonimlar ekanligini ta’kidlagan bo‘lsalar [5], boshqalari ushbu atamalarini bir-biridan farqlab, “jinoyatchilikning oldini olish” deganda muayyan jinoyat sodir etilishiga qarshilik ko‘rsatish, “jinoyatlar profilaktikasi” deganda esa – jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratadigan shart-sharoit va sabablarni bartaraf etish, degan fikrni bildiradilar [6]. Uchinchilari esa yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan atamalar bir-birini istisno etmasligini, ular o‘rtasida farqdan ko‘ra o‘xshashlik tomonlari ko‘proq ekanligini, mohiyatan ular turdosh tushunchalar hisoblanishini ta’kidlaganlar [7]. Shuningdek, “jinoyatlarning oldini olish” nisbatan umumiy tushuncha sifatida, “jinoyatlar profilaktikasi” tushunchasida esa jinoyatlarning oldini olish borasida muayyan chora-tadbirlarning roli qayd qilinib [8], ushbu tushunchalar o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligi ta’kidlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining tegishli normativ-huquqiy hujjatlarini tahlil qilganda esa “jinoyatchilikning oldini olish” tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2833-son qarorida “huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish ”[9] deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2018-yil 11-avgustdagi “Hududlarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish Respublika komissiyasi mintaqaviy ishchi guruhlarining faoliyati to‘g‘risida”gi 1887-III-son qo‘shma qarorida

ham “jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va huquqbuzarlikka qarshi kurashish” [10] tushunchasi ishlatilgan, xuddi shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 5-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to‘g‘risida”gi [11] axboroti haqidagi SQ-596-IV-son qarorida ham xuddi shunday tushunchalar ishlatilgan.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, davlat hokimiyati oliy organlari qarorlarida ham “huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish”, “jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish”, “huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi” tushunchalari ishlatilgan.

Keltirilgan dalillardan shunday xulosa qilish mumkinki, “jinoyatlarning oldini olish” va “jinoyatlar profilaktikasi” [12] tushunchalari yuridik va filologik jihatdan bir xil ma’noda qo‘llanilmoqda. Xuddi shuningdek, amaldagi qonunchilikda ham ushbu atamalar o‘rtasida farq mavjudligi ko‘rinmaydi.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida jinoyatchilikning oldini olishning ijtimoiy va vaziyatli darajalari ajratiladi [13]. Jinoyatlarning ijtimoiy oldini olish darajasida e’tibor, asosan, mikromuhitda, inson shaxsining shakllanishida noqulay sharoitlarni o‘zgartirishga qaratiladi. Jinoyatlarning vaziyatli oldini olish darajasida esa alohida toifadagi jinoyatlar muayyan sharoitda, muayyan vaqtda va muayyan joyda sodir etilishi nazarda tutiladi. Vaziyatning o‘zi jinoyatlarning ayrim turlarini rag‘batlantiradi, masalan, kinoteatrlar va ko‘ngilochar joylarda ko‘cha janjallari, bog‘larda, maydonlarda, xilvat joylarda zo‘rlashlar va hokazo. Bunday ogohlantirish, bizning atamashunosligimizda qabul qilingan “jinoyatlarning oldini olish”, “barham berish”, “profilaktika qilish”, “to‘xtatish” tushunchalariga mos keladi.

Ba’zi mamlakatlarda, masalan Germaniyada, birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi darajali jinoyatlarning oldini olish ajratiladi. Birlamchi darajali jinoyatlarning oldini olishda e’tibor, jinoyatlarning asosiy sababi sifatida, ijtimoiy va pozitiv huquqiy ong tanqisligini bartaraf etishga qaratiladi. Ikkilamchi darajali jinoyatlarning oldini olish politsiya organlari tomonidan amalga oshiriladi va jinoyatlarning oldini olishning huquqiy vositalari bilan bog‘liq. Uchlamchi darajali jinoyatlarning oldini olish jinoyatchilarni jazolash va reabilitatsiya jarayonida qo‘llaniladigan profilaktika choralari va vositalarini o‘z ichiga oladi.

Ko‘plab mamlakatlarda jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirish uchun tegishli organlar (masalan, Milliy Kengashlar) tashkil etilgan. Ularning asosiy funksiyalari:

1) ma’lumotlar yig‘ish, rejalashtirish, jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha dasturlarning bajarilishini baholash;

2) politsiya va ushbu sohada ish yuritadigan boshqa idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish;

3) aholi ishtirokini ta’minlash;

4) OAV bilan hamkorlik;

5) ilmiy tadqiqot ishlari;

6) jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi siyosatni belgilovchi qonun chiqaruvchi organlar bilan hamkorlik;

7) ta’limga tayyorgarlik [14].

Politsiya amaliyotida jinoyatlar ko‘pincha potensial jinoyatchi tomonidan himoyaga muhtoj, himoyasiz jabrlanuvchi yoki obyektni uchratib qolgandan keyin sodir etiladi degan qarash keng tarqalgan. Shuning uchun jinoyatning oldini olish choralari jinoyatchiga yoki xavfsizlik tizimiga yoxud potensial jabrlanuvchiga (individual, umumiy va viktimologik profilaktika) qaratiladi. Ushbu uchlikda asosan himoya profilaktikasi va aholining o‘z-o‘zini himoya qilishga qaratilgan maqsadli ishlarga alohida e’tibor beriladi.

Germaniya Federativ Respublikasida o‘tgan asrning 60-yillardan boshlab politsiya o‘zini o‘zi himoya qilishga qaratilgan jamoatchilik bilan maqsadli ishlarni keng qo‘llay boshladi, ya’ni aholiga o‘z mulkini o‘g‘rilardan himoya qilish uchun texnik vositalardan qanday foydalanish va qanday qilib to‘g‘ri xatti-harakatlarni amalga oshirish orqali jinoyat qurboniga aylanmaslik haqida keng miqyosdagi amaliyotni yo‘lga qo‘ydi. Shu maqsadlarda jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha bepul maslahatlar tarqatish, “Jinoyat politsiyasi maslahat beradi” siklida radioeshittirishlar va televideniyeda ko‘rsatuvlar namoyish etish amaliyoti qo‘llanila boshlandi. Jinoyat politsiyasining jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha maxsus dasturi amalda bo‘lib, uning asosiy g‘oyasi “politsiya xodimining jamoatchilik bilan bo‘ladigan har qanday aloqasi profilaktika manfaatlariga xizmat qilishi kerak” [13], degan tamoyilga asoslangan.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida jinoyatchilikning oldini olish choralarining jamoatchilik muassasalari modeli, individumning xavfsizlik modeli va atrof-muhit orqali ta’sir ko‘rsatish modellari mavjud. Jinoyatchilikning oldini olish dasturlari federal va mahalliy darajada amalga oshiriladi. Shunisi diqqatga sazovorki, ba’zi shtatlarda fuqarolarning huquq-tartibotni mustahkamlashdagi ishtiroki talonchilik jinoyatini 30 foizgacha kamaytirdi. Bunda tezkor-profilaktik ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlar uchun turli rag‘batlardan foydalaniladi.

Kanadada huquq-tartibotni muhofaza qilishda fuqarolarning patrullikda ishtirok etishi keng ommalashgan. Politsiya bilan hamkorlikda patrullikda ishtirok etgan fuqarolarning jinoyatchilardan hayiqishi kamaygan va ularda o‘z shaxsiy xavfsizligi hissi kuchaygan. Ba’zi hollarda, ayniqsa tunlari, jinoyatchilik sodir etilishi holati ko‘paygan hududlarda “nazorat postlari” deb nomlangan postlar tashkil etilgan.

Buyuk Britaniyada jinoiy xavfsizlikning minimal standartlari ishlab chiqilgan va huquq-tartibotni muhofaza qilishda eng kriminogen hududlarda navbatchilik qilishda aholini politsiya bilan hamkorlikda jalb etish tadbirlari keng qo‘llaniladi. Jamoatchilik vakillari uchun bepul politsiya formasi (nishonlarsiz yoki xizmat atributlarsiz) beriladi, va hatto, politsiya transportlarida “jangovar” patrullik qilish uchun qurol va radioaloqa vositalari, tayoqchalar, qo‘l kishanlari taqdim etiladi. Ushbu faoliyatlarning barchasi jamiyat va davlat tomonidan ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda jinoyatchilikni oldini olishning viktimologik sohasiga alohida e’tibor beriladi. Bu katta moddiy xarajatlar talab qilmaydi va barcha fuqarolarga xos bo‘lgan o‘z-o‘zini himoya qilish istagini amalga oshiradi.

G‘arbiy Yevropa va AQSHda “O‘zingizni, oilangizni, uyingizni va mol-mulkingizni jinoiy hujumlardan qanday himoya qilish kerak” degan mavzuda ommabop maqolalar va qo‘llanmalar ko‘plab chop etiladi. Jinoyat ishlari bo‘yicha jabrlanuvchilar va guvohlarni himoya qilish dasturlari amalga oshirilmoqda, jinoyatlardan jabrlanganlar assotsiatsiyalari shakllangan. Barcha joyda “qo‘shnilar assotsiatsiyalari” mavjud bo‘lib, ularning a’zolari mikrorayon va posyolkalarda jamoatchilik patrullarida ishtirok etishadi va agar zarurat tug‘ilib qolsa, politsiya patrullarini chaqirishadi.

Barcha o‘quv muassasalari, ya’ni boshlang‘ich maktablardan tortib to universitetlargacha amaliy viktimologiya bo‘yicha darslar o‘tiladi. Ko‘ngilli fuqarolar nafaqat ma’ruzalarni tinglashlari, balki maxsus tayyorgarlikdan o‘tishlari, ya’ni o‘z-o‘zini himoya qilish texnikasini o‘zlashtirishlari va ekstremal vaziyatlarda maqbul xulq-atvor ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.

Jinoyatchilikning oldini olish amaliyotida me’moriy-arxitektura tendensiyasi juda qiziqarli. Kam qavatli uylarga qaraganda ko‘p qavatli turar joy binolarida yetti baravar ko‘p jinoyatlar sodir

etilgan. Ma’lum bo‘lishicha, yirik shaharlarning me’moriy uslubi ko‘pincha jinoyatlar sodir etilishiga imkon yaratishi va ularning sodir etilishini osonlashtirishi aniqlangan. Yuqoridagilar shaharsozlik qurilishi amaliyotida hisobga olinib, kam qavatli kottejlar qurilishi hajmi kengaytirilgan; turar joy yo‘laklari oxiri (tupiklar) soni qisqartirilgan, o‘tish yo‘lakchalari, podvallar va yerosti yo‘laklari soni kamaytirilgan; “kriminogen landshaft”ni belgilaydigan uylar buzib tashlangan. Masalan, Londonda uy-joy qurilishi vazirligi kriminogen kvartal hisoblangan Stoun-bridj aholisiga har bir kvartirani signalizatsiya tizimi va boshqa himoya vositalari bilan jihozlash uchun 1000 funt sterling ajratgan.

G‘arbiy Yevropa va AQSHda jamiyatda zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan profilaktika choralariga katta e’tibor qaratilmoqda. Masalan, AQSH prezidenti ma’muriyati Amerika jamiyatini ma’naviy sog‘lomlashtirish bo‘yicha federal dasturni qabul qildi. Ushbu dasturning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1) yosh avlodda zo‘ravonliksiz munosabat va ko‘nikmalarni shakllantirish;

2) zo‘ravonlikning oldini olishda mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlash;

3) irqiy va madaniy-milliy kelishmovchiliklarning oldini olish;

4) fuqarolar orasida qurol tarqalishini cheklash;

5) oilaviy turmush tarzini sog‘lomlashtirish uchun mafkuraviy va moddiy rag‘batlantirish;

6) ommaviy axborot vositalariga zo‘ravonlik reklamasini kamaytirish va zo‘ravonlikni cheklashga ko‘maklashadigan targ‘ibot-tashviqot ishlarini o‘tkazish to‘g‘risida tavsiyalar berish;

7) jinoyatchilikning oldini olishda ko‘proq muvaffaqiyatli amalga oshirilgan sharoitlarni aniqlash uchun ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish [15].

Ta’kidlash joizki, zo‘ravonlikka qarshi dasturlar AQSHda qabul qilingan jinoyatchilikning oldini olishning ikkita asosiy yo‘nalishi: ijtimoiy islohotlar va klinik kriminologiya doirasida ishlab chiqilmoqda. So‘nggi yillarda ushbu modellardan tashqari, politsiya tizimini isloh qilish va ilmiy yutuqlardan foydalanish bilan bog‘liq chora-tadbirlar jinoyatchilikning oldini olish amaliyotida ommalashdi.

AQSHda kriminogen holatning rivojlanishini nazorat qilish, jinoyatchilikning oldini olish va politsiyani aholiga yaqinlashtirish maqsadida yangi strategiya ishlab chiqildi. Yangi strategiya politsiyaning jamoatchilik faoliyati deb ataldi. Unga ko‘ra, politsiyaning asosiy vazifalaridan biri sifatida ko‘proq jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan faol faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Asosiy e’tibor aholi turar joylarida politsiyachilar xizmat o‘tayotganini namoyish etish, shuningdek, odamlarga yaqinroq bo‘lish uchun asosan xizmat mashinalardan foydalanishni tark etib, xuddi shu maqsadda velosipeddan foydalanish yoki piyoda patrullik qilishga qaratildi [16].

Hozirgi vaqtda rivojlangan xorijiy davlatlarda jinoyatchilikning oldini olish amaliyotida jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablar va sharoitlarini bartaraf etish, vandalizm harakatlarining oldini olish, oiladagi nizoli vaziyatlarni profilaktik jihatdan hal qilish, politsiya va fuqarolar o‘rtasida ishonchli munosabatlarni shakllantirishga ko‘proq e’tibor berilmoqda.

Jinoyatchilikning oldini olishning samaradorligini oshirishda ilmiy yutuqlardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Bunda quyidagilar, ayniqsa, istiqbolli deb e’tirof etiladi: transport vositalari, giyohvandlik moddalari, qurollar va hokazolarning harakatlanishini nazorat qilish uchun lazer va boshqa optik texnologiyalardan foydalanish; jinoyatlarning xususiyatlari va uni sodir etish joyidagi vaziyatdan kelib chiqqan holda jinoyatchining ijtimoiy-psixologik portretini tuzish usullarini takomillashtirish; jinoyatlarning oldini olish va uning profilaktikasi uchun axborot ta’minoti darajasini oshirish va hokazo.

Masalan, AQSHda jinoyatchilik bo‘yicha Milliy axborot markazi, jinoyatlarni hisobga olish va ro‘yxatga olishning yagona tizimi va barmoq izlarini identifikatsiyalashning avtomatlashtirilgan tizimi yaratildi. Retsidiv jinoyatlar takrorlanishining oldini olishda samarali vosita bo‘lgan elektron kuzatuv vositasida uy qamog‘i juda keng tarqalgan jazo chorasi hisoblanadi. Shuningdek, jinoyatchilikning oldini olishning noan’anaviy usullari orasida gipnoz va meditatsiyadan foydalanishga urinishlar (guruhli gipnoz seanslari va jinoyatchilikka qarshi meditatsiya)ni qayd etib o‘tish kerak.

Yaponiyada hozirgi vaqtda: birinchidan, keng ma’noda, ya’ni ijtimoiy hayotning qariyb barcha sohalarini qamrab olgan jinoyatchilikning oldini olish tizimi; ikkinchidan, tor ma’noda, ya’ni davlatning maqsad sari yo‘naltirilgan o‘ziga xos choralar majmui; uchinchidan, davlat va munitsipal darajada nazoratning institutsional tizimi va norasmiy nazorat; to‘rtinchidan, jinoyatlarni erta oldini olish va qayta jinoyatlarning oldini olish tizimlari amal qiladi.

Yaponiya ijtimoiy siyosatining bir qismi bo‘lgan jinoiy-huquqiy siyosatining o‘ziga xos xususiyati shu bilan tavsiflanadiki, jinoyatlarning oldini olish masalasida urg‘u asosan “davlat-huquqiy” sohadan “ijtimoiy” soha tomon yo‘naltirilgan. Uning o‘ziga xos xususiyati esa nafaqat jinoyat huquqi alohida institutlarining nozik huquqiy ishlanmasi, balki yaponlar ongiga singdirilgan jinoiy-huquqiy normalardan kutilayotgan natijalarga va stereotiplarga mosligidadir[17].

Ko‘plab tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, to‘g‘ri shakllantirilgan qonunchilik va amaliyotda uning oqilona qo‘llanilishi jinoiy siyosatda juda muhimdir. Masalan, bunga Yaponiyada jinoyatchilikning oldini olishda amaldagi qonunchilik samaradorligini misol tariqasida keltirish mumkin. Yaponiya boshqa rivojlangan davlatlar orasida o‘qotar qurolga ega bo‘lishni huquqiy jihatdan qat’iy tartibga solgan davlat hisoblanadi. Yaponiyada o‘tgan asrning 90-yillarida o‘qotar qurol bilan sodir qilingan qotillik holati faqat 4.7 foizni, talonchilik 1.3 foizni, tan jarohati yetkazish 0.1 foizni tashkil qilgan [18], xolos.

Yaponiyada jinoyatchilikning oldini olish sohasida kriminologik siyosatning mohiyati – jinoyatchilik profilaktikasida ham birlamchi, ham qayta jinoyatlarning oldini olish masalasi hokimiyat organlari tomonidan olib borilayotgan jinoiy siyosat yo‘nalishiga to‘liq mos keladi.

Masalan, birlamchi jinoyatlarning oldini olish uchun maktabdagi tarbiyasi qiyin o‘spirin yoshlar aniqlanadi va ularga nisbatan individual tarbiyaviy ta’sir choralari qo‘llaniladi; politsiya, maktab va jamoat tashkilotlari tomonidan qonunga bo‘ysunish va itoatkorlikni targ‘ib qiluvchi keng ko‘lamli ishlar olib boriladi; jinoyat sodir etilishi mumkin bo‘lgan sharoitlarni bartaraf etish choralari ko‘riladi.

Yaponiyada jinoyatchilikning oldini olish borasidagi jinoiy siyosat aholining ta’lim va boshqa ehtiyojlarini qondirish sohasida davlat va jamiyat (milliy an’analarga tayangan va milliy-psixologik xususiyatlardan foydalangan holda) o‘zaro bog‘liqlikda, o‘z mehnati va farovonligini qat’iy ravishda yo‘lga qo‘yishga moyil bo‘lgan qonunga bo‘ysunuvchi, intizomli fuqarolarni tarbiyalash, shuningdek, jamiyat a’zolarining moddiy va ma’naviy manfaatlarini qondirishdan iborat. Ushbu siyosatdan kelib chiqqan holda ixtisoslashgan idoralar va tashkilotlar tarbiyaviy ishlarda faol qatnashib, aholining eng muhim ehtiyojlaridan biri – xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyojini qondiradilar.

Yaponiya huquq-tartibot idoralari tomonidan qonunga bo‘ysunuvchi, itoatkor xulq-atvorli o‘smirlar va yoshlarni asrab-avaylash doirasidagi amaliy ishlarida “xulq-atvorida og‘ish bo‘lgan voyaga yetmaganlar” kompleks tushunchasi qo‘llaniladi. “Xulq-atvorida og‘ish bo‘lgan voyaga yetmaganlar” bilan bunday muomala qilishdan maqsad jamiyatda ularga nisbatan mumkin qadar ko‘proq tarbiya choralarini qo‘llashdan iborat. Yaponiyada davlat va jamiyatning jinoyatchilikning oldini olish yo‘nalishidagi o‘zaro aloqalari juda xilma-xildir. Ushbu hamkorlikning shakl va usullari

doimiy ravishda yangilanib boriladi. Masalan, aholi gavjum joylarga ilib qo‘yilgan yo‘l-transport hodisalari va qurbonlari soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar va plakatlar; ogohlantirish doskalarida yaqinda sodir bo‘lgan voqealar to‘g‘risida zudlik bilan berilgan xabarlar; ommaviy ko‘rinishga ega bo‘lgan turar joy binolariga jinoyatchilar kirishi mumkin bo‘lgan yo‘llarni chizmalari ko‘rsatilgan keng ko‘lamli sxemalar va boshqalar fuqarolar e’tiboriga qaratilgan hamda ularning faolligini uyg‘otish uchun mo‘ljallangan. Bulardan tashqari, fuqarolarning o‘z-o‘zini himoya qilish va himoya qilishning usullarini o‘rgatishga mo‘ljallangan ko‘plab nashrlar mavjud va hokazo.

Yaponiyada birlamchi jinoyatchilikning oldini olish choralari butun jamiyat yoki uning alohida guruhlariga qaratilishi mumkin. Umumiy profilaktika doirasida politsiya, maktablar va jamoat tashkilotlari tomonidan qonunga bo‘ysunish, itoatkorlik masalalari keng targ‘ib qilinadi, bu esa turli yuridik adabiyotlarni (shu jumladan, sharhlangan qonunlarni) katta nashrlarda chop etish orqali amalga oshiriladi.

Jinoyatchilikning oldini olish faoliyatiga aholini jalb qilish maqsadida davlat va munitsipal organlar, politsiya, adliya organlari keng qamrovli va faol targ‘ibot ishlarini olib boradilar.

Xususan, butun mamlakat bo‘ylab, har yilda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlash va aholining huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan oylik kampaniyalari o‘tkaziladi. Har yili “Jinoyatchilik to‘g‘risida oq kitob” va “Politsiya to‘g‘risida oq kitob” nashr etiladi va unda muayyan muammolar batafsil yoritiladi, davlat jinoyatchilikning oldini olish kabi murakkab yo‘nalishda milliy siyosatning muvaffaqiyatlari va kamchiliklari haqida jamiyat bilan ochiq muloqot qo‘llab-quvvatlanadi.

Yuqorida qayd etib o‘tilganlarning aksariyatiga nisbatan birlamchi jinoyatlarning oldini olish borasida individual profilaktika ishlari qo‘llaniladi, agar hayot tarzida qonunga bo‘ysunuvchi, itoatkorlik doirasidan chiqayotgan shaxslar aniqlangan hollarda, ular politsiya xodimlari tomonidan alohida nazorat ostiga olinadi, maktablarda tarbiyasi qiyin o‘spirinlar aniqlanadi va ularga nisbatan individual tarbiya ta’siri choralari qo‘llaniladi va boshqa shunga o‘xshash tadbirlar amalga oshiriladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, jinoyatchilikka qarshi kurashishning eng samarali usullaridan biri – kriminologik nuqtai nazaridan jinoyatlarning oldini olish hisoblanadi.

Shunday qilib, jinoyatlarning kriminologik nuqtayi nazardan oldini olish masalasi: birinchidan, jinoyatchilik ildizlarini, manbalarini aniqlash va jinoyat sodir etilishi ehtimoli (imkoniyati)ning oldini olish; ikkinchidan, hali kuchaymagan jinoyatchilik va uning oldini olish qiyin bo‘lmagan hollarda kriminogen omillarga yaxshi ta’sir ko‘rsatish; uchinchidan, turli xil vositalardan foydalanib, rejalashtirilgan jinoiy faoliyatni to‘xtatib oldini olish; to‘rtinchidan, zararli ta’sir oqibatlarining oldini olish; beshinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashda davlat majburlovining jinoiy javobgarlik shaklini qo‘llamasdan, jinoiy adliyaning murakkab mexanizmlarini to‘liq kuchda ishlatmasdan, eng kam xarajatlar va insonparvarlik nuqtayi nazaridan hal qilish maqsadini ko‘zlaydi.

Umuman olganda, xorijiy davlatlarda qo‘llaniladigan jinoyatchilikning oldini olish modellari, shakllari va usullarini o‘rganish ushbu faoliyatda tizimlilik, yetarli darajada ta’minlanganlik, insonparvarlik va jamiyatning barcha a’zolari ishtiroki prinsiplari muntazam amalga oshiriladi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Shuningdek, esdan chiqarmaslik kerakki, turli davlatlarda jinoyatchilikning oldini olishning turli tizimlari, choralari hamda vositalari amal qiladi. Shubhasiz, O‘zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish masalalarida rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish yurtimizda jinoyatchilikning oldini olishni takomillashtirishga, bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimizda jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan qulay shart-sharoit va ijobiy imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa va takliflar / Conclusions

1. Tahlillar natijasida olimlar tomonidan “jinoyatchilikning oldini olish” tushunchasi haqida ko‘plab fikrlar yuritilganligi, biroq ushbu tushunchaning umume’tirof etilgan ta’rifi mavjud emasligi aniqlandi. Yuqoridagilarga asosan, kelgusida “jinoyatchilikning oldini olish” tushunchasining umumiy ta’rifini ishlab chiqish.

2. “Jinoyatlarning oldini olish” va “jinoyatlar profilaktikasi” tushunchalariga yanada aniqlik kiritish maqsadida “jinoyatlarning oldini olish” tushunchasining “ichki” tuzilishini yanada mufassalroq ko‘rib chiqish.

3. Jinoyatlarning oldini olishni tizimli va muvofiqlashtirilgan asosda tashkil etish, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishda jinoiy sudlovni takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

4. Jinoyatlarning ijtimoiy oldini olish borasida, e’tiborni asosan mikromuhitga, ya’ni inson shaxsining shakllanishida noqulay sharoitlarni o‘zgartirishga qaratish.

5. Jinoyatlarning vaziyatli oldini olish borasida e’tiborni asosan aholi gavjum joylar, ya’ni kinoteatrlar, ko‘ngilochar joylar, madaniyat va istirohat bog‘lari, bog‘lar, maydonlar, bozorlar, masjidlar, obodonlashmagan xilvat joylar va hokazolarga qaratish (bu joylarda aholining ko‘ngilli guruhlari patrulligini tashkil etish).

6. Jinoyatlarning oldini olish borasida, birinchidan, fuqarolarning ijtimoiy va pozitiv huquqiy ongi tanqisligini bartaraf etishga qaratilgan ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini oshirish; ikkinchidan, jinoyatlarning oldini olishda ichki ishlar organlarini tegishli huquqiy vositalar bilan to‘liq ta’minlash; uchinchidan, jinoyatlarning oldini olishda aybdorlarni jazolash va reabilitatsiya jarayonida qo‘llaniladigan profilaktika choralari va vositalarini keng qo‘llash.

7. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olishda aholining himoya profilaktikasi va o‘z-o‘zini himoya qilishga qaratilgan maqsadli ishlarni yo‘lga qo‘yish.

8. Ichki ishlar organlari tomonidan aholining o‘z-o‘zini himoya qilishga qaratilgan jamoatchilik bilan maqsadli ishlarni keng qo‘llash, ya’ni aholiga o‘z mulkini o‘g‘rilardan himoya qilish uchun texnik vositalardan qanday foydalanish va qanday qilib to‘g‘ri xatti-harakatlarni amalga oshirish orqali jinoyat qurboniga aylanmaslik haqida keng miqyosdagi amaliyotni yo‘lga qo‘yish. Shu maqsadlarda jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha bepul maslahatlar berish, “Ichki ishlar organlari maslahat beradi” siklidan radioeshittirishlar va televideniyeda ko‘rsatuvlar namoyish etish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.

Bu borada, asosiy g‘oya “Ichki ishlar organlari xodimlarining jamoatchilik bilan bo‘ladigan har qanday aloqasi profilaktika manfaatlariga xizmat qilishi kerak”, degan maxsus dastur ishlab chiqish va tatbiq etish.

9. Kriminogen hududlarda huquq-tartibotni mustahkamlashda fuqarolarning ishtirokini yanada kengaytirish. Bunda tezkor-profilaktik ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlar uchun turli rag‘batlardan foydalanish.

Huquq-tartibotni muhofaza qilishda fuqarolarning ichki ishlar organlari xodimlari bilan hamkorlikda patrullikda ishtirok etishini ommalashtirish. Ba’zi hollarda, ayniqsa tunlari, jinoyatchilik sodir etilishi holati ko‘paygan hududlarda “nazorat postlari” tashkil etish.

10. Ichki ishlar organlarining “Jamoatchi yordamchi” deb nomlangan jamoatchilik vakillari institutini joriy etish. Ularga bepul militsiya formasi (nishonlarsiz yoki xizmat atributlarsiz) berish, va hatto, militsiya transportlarida “jangovar” patrullik qilish uchun radioaloqa vositalari, tayoqchalar bilan ta’minlash.

11. Kriminogen holatning rivojlanishini nazorat qilish, jinoyatchilikning oldini olish va aholiga yaqinlashtirish maqsadida “Ichki ishlar organlari xodimlarining jamoatchilik faoliyati” deb nomlangan strategiya ishlab chiqish. Unga ko‘ra, ichki ishlar organlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida ko‘proq jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan faol faoliyati yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq. Bunda asosiy e’tibor aholi turar joylarida ichki ishlar organlari xodimlari xizmat o‘tayotganini namoyish etish, shuningdek, odamlarga yaqinroq bo‘lish uchun asosan xizmat mashinalardan foydalanishni tark etib, xuddi shu maqsadda velosipeddan foydalanish yoki piyoda patrullik qilishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

12. Jinoyatchilikning oldini olishning samaradorligini oshirishda ilmiy yutuqlardan keng foydalanish. Bunda, ayniqsa, transport vositalari, giyohvandlik moddalari, qurol va hokazolar harakatlanishini nazorat qilish uchun lazer va boshqa optik texnologiyalardan foydalanish; jinoyatlarning xususiyatlari va uni sodir etish joyidagi vaziyatdan kelib chiqqan holda jinoyatchining ijtimoiy-psixologik portretini tuzish usullarini takomillashtirish; jinoyatlarning oldini olish va uning profilaktikasi uchun axborot ta’minoti darajasini oshirish.

Masalan, bunda jinoyatlarni hisobga va ro‘yxatga olishning yagona tizimi va barmoq izlarini identifikatsiyalashning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish. Retsidiv jinoyatlar takrorlanishining oldini olish uchun elektron kuzatuv vositasi orqali uy qamog‘i jazo chorasini kuchaytirish.

13. Birlamchi jinoyatlarning oldini olish uchun, xususan, maktabdagi tarbiyasi qiyin o‘spirin yoshlarni aniqlash va ularga nisbatan individual tarbiyaviy ta’sir choralari qo‘llash; ichki shlar organlari, maktab va jamoat tashkilotlari tomonidan qonunga bo‘ysunish va itoatkorlikni targ‘ib qiluvchi keng ko‘lamli ishlarni olib borish; jinoyat sodir etilishi mumkin bo‘lgan sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish.

14. Birlamchi jinoyatchilikning oldini olish choralarini, umumiy profilaktika doirasida, ichki ishlar organlari, maktablar va jamoat tashkilotlari tomonidan qonunga bo‘ysunish, itoatkorlik masalalarini keng targ‘ib qilish, turli yuridik adabiyotlarni (shu jumladan, sharhlangan qonunlarni) katta nashrlarda chop etish orqali amalga oshirish.

Xulosa qilib aytganda, butun mamlakat bo‘ylab har yili jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlash va aholining huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan oylik kampaniyalarni o‘tkazish jinoyatchilikning oldini olishda yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan manbalar / References

1. https://www.xabar.uz/siyosat/shavkat-mirziyoyev-bitta-bolsa-ham
2. Криминология: Учебник для вузов / Под общ. ред. А. И. Долговой. – М.: Инфра-М, 2010. – С. 110.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikkinchi jild. Tuzatilgan 2-nashri. – T.: O`zbekiston nashriyoti, 2020. – 93-b.
4. *Филимонов О.В.* Индивидуальная профилактика преступлений. – Томск, 1985. – С.5; *Аванесов Г.Ф.* Криминология. – М., 1984. – С. 334; Rustavbaev M.X., Abdurasulova Q.R., Nurmuhammedova G.B. Krivinologiya: Darslik. – T.: Yuridik adabiyotlar pyblish, 2024. – 101-b.
5. *Гельфалд И.А., Михайленко П.П.* Предупреждение преступлений – основа борьбы за искоренение преступности. – М., Юридическая литература, 1964. – С. 67.
6. *Лекарь А.Г.* Профилактика преступлений. – М., 1972. – С. 45; *Зелинский А.Ф.* Значние нормы уголовного права для предупреждения преступлений: Автореф. дис. канд. наук. – М., 1966. – С. 4.
7. *Аванесов Г.А.* Криминология. – М., 1984. – С. 339.
8. Rustavbaev M.X., Abdurasulova Q.R., Nurmuhammedova G.B. Krivinologiya: Darslik. – T.: Yuridik adabiyotlar pyblish, 2024. – 103-б.
9. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 12-son, 184-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.10.2017-y., 06/17/5204/0114-son, 01.12.2017-y., 06/17/5269/0340-son, 07.06.2018-y., 06/18/5456/1316-son, 11.07.2018-y., 06/18/5475/1489-son, 01.10.2018-y., 06/18/5547/1975-son, 02.11.2018-y., 06/18/5566/2153-son; 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son; 14.12.2019-y., 06/19/5894/4161-son; 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021-y., 06/21/6257/0645-son; 03.12.2022-y., 06/22/258/1064-son; 06.02.2024-y., 06/24/28/0099-son.
10. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.08.2018-y., 04/19/1897-III/KQ-393-III/2829-son.
11. https://lex.uz/uz/docs/6155784
12. Huquqiy adabiyotlarda “jinoyatlarning oldini olish” nisbatan umumiy tushuncha sifatida, “jinoyatlar profilaktikasi” tushunchasida esa jinoyatlarning oldini olishda muayyan chora-tadbirlarning roli qayd qilinadi, shuningdek, bu ikki tushuncha o‘rtasida mutlaq tenglik belgisini qo‘yish ham o‘rinli emasligini, bunda ishonch hosil qilish uchun “jinoyatlarning oldini olish” tushunchasining “ichki” tuzilishini yanada mufassalroq ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqligi ta’kidlanadi.
13. *Анаич В.А., Серебрякова И.М.* Предупреждение преступности: зарубежный опыт, международное сотрудничество. – М., НОРМА, 2004. – С. 98.
14. https://cyberleninka.ru/article/n/preduprezhdenie-prestupnosti-v-vysoko-raz vityh-zarubezhnyh-stranah
15. https://cyberleninka.ru/article/n/preduprezhdenie-prestupnosti-v-vysoko-razvityh-zarubezhnyh-stranah
16. *Воронин Ю.А.* Система борьбы с преступностью в США. – М.: АСТ, 1996. – С. 156.
17. *Уэда К.* Преступность и криминология в современной Японии. – М., Юристъ, 2000. – С. 68
18.. https://cyberleninka.ru/article/n/preduprezhdenie-prestupnosti-v-vysoko-raz vityh-zarubezhnyh-stranah

О НЕКТОРЫХ АСПЕКТАХ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ПРОФАЙЛИНГА В ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ПО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЮ УМЫШЛЕННЫХ ТЯЖКИХ ТЕЛЕСНЫХ ПОВРЕЖДЕНИЙ

(анализ зарубежного опыта)

Тазетдинов Руслан Рабинович

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti loyiha pahbari, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Руководитель проекта Исследовательского института криминологии Республики Узбекистан, доктор философии по психологическим наукам (PhD), доцент

Project Manager of the Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Аннотация: *Данная статья выполнена в рамках реализации научного проекта на тему: Исследование умышленных тяжких телесных повреждений и преступлений в Навоийской области. В статье проводится анализ зарубежной и местной научной литературы в сфере применения технологии профайлинга при профилактике умышленных тяжких телесных повреждений. Раскрываются теоретические основы.*

Ключевые слова: *тяжкие телесные повреждения, профайлинг, профайлер, применение профайлинга, профайлинг правонарушений.*

HUQUQNI MUHOFAZA QILISH TIZIMIDA PROFAYLING TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASHNING BA’ZI JIHATLARI BO‘YICHA QASDDAN YETKAZILGAN OG‘IR TAN JAROHATLARINI OLDINI OLISH (xorijiy tajriba tahlili)

Annotatsiya. *Ushbu maqola "Navoiy viloyatida qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish va jinoyatchilikni tadqiq qilish" mavzusidagi ilmiy loyihani amalga oshirish doirasida tayyorlangan. Maqolada qasddan badanga og‘ir shikast yetkazishni oldini olishda profayling texnologiyasini qo‘llashga oid xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu sohaning nazariy asoslari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *og‘ir tan jarohati, profayling, profayler, profaylingni qo‘llash, huquqbuzarlik profaylingi.*

ON SOME ASPECTS OF THE APPLICATION OF PROFILING TECHNOLOGY IN THE LAW ENFORCEMENT SYSTEM FOR THE PREVENTION OF INTENTIONAL GRIEVOUS BODILY HARM (analysis of foreign experience)

Abstract: *This article was prepared as part of the implementation of the scientific project titled "Study of Intentional Grievous Bodily Harm and Crime in the Navoi Region." The article analyzes foreign and local scientific literature on the application of profiling technology in the prevention of intentional grievous bodily harm. The theoretical foundations of this field are also explored.*

Keywords: *grievous bodily harm, profiling, profiler, application of profiling, crime profiling.*

Введение / Introduction

Рост преступности, связанный с умышленным причинением тяжкого вреда здоровью, остается актуальной проблемой для правоохранительных органов. В современных условиях особое внимание уделяется профилактическим методам, среди которых значительное место занимает профайлинг – технология анализа поведения и психологических особенностей личности преступника.

Профайлинг представляет собой метод анализа личности на основе поведенческих характеристик. Его корни уходят в криминальную психологию и криминалистику, где он применяется для предсказания и предотвращения преступной деятельности.

Методы профайлинга включают в себя: вербальный и невербальный анализ – изучение мимики, жестов и речи индивида; когнитивные техники – выявление закономерностей в поведении и принятии решений; анализ преступного почерка – изучение особенностей совершенных преступлений для выявления паттернов преступника.

Применение профайлинга в сфере профилактики умышленных тяжких телесных повреждений включает:

1. Выявление лиц с высоким уровнем агрессивности – анализ поведения потенциальных преступников по психологическим и социальным факторам.

2. Психологическое профилирование рецидивистов – определение типичных черт преступников, склонных к повторному совершению насильственных действий.

3. Анализ ситуационных факторов – оценка социальных и экономических условий, способствующих росту преступности.

Исследования показывают, что применение профайлинга способствует снижению уровня насильственных преступлений за счет раннего выявления потенциальных угроз.

Анализируя научные исследования зарубежных и отечественных ученых использования технологии профайлинга, можно сделать вывод, что имеется ряд значимых исследований и практических применений и в то же время слабая их освещенность в открытых источниках. Это связано с применением технологии профайлинга в основном в системах безопасности правоохранительных органов, что предусматривает закрытость и конфиденциальность.

В этой связи многие публикации не раскрывают сущности, методологии и подробных изысканий, а во многом носят описательный характер. Вместе с тем, на англоязычных ресурсах имеется достаточно научно-теоретической информации позволяющей провести изучение и анализ развития и использования технологии профайлинга в некоторых передовых странах.

Обзор литературы / Literature Review

Так, для детального исследования предмета профайлинга и области его применения проделан обзор и анализ более 2500 публикаций по профайлингу за период с 1976 по 2024 год. Проводя исследование доступных материалов можно выделить 1976 год как один из ключевых в данной области, именно в этот период началось более детальное исследование профайлинга как отдельного направления.

По итогам этого систематического обзора можно предположить, что в этот период зародился научный подход в этой дисциплине, хотя в целом немногие исследования использовали эмпирический подход для разработки новых технологий профайлинга. Еще меньше было проведено оценок эффективности профайлинга потенциальных преступников или правонарушителей *(далее – ПП)*. Следует отметить, что анализ показал наличие

повторяющихся тем, но значительные различия в их количестве, названиях и описании.

Проведенные исследования по анализу связей между данными случаями указывают на то, что эта область является статистически сложной и дает умеренные или высокие показатели точности при установлении связи между преступлениями и одним преступником [1]. Вместе с тем была проведена попытка изучения наиболее авторитетных авторов, исследователей и изданий, занимающихся изучением ПП, а также определены методы, подходы и наиболее цитируемые публикации по ПП.

Профайлинг потенциальных преступников или правонарушителей это инструмент, используемый в основном правоохранительными органами, психологами, учеными и консультантами для выявления основных личностных, поведенческих и демографических характеристик преступника или правонарушителя на основе анализа поведения на месте преступления [2]. Несмотря на то, что основная концепция ПП общеизвестна, определение многочисленных предпосылок, методов, терминологии и выводов в этой области имеет много аспектов и различий и не однозначных[1].

В первой статье о ПП, опубликованной Колином Кэмпбеллом в журнале *Psychology Today* в 1976 году, исследователей призывали доказать, что профайлеры лучше «барменов» предсказывают черты и особенности преступников. Несмотря на значительное количество исследований, проведенных по ПП, и чрезвычайную популярность методики среди правоохранительных органов, до сих пор точно не ясно, на каком этапе находится эта область с научной точки зрения, особенно в отношении теста Кэмпбелла (1976) «Бармен» [3].

В частности, за практически пять десятилетий, прошедших с момента возникновения ПП, по этой теме было опубликовано множество книг, отчетов и журнальных статей [4]. Однако, как представляется, существуют значительные различия в том, что считается ПП, кто его проводит, какая методология и подход используются, какие результаты получены, а также где и как представлены результаты. Поэтому, несмотря на популярность и обширную литературу по ПП, о текущем состоянии и результатах этой области на сегодняшний день известно очень мало.

Проведение систематической и научной оценки ПП имеет важное значение по нескольким причинам. Во-первых, ПП популярен в СМИ и гражданском секторе и является популярной областью исследований для ученых в области психологии, криминологии, безопасности и т.д. В области ПП очень мало устоявшегося и согласованного, что, возможно, связано с отсутствием единообразия в методах, данных и даже базовой терминологии, используемой теми, кто проводит исследования ПП [5, 6, 7, 8].

Необходимо отметить, что профайлинг преступника или правонарушителя поддерживается многими теориями, в частности теорией поведенческой последовательности и теорией анализа поведенческих доказательств [9]. Выделим по нашему мнению основные:

Во-первых, теория поведенческой последовательности, основанная на предположении, что преступник совершает одинаковые преступления в течение определенного периода времени [10]. Эта теория опирается на три важных фактора, которые также составляют основу ПП:

[1] *Важно отметить, что (1) не существует единого согласованного определения профайлинга преступников, используемого всеми в данной области, и (2) существуют другие родственные (и, возможно, синонимичные) термины/понятия, включая криминальный профайлинг, анализ уголовных расследований и профайлинг личности, которые также используются в данной области исключительно на основании предпочтений и опыта авторов, а не существенных различий в терминологии или значении.*

1) Modus Operandi – от лат. «метод действия», представляет собой конкретную манеру и схему, которой следует преступник при совершении преступления;

2) виктимология, которая представляет собой объективное изучение жертв преступления, сосредоточенное на анализе их образа жизни в попытке определить, почему они стали объектом нападения и каковы их отношения с преступником;

3) сигнатурное поведение, которое представляет собой уникальное сообщение или символ, оставленный на месте преступления.

Анализируя эти три фактора в преступлении, профайлер может связать его с ранее совершенными преступлениями, которые следуют той же схеме, что приводит к идентификации преступника [10].

Многие криминологи, в частности Холмс и Холмс [15], считают, что опора ПП на последовательность очень важна для этой практики и привела к задержанию многих известных серийных убийц.

